

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

XORIJIY TILLAR FAKULTETI

Ingliz tili adabiyoti va tarjima kafedrası

**Nabiyev Azizbek Mahmudjon o`g`li
(408-guruh)**

**FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING PAYDO BO`LISH
YO`LLARI VA ULARNING O`ZBEK TILIDAGI
MUQOBILLARINI TADQIQ ETISH USULLARI**

5141400- Xorijiy til (ingliz tili va adabiyoti) ta'lim yo`nalishi
bo`yicha bakalavr akademik darajasini
olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar:

dotsent I.S.Soliyev

Andijon - 2014

Bitiruv malakaviy ish ingliz tili adabiyoti va tarjima kafedrasining 2014-yil
20-may № 9 sonli yig`ilishida muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Fakultet dekani: f.f.n., dots. B. Rahmonov _____

Kafedra mudiri: dots. A.A.Abduvaliyev _____

Ilmiy rahbar: dots. I.S.Soliyev _____

Taqrizchi: G`.X.Satimov _____

Sh.A.Xurulboyev _____

Mundarija

Kirish.....	3-11
I BOB. Hozirgi zamon ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning tasnifi masalasi	12-16
I.1. Erkin va turg'un birikmalar	16-18
I.2. Frazeologik chatishmalar	18-30
II BOB. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning o'zbek tilidagi muqobillari masalasi.....	31-32
II.1. Hozirgi zamon o'zbek tilida erkin va turg'un birikmalar hamda frazeologik chatishmalar.....	32-35
II.2. Frazemalar transformatsiyasi.....	35-40
III BOB. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning etimologiyasi hususida...41	
III.1. Ingliz tilidagi ko'hna va odatlar, tarixiy haqiqatlar, an'analar va boshqalar bilan aloqador frazeologik birikmalar.....	41-75
III.2. Xorijiy tillardan o'zlashgan frazeologik birikmalar.....	75-96
III.3. Frazeologik birikmalarni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girish muammolari va o'qitish texnologiyalari	96-114
Xulosa.....	115-116
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	117-121

*“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni,
mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-
e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o’sib,
ulg’ayib, qanday inson bo’lib hayotga kirib borishiga
bog’liqdir. Biz bunday o’tkir haqiqatni hech qachon
unutmasligimiz kerak.” [5;1]*

I.A.Karimov

Kirish

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarini o‘qitishning kompleks tizimi, ya’ni uyg‘un kamol topgan, o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo‘naltirilgan tizim yaratildi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o’sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutahassislar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik hamda muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 12-dekabrda “*Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi Qarori qabul qilindi. Unga muvofiq “2013-2014 o‘quv yilidan boshlab Respublikaning barcha hududlarida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o‘rganish umumta’lim maktablarining birinchi sinflaridan o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o‘qish va grammatikani o‘zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanishi hamda oliy o‘quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni, xususan texnika va xalqaro mutahassisliklar bo‘yicha o‘qitish chet tillarida olib boriladi.” [7] shuningdek, “Ziyonet” tarmog‘i orqali ta’lim muassasalarining xalqaro ta’lim va bilim olish manbalariga kirish imkoniyatlarini sezilarli orttirish, uning resurs markazini multimediya resurslari, shaxsiy kompyuterlar va mobil uskunalar uchun ilovalar bilan boyitish, shuningdek ingliz tilida o‘quv va badiiy adabiyotlar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazetalar va jurnallarni chop etish, ularga maxsus ruknlar hamda ilovalarni tashkil qilish kabi bandlar qarorda o‘z aksini topgan.

“Ilm-fan salohiyati bu – xalqning, Vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevoridir. Uni rivojlantirishda ... davlat imkoni bo‘lgan hamma ishni qiladi, hech narsani ayamaydi.”

Iqtisodiy muammolar ertami-kechmi hal etiladi, lekin ilmiy boyligini qadrlamagan, uning taraqqiyoti uchun qayg`urmagan davlatning kelajagi bo`lmaydi. Buni biz doimo yodda tutmog`imiz shart” [6].

Respublikamiz Prezidentining bu fikrlaridan davlatimiz hududida ilm-fanni rivojlantirish, uning istiqbolini belgilashga katta e`tibor berish zarurligini anglash mumkin. Istiqbolga erishgan respublikamizda ma`naviyat, madaniyat, ilm-fan, texnika, maorifni yuksaltirishga katta ahamiyat berilayotgani sezilib turibdi.

“XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo`ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqazosi deb emas, balki butun sayyoramiz ko`lamida sobitqadamlik, barqarorlikning omili deb hisoblamoq zarur”, - degan edi yurtboshimiz I.A. Karimov [4;298]. Shu bois, O`zbekiston mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, chunonchi Yevropa Ittifoqi, YXT, NATO, EKO, OIK, Qo`shilmaslik harakati bilan samarali hamkorlik qilmoqda.

Bizning Amerika Qo`shma Shtatlari, Yevropadagi ko`pgina mamlakatlar – Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Chexiya, Portugaliya, Gretsiya, Slovakiya, Ruminiya va boshqa bir qator mamlakatlar bilan bevosita, ikki tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

Ushbu sharoitda dunyoning yetakchi olti tilidan biri bo`lgan ingliz tilini oddiy munosabatlar doirasida emas, balki ikkinchi ona tiliday bilish yo`lida va uni yosh avlodga o`rgatish jarayonida juda ko`p diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Ingliz tili grammatikasi, lug`at tarkibiga va fonetikasiga oid bir muncha ishlar amalga oshirilgani holda, bu tildagi turg`un birikmalar va iboralarni o`rganish, tasniflash, o`zbek tili bilan tadqiq qilish e`tibortalab masalalardan biri bo`lib qolmoqdaki, ularni o`rganish ingliz ilmiy va adabiy tilini chuqur tushunishga, badiiy- informatik asarlarni to`laqonli tahlil etishga olib keladi.

“Hozirgi paytda xorijiy tillarni o`rganish va o`rgatishga respublikamiz miqyosida katta ahamiyat berilmoqda. Butun jahon hamjamiyatlaridan o`ziga xos o`rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilish ahamiyatini baholashning hojati yo`qdir”, - deb ta`kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov [1;14-15].

Xorijiy tillarga o`rgatish borasida juda ko`p xilma-xil tajriba, kuzatish va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo`lib, qanday usul va uslubdan foydalanilmasin, baribir u bilim oluvchilar bilan til amaliy ko`nikma va malakalarini mashq qilish va matn bilan ishlashga borib taqaladi. Amaliy mashq qilmay, matn ishlatmay turib so`z o`rgatish mumkin emas. Atrofda xorijiy til

andozlari, namunalari ko'p uchramaydigan muhitda matndan tarjima usuli bilan xorijiy til asoslarini hosil qilib olish ham o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'zga ko'ringan Amerika tilshunos olimlari R.Lada hamda Ch.Frizlarning fikricha, ona tilidan xorijiy so'z ma'nolarini va grammatik hodisalarini ochib berish vositasidan til materiallarining izchilligini ta'minlash usuli sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir [2;235].

Albatta, xorijiy tilga o'rgatishning juda ko'p samarali va maqbul usullari mavjud bo'lib, ular orasida og'zaki nutqni rivojlantirish, uning mazmunini boyitish va o'stirishga qaratilgan hilma-hil sohalarni qamrab oladigan matnlar tizimining tipologik ahamiyati kattadir. Zamonaviy til o'rgatish usullarida ona tilidan foydalanish u yoki bu darajada olib boriladi.

Yaqin-yaqinlargacha g'arb tillarini o'rganish va o'rgatishda asosiy vosita rus tili bo'lib, o'quvchilarga bu narsa ikki barobar qiyinchilik tug'dirardi. Hozirgi kunda bu borada ona tilini chuqur o'rganish hamda xorijiy tilga o'rgatishda uning ahamiyati katta bo'lmoqda. Mustaqil respublikamizda ilm-fan, texnika, madaniyat, maorif va boshqa sohalarni yanada yuksaltirish uchun e'tibor borgan sari kuchayayotganini har qadamda sezish mumkin.

Fan sohalari qatori o'zbek tilshunosligi ham rivojlanishning istiqbolli yo'liga chiqib oldi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi esa milliy tilimizning yuksalishida, iste'mol doirasining kengayishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek tilining fonologiyasi, leksikasi, grammatikasi bilan bir qatorda, uning frazeologiyasi, uslubiyati ham keng o'rganila boshlandi. Buning natijasi o'laroq, qator ilmiy tadqiqotlar yaratildi.

Xorijiy til materiallarini ona tiliga, ona tili materiallarini esa xorijiy tilga tarjima qilish jarayonida tafakkur qobiliyati o'sadi, bir oyatning o'zida aql, tafakkur, hayol, xotira va so'z, bilish qobiliyati rivojlantiriladi, chunki aytilgan fikrni chuqur tushunishgina emas, balki o'sha fikrni o'z ona tilida mukammal va to'g'ri ifodalay bilish ko'nikmalari ham talab etiladi. Bunga esa faqat ikkala – o'zbek va xorijiy til materiallarini lingvo-tipologik jihatdan chuqur tahlil qilish orqaligina erishish mumkin. Shuning uchun ham ushbu lingvo-tipologik uslub umumiy tilshunoslikda bebaho vosita hisoblanadi. Chunki juda ko'p til materiallarini o'rganilayotgan til ichidagi hodisalarni ona tili ichidagi til hodisalariga taqqoslab ko'rish orqali o'rganish foydali natijalar beradi. Masalan, ingliz tilida mavjud bo'lgan predloglarning ishlatilishini, gaplarda so'z tartibi qoidalarini, leksik-semantik hodisalarni turli tizimdagi tillarda o'rganish yoki tillar va ularning yaruslariaro lingvistik kategoriyalarning ifodalanish usullarini muqoyasa qilish kabi masalalarni tadqiq qilish ma'qul bo'ladi. Bunday lingvistik yondashish natijasida xorijiy til materiallarigina emas, balki ona tili materiali ham ongli ravishda o'rganiladi hamda chuqurlashtiriladi. Agar fikrning aniq berilishi, shartligi ko'zda tutilgan bo'lsa, tarjima o'rniga bir tilli matnlardan, ya'ni perifraza ishlatish matnlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir fikrni turli vositalar yordamida ifodalay olish qobiliyati ma'lum darajada bilim olinganligini

ko'rsatadi. Kerakli fikrning boshqa so'zlar bilan ifodalanishi perifraza bo'lib, uni mukammal o'rganib olishdan avval yoki uning to'g'ri ekanligini tekshirib ko'rish uchun ham nazariy, ham amaliy tarjimadan foydalanish tavsiya etiladi. Fikrning aniq berilishi shart bo'lgan hollarda, ya'ni turli shartnomalarni xorijiy firmalar bilan tuzishda, ular bilan axborot almashishda, aniq fanlarga oid materiallarni o'rganish jarayonida ikki tilli matnlarning, ya'ni tarjima matnlarining ahamiyati beqiyosdir, chunki har qanday sinonim yoki perifrazaning ham kutilgan ma'noni berishdagi aniqlik darajasida o'ziga xos kamchiligi bo'ladi, u fikrni aniq bera olmasligi ham mumkin.

Xorijiy tilda gapirishda ikki tomonlama qiyinchilikka duch keladi: u nima deyishini ham, o'sha fikrning qanday ifodalanishini ham o'ylashi kerak bo'ladi. Amaliy tarjima matnlarini izchillik bilan muntazam o'rganib borish esa ayniqsa til o'rganishning boshlang'ich bosqichlarida xorijiy nutqning avtomatlashuviga olib keladi. Bunday amaliy matnlarni o'rganish jarayonida til o'rganuvchining aqliy va tafakkur qobiliyati ham o'sadi, rivojlanadi. Til muammosini "osonlashtirish" va til "to'sig'i"ni yengish uchun so'z va konstruksiyalarning berilishi, tafakkur kuchini oshirish uchun illyustrativ test materiallarining berilishi tavsiya etiladi. Bunday illyustrativ materiallar sifatida yana ona tilidan xorijiy tilga, yoki aksincha, xorijiy tildan ona tiliga amaliy tarjima matnlarini olish kerak bo'ladi. Bunda faqat tilning grammatik tomonigina o'rganilmasdan, to'g'ri variantdagi tarjimani topish uchun aqliy tafakkur ham o'stiriladi.

Va nihoyat, xorijiy tilga o'rgatishda ona tilidan va lingvo-tipologik tarjima uslubidan foydalanishning yana bir afzallik tomoni shundaki, bir tilli yoki tarjimasiz grammatik yoki leksik matnlar til o'rganuvchiga to'g'ri nutq namunalarini berib, tilni his qilishga o'rgatadi. Lekin tilni "his qilish" asosan ikki elementdan: xorijiy tilda o'z fikrini qanday ifoda qilish kerakligi va qanday ifoda qilmasligi kerakligidan iborat bo'ladi. Ikki tilli amaliy matnlar va faqat shunday matnlargina qonuniy ravishda ushbu vazifani amalga oshiradi.

Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi frazeologik birikmalar kategoriyasining tillar va yaruslararo ifodalanish usullarini yoritishga bag'ishlanib, unda asosan erkin birikmalar, turg'un birikmalar, frazeologik chatishmalar hamda iboralarning leksik-semantik xususiyatlari yordamida ifoda etilishi, frazeologik birikmalarning kelib chiqish yo'llarini o'rganish va bunga tarixiy jihatdan yondashishni, har ikkala ingliz va o'zbek tillari adabiyoti matnlarining kichik intervallari orqali o'rganish jarayonini o'z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Ingliz va o'zbek tilshunosligida frazeologik birikmalar bo'yicha bir nechta ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay mazkur mavzu ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy-tarixiy nuqtai nazardan keng o'rganilmaganligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida frazeologik birikmalarni o'zbek maktablarida o'quvchilarga o'rgatishning

lingvodidaktika masalalari bo'yicha olib borilgan ishlar salmog'i ham ozchilikni tashkil etadi. Ushbu malakaviy ish orqali shu kabi muammolarni yechishga harakat qildik.

Malakaviy ishning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llarining o'hshash va noo'hshash jihatlarini aniqlash va qiyosiy-tarixiy nuqtai-nazardan tahlil qilib chiqish hisoblandi.

Malakaviy ishning vazifalari. Mazkur ishimizning yuqorida ta'kidlangan maqsadidan kelib chiqqan holda izlanish vazifalarini quyidagicha belgiladik:

- 1) tilshunoslikda frazeologik birikmalarni etimologik tahlil qilish va misollar berish;
- 2) ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birikmalarni qiyosiy-tarixiy jihatdan tahlil qilish;
- 3) ingliz tilidagi frazeologik birikmalarni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar va qiyinchiliklarni tahlil etish;
- 4) ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birikmalarni o'qitishning metodikasini ishlab chiqish.

Malakaviy ishning predmetini ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birikmalarni nutqda qanday ifodalanishini, ularning o'ziga xos jihatlarini tashkil qiladi.

Malakaviy ishning obyekti: frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etishdan iborat.

Malakaviy ishning materiali sifatida antik, qadimgi, o'rta asr va hozirgi zamon ingliz va o'zbek yozuvchilarning asarlar matnlari, ingliz va o'zbek gazetalari va jurnallaridagi maqolalar matnlaridan, so'zlashuv jarayonida uchrovchi mavzuga xos dialogik va monologik nutqning ayrim misollari olindi.

Malakaviy ishning tahlil metodlari. Ishni yoritishda qiyosiy-tarixiy metod, transformatsion, statistik, ma'noni qismlarga bo'lish (компонентный анализ), bevosita tashkil qiluvchilarga ajratish metodlaridan foydalanildi.

Malakaviy ishning metodologik asosi. Frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etish usullari mavzusini o'rganishda umumiy tilshunoslik va o'zbek va ingliz tili frazeologiyasi hamda leksikologiyasi bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar, xorijiy tilshunos olimlar professor I.V.Arnold, akademik V.V.Vinogradov, professor A.V.Kunin, L.P.Smit, shuningdek o'zbek tilshunos olimlardan professor E.M.Umarxo'jayev, dotsent I.S.Soliyev, Sh.Rahmatullayev, dotsent A.Abduvaliyev, professor S.R.Rahimov va boshqalarning ilmiy ishlari va asarlari xizmat qildi.

Malakaviy ishning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilandi:

- 1) mazkur mavzu birinchi bor keng qiyoslab tahlil qilindi;
- 2) o'zbek tilida ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llariga birinchi marta tarixiy jihatdan yondashildi va bu yondashishlar lisoniy birliklar yordamida tahlil qilindi;

3) birinchi marta ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini o'rganishning lingvodidaktika masalalari o'rganib chiqildi.

Malakaviy ishning ilmiy ahamiyati ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini tilshunoslikda tutgan o'rni va qo'llanilishini umumiy tilshunoslik nuqtai-nazardan o'rganish bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birikmalarning leksik hamda leksikografik ifodalanishi yoritildi va tilda tutgan o'rni aniqlandi.

Malakaviy ishning amaliy qiymati. Ushbu malakaviy ishning natijasi "Umumiy tilshunoslik", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Nazariy grammatika", "Amaliy grammatika" kabi fanlarni o'qitishda, tarjimaning amaliy va nazariy masalalarini o'rganishda, shu bilan birga bu mavzuga oid bo'lgan gaplar va matnlarni maktab, kollej, litsey va oliy o'quv yurtlarida o'rganishning lingvodidaktik masalalariga yondashishda o'rganilishi mumkinligi va muhim ahamiyat kasb etishi ishning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Malakaviy ishning tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ish kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlarning alifbo tartibidagi ro'yxatidan iborat.

Malakaviy ishning *kirish* qismida O'zbekistonda ta'lim sohasiga hukumatimizning katta e'tibor bilan qarayotganligi, kadrlar tayyorlashning shu sohada tutgan o'rni haqida, shuningdek ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va unga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan e'tibori xususida so'z yuritdik. Shu bilan birga bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi, ob'ekti, maqsad va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, izlanish metodlari va boshqa xususiyatlari haqida so'z olib borildi.

Malakaviy ishning birinchi bobi "Hozirgi zamon ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning tasnifi masalasi" mavzusiga bag'ishlangan. Unda zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birikmalarning eng to'g'ri va aniq tasnifi hususida so'z yuritildi va tahlil qilindi.

Malakaviy ishning ikkinchi bobi "Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning o'zbek tilidagi muqobillari masalasi" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birikmalarning qiyosiy tahlili ustida ish olib borildi.

Malakaviy ishning uchinchi bobi "Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning etimologiyasi hususida" mavzusiga bag'ishlangan. Bu bobda ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llari atroflicha o'rganildi hamda ularning o'zbek tilidagi muqobillari tadqiq etilib mavzuga mos misollar bilan yoritildi. Bundan tashqari bob so'ngida frazeologik birikmalarni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girish muammolari va o'qitish texnologiyalari borasida kerakli tavsiyalar hamda zaruriy ma'lumotlar qayd etib o'tildi. Bundan tashqari frazeologik birikmalarni o'rganishda yuqori darajada samaradorlikka erishishga yordam beruvchi mashqlardan misollar keltirildi.

Malakaviy ishning xulosa qismida mazkur ish bo'yicha umumiy xulosalarni berib borishga harakat qildik.

Ishning so'nggida mazkur malakaviy ishning yoritilishida foydalanilgan ilmiy va badiiy adabiyot, gazeta va jurnallar, lug'atlar ro'yxati va internet manbalari berildi.

I BOB. Hozirgi zamon ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning tasnifi masalasi

Frazeologiya atamasi orqali, bir tomondan, soʻz birikmalarini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi, boshqa tomondan esa, maʼlum tilning barcha barqaror birikmalari majmui tushuniladi. Tilning lugʻat tarkibini nafaqat boshqa soʻzlar, balki barqaror soʻz birikmalari ham tashkil qiladi. Barqaror soʻz birikmalari boshqa soʻzlar bilan ibora tushunchasi vositasi vazifasida xizmat qiladi. Barqaror soʻz birikmalari oʻzida tobe munosabatda birikkan soʻzlarni namoyon etadi.

Erkin birikkan soʻz birikmasi maʼlum fikrlarni ifodalash uchun har bir maʼlum nutq vaziyatlarining vazifasiga asosan tildagi muloqotlar davridagi mazkur tilning grammatik qoidalariga asoslanib yaratiladi. Erkin birikmaning umumiy maʼnosi oʻsha birikmani tashkil etgan har bir soʻz mazmunidan anglashiladi. Erkin birikma tarkibiga hokim soʻz va gapning mustaqil aʼzosi vazifasini bajaradigan tobe soʻz kiritilgan. Shunday qilib, erkin birikma oʻzida sintaktik bogʻlanishni namoyon etadi. Birikmadagi har bir bogʻlanishlarning tobelik munosabati birikmaning semantik mustaqilligini anglatadi va ular birlashgan holda turgʻun birikmalarni hosil qiladi. Barqaror soʻz birikmasi birikma tarkibidagi biror soʻzni birikma maʼnosini buzmasdan oʻzgartirish mumkin boʻlmagan qatʼiy muayyan soʻzlardan tashkil topgan boʻladi. Barqaror birikma shaklan va muayyan maʼno jihatidan boshqa birikmalardan ajralib turadi, u anʼanaviy qoʻllanishi va mazmun toʻlaligining yuqori yoki quyi ekanligidan aniqlab olinadi. Turgʻun soʻz birikmasi nutq paytidagi soʻzlashuv jarayonida yaratilmaydi, lekin nutqda allaqachon qotib qolgan va maʼlum mazmunda ishlatilayotgan boʻladi. Barqaror soʻz birikmasining mazmunan toʻliq tarkibi gapning mustaqil boʻlagini anglatmaydi, lekin barqaror birikma bir butunlikda gapning bir boʻlagini barpo etadi, maqol bundan mustasno, chunki uning tuzilishi butun boshli gap bilan teng boʻlishi mumkin.

Barqaror birikmali soʻzlar tilning frazeologik birikmalari deb ham yuritiladi. Frazeologik birikmalar ikki yoki undan koʻp soʻzlardan tashkil topadi, u bir tushunchani ifodalashi va bir soʻzga ekvivalent boʻlishi mumkin, odatda u bir soʻzli sinonimik ekvivalentga ega boʻladi, sintaktik jihatdan gapning bir boʻlagini barpo etadi. Tuzilishiga koʻra frazeologik birikmalar ulkan hilma-hillikni oʻzida namoyon etadi. Frazeologik birikmalarning tarkibi oʻrtasidagi semantik bogʻlanishlar turlicha boʻlishi mumkin: bunday birliklar tarkibiga kiruvchi soʻz oʻzining maʼno mustaqilligini yuqori yoki past darajada saqlab qoladi.

XX asr tilshunoslarining eng bahsli mavzularidan biri – bu frazeologik birikmalarning lugʻatdagi oʻrni va bu tilning chegaralari haqida munozaralar yuritishdan iborat edi.

Ingliz va amerikalik olimlar frazeologik birikmalarni asosan tilshunoslikning bir muammosi sifatida talqin etishgan. Ular oʻz eʼtiborlarini frazeologik birikmalar va iboralar lugʻatlarini tuzishga qaratishgan. Bunday qilishdan koʻzlangan asosiy maqsad tajriba oʻtkazish

bo'lgan xolos, ya'ni ular barchani ham mahalliy aholini, ham xorijliklarni so'zlashuvdagi iboralar kitobi bilan ta'minlashgan va xorijliklar va sof inglizlarning muhim farqli jihatlarini ko'rib chiqqanlar. Bu yondashish qisman didaktik, qisman stilistik bo'lgan. Masalaning bu tomoni kelajakda alohida maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishga undaydi.

Savollarning cheki yo'q edi, bir tomondan bu turdagi lug'atlar nafaqat so'z birikmalarini, balki ularning kelib chiqishi, ta'sirchanligi nuqtai nazaridan qiziq bo'lgan alohida olingan so'zlarni ham o'z ichiga olgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa salomlashishlar, maqollar, allalar va asarlardan olingan so'z birikmalari, masalan, "*fat-head*" birikmasi ingliz tilidagi "*a fool*" so'ziga teng, bu esa o'zbek tiliga *ahmoq* deb tarjima qiliandi. Shuningdek *the Dickens* – *iblis*, *shaytoncha* so'zining evfimizmi, *BF* ['bi: `ef] "*bloody fool*" ning bosh harflari (nutqda: *bloody fool, how's things?*), "*what's sauce for the goose is sauce for the gander*" (maqol) kabilarni ham o'z ichiga olgan. Mak-Mordi frazeologik birikmalarda "*shall*" va "*will*" ning ishlatilishi, qo'shma fe'llar, umuman olganda, ulardagi ko'plab grammatik ma'lumotlar bilan tanishtirgan.

Ingliz va amerikaliklar bu turga mansub lug'atlarga boy ekanligi bilan faxrlansa bo'ladi, lekin umumiy tilshunoslikdagi ishlarda qayd etilgan qisqa ilovalardan tashqari hali yechimini topmagan nafaqat yechimini topmagan, balki hali o'ylab ko'rilmagan eng muhim nazariy muammolar qolmoqda edi.

Bularning orasida Uillyem L.Graffga to'xtaladigan bo'lsak, u haqiqatan, frazeologik birikmalar va uslubiy jihatdan erkin bog'langan so'zlar orasidagi farqni lingvistik tahlil qilib bergan. Graff o'z ishlarida "ifoda" yoki "ifoda birliklari" atamalarini qo'llagan va uni birlik va uning qismlaridagi ma'noni buzmasdan so'zlarning o'rni almashtirib bo'lmaydigan so'zlardan tashkil topgan namunaviy birlik sifatida aniqlagan. Uning yondashuvi kontekstual tahlillar va diaxronik kuzatuvlarni birlashtirgan. Bir ifodaning tarkibiy qismlari boshqa biri bilan shunchalik ko'p marotaba fonetik va semantik bog'lanishlarda qo'llanilganki, ular hatto murakkab birlik sifatida ajratib qo'yilgan. Graff o'sha birlikni erkin konstruksiyadan qanday qilib sodda so'zga o'zgarishiga juda qiziqib qolgan edi. Graff o'z qarashlarini quyidagi munosabatlar bilan isbotlashga urungan:

"*He left him a fortune*", "*He left him at home*" va "*He left him in the lurch*" gaplarini qiyoslab, birinchi ikkita gapdagi fe'l va to'ldiruvchi munosabati bog'lanmaganligini ta'kidlab o'tgan. Agar biz "*He gave him a fortune*" yoki "*He saw at home*" deganimizda yo agar biz buni boshqa katta matnlardagi ko'p gaplarda qo'llaganimizda, "*fortune*" va "*at home*" so'zlari orqali ifodalangan ma'nolar deyarli o'zgartirilmagan bo'lar edi. Uchinchi gapda esa, boshqalaridan farqli o'laroq, ma'no "*lurch*" so'ziga tobe bog'langan va boshqa hech qaysi fe'l bilan almashtirib bo'lmaydigan "*leave*" fe'li bilan bog'langanligi ahamiyatlidir. Graffning

ilovalaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, *"to leave in the lurch"* ning barcha qismlari bir-biriga bog'liq ekanligi anglashiladi.

Bu nazariya yozilganiga 75 yildan ko'proq vaqt bo'ldi. Graff hozirgi kunda ishlatilayotgan *"breakfast"* so'zi ham *"to break fast"* turg'un birikmasidan ajratib olinganligini aytadi, ya'ni *"break"* "ovqatdan saqlanmoq" ma'nosini anglatuvchi *"fast"* so'zi bilan birikkanda faqat shu so'z bilan muayyan ma'noli fe'l hisoblanadi. Shu sababli, *"And knight and squire had broken their fast"* (W.Scott) deyish o'rinli bo'lgan.

Haqiqatan ham, bu so'z emas edi, lekin so'z birikmasi otning sintaktik munosabati va fe'lning tuslanish munosabati orqali yaqqol holda ko'rsatilgan. Graff bu muammoga munosabatini o'zining umumiy tilshunoslik qo'llanmasida qisqacha to'xtalib bo'lgan.

Yana bir muhim, yechimini topmagan muammo klassifikatsiya muammosi edi. Batafsil guruhlashlar L.P.Smit va U.Ballarning ingliz tilidagi iboralar kitobida berilgan. O'sha davrda mualliflarning o'zlari ham bu guruhlashlarni frazeologik birikmalar klassifikatsiyasi sifatida qabul qilinishini tasdiqlashmagan edi. Ular shunchaki turg'un birikmalarni to'plashgan, ularni tushuntirishgan, ularning qiziq jihatlarining ba'zilarini, ya'ni alliteratsiya, qofiya, tazod va shu kabilarni yoritishgan va ifodalilikni aniqlashtiruvchi mehanizmlarini talqin etishgan. Ular ingliz tilidagi frazeologik birikmalarining etimologiyasi va kelib chiqishiga ham qiziqib ko'rishgan va ularni dengiz hayotidan, qishloq xo'jaligidan, ovchilikdan, sport turlaridan va boshqalardan olingan so'z birikmalariga ko'ra tartibga solganlar. Tilning resurslarga boyligi ingliz tilini o'qitish va o'rganishga qiziquvchilar uchun kundalik so'z birikmalarining juda qimmatli amaliy qo'llanmasini hosil qiladi.

Dunyoning mashhur rus tilshunoslari akademik F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov va boshqalar turg'un birikmalarining sintaktik tahlillari uchun yo'l ochib berishdi. Ko'plab rus olimlari muammoning nazariy aspektlariga katta qiziqish bildirishgan. Tilshunoslikning Frazeologiya deb ataladigan maxsus sohasi shu mamlakatda yuzaga keldi. Rus tilidagi frazeologiyalar uchun eng muhim nazariyalar akademik V.V.Vinogradov va professor B.A.Larinlar tomonidan rivojlantirilgan edi.

Ingliz tiliga keladigan bo'lsak, rus tilshunoslarining frazeologiyaga bag'ishlagan ishlarining miqdori juda ulkan hisoblanadi, professor A.V.Kunin va professor N.N.Amosovanning to'liq adabiyotlar ro'yxati keltirilgan doktorlik tezislari va bu turdagi lug'atning nazariyasi haqidagi maqolalar, ilmiy asarlar bilan birga professor A.V.Kuninning ingliz tili iborolari haqidagi keng qamrovli ikki tilli lug'atining mavjudligini aytishning o'zi ham yetarli bo'ladi deb o'ylaymiz.

Professor B.A.Larinning bu sohaga yondashishi diaxronik yo'nalishda edi. Uning tasnifi birikma o'z rivojlanishida bosib o'tgan uchta tadrijiy bosqichlarni aks ettirgan. Birinchi

bosqichda u erkin birikma sifatida yuzaga keladi. Ikkinchi bosqich metaforik soʻz birikmasining boʻlinmas shaklga kelib qolishiga yaqqol sabab boʻlgan. Soʻz birikmasida motivatsiyaning yoʻqolishi bilan iboraning yuzaga kelishi uchinchi bosqichni yuzaga keltirgan. Iboraning maʼnosi uning alohida tarkibiy qismlaridagi maʼno orqali tinglovchi tomonidan rivojlantirilmaydi, balki butunligicha tushuniladi.

Akademik V.V.Vinogradov iboralarni sinxronik usulda tasniflagan. U ilk bor shvetsariyalik tilshunos professor Charlz Belli tomonidan ilgari surilgan bir qancha gʻoyalarni rivojlantirgan va materialning tamomila leksikologik munosabatiga kuchli turtki berdi. Uning rus tili frazeologiyasi haqidagi maqolalari Rossiya va chet eldagi juda koʻp tilshunoslarga ulkan taʼsir koʻrsatdi. Biz unga frazeologik birikmalarni tasniflanishiga koʻra va aniq semantik xususiyatlari bilan ularni leksik komplekslar sifatida mukammal aniqlagani uchun unga oʻz minnatdorchiligimizni izhor etamiz. Uning tasnifi birlikning motivatsiyasiga asoslangan boʻlib, yaʼni butun birlikning maʼnosi bilan uning qismlarining oʻrtasidagi mavjud aloqadorlik nazarda tutiladi. Motivatsiya darajasi iboraning semantik yaxlitligi, boʻlinmasligi va oʻzgarmasligi bilan aloqadorlikda boʻladi, yaʼni komponentlarning tartibi yoki shaklning oʻzgarishi va butun bir ifodaning bir soʻz bilan oʻrin almashish ehtimolliklari bilan. Motivatsiya va shunga oʻxshash boshqa xususiyatlar inobatga olingan holda frazeologik birikmalarning uch turi taklif etilgan: erkin birikmalar, turgʻun birikmalar va frazeologik chatishmalar.

I.1. Erkin va turgʻun birikmalar

Erkin birikma – bu barqaror birikma, yaʼni birikma tarkibidagi soʻzlarning har birida tobeklik munosabati mavjud, bir oz maʼno mustaqilligi saqlangan birikma. Erkin birikmani tashkil etuvchi soʻzlar maʼnosi frazeologik bogʻlanishlarda tobeklikni bildiradi, bundan tashqari har biri mazkur soʻzlar bilan faqat birikmalarda koʻrsatiladi. Butun birikma maʼnosi uni tashkil etuvchi soʻzlar maʼnosidan anglashiladi: *to make allowances* – iltifot bilan qabul qilmoq, *to make up one's mind* – qaror qilmoq, *to make friends* – doʻstlashmoq.

Erkin birikmalar talaygina. Ular yaqqol uygʻunlashgan boʻladi. Buning taʼsirchan xususiyati butun birikma yaratgan ifodaga asoslangan boʻladi, huddi “*to stick (yoki to stand) to one's guns*”dagi kabi, bu birikma oʻzbek tiliga “*biror kimsaning fikrlarini oʻzgartirishini rad etmoq*” tarzida tarjima qiliandi. Bu birikma botirlik va toʻgʻrilikni nazarda tutmoqda. Bu misol bu turning boshqa bir xususiyatini koʻrsatadi, yaʼni juda cheklangan darajada boʻla oladigan sinonimik qatorning ehtimolini koʻrsatadi. Bularning bir qanchasi oson tarjima qiliandi va hatto xalqaro hisoblanadi, masalan: “*to know the way the wind is blowing*”.

Turgʻun birikma – bu barqaror soʻz birikmasi, yaʼni butun birikma uygʻunlashgan maʼnoda va birikma maʼnosi ayrim birikma tarkibidagi soʻzlar maʼnosidan yaratiladi. Turgʻun birikmaning umumiy maʼnosi asosida oson anglashiladigan soʻz yotadi. Uning tarkibidagi ayrim

soʻzlar - mazmunan tobe va birikma tarkibidagi soʻzlarning har-birining maʼnosi umumiy ravishda birlikka boʻysundiriladi, masalan: *to turn over a new leaf* - (s.s.) yangi sahifaga oʻtmoq = yangi hayot boshlamoq; *to dance on a tight rope* - (s.s.) dor ustida raqsga tushmoq = tavakkal qilmoq. Turgʻun birikma erkin sintaktik koʻrinishida omonimlikka ega. Shunday qilib, quyidagi gapni misol tariqasida olamiz: *He played the first fiddle*. - U birinchi marta skripka cholgʻan edi. va *He took the bull by the horns*. – U buqani shoxidan ushladi. Bu misollar toʻgʻridan-toʻgʻri maʼnolarda qoʻllash mumkin boʻlgan holatda – bu holatda bunday erkin birikmali gaplar oʻzida toʻrtta gap boʻlagini aks ettiradi; lekin ular koʻchma maʼnoda ham qoʻllanilishi mumkin. Bunday vaziyatda ular boshqa maʼnoga ega boʻladi: U birinchi oʻrinni egalladi (qoʻlga kiritdi). va U dadil harakat qildi. Shunday ekan, ularning har-biri ikkita gap boʻlagidan tashkil topgan turgʻun birikmadir: voqea-hodisaning egasi *he* va kesim, turgʻun birikmali ifoda; *played the first fiddle* va *took the bull by the horns*.

Turgʻun birikmalar oʻz nomidan koʻrinib turganidek oʻzaro bogʻlanishning eng yuqori bosqichini namoyon etadi. Tarkibiy qismlarning maʼnosi butun ifodaning taʼsirchan xususiyatlari (xossalari) va ifodalilik maʼnosini qamrab oladi. Turgʻun birikmalar har bir tilda aniq shakllangan boʻladi va boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida aynan soʻzma-soʻz tarjimini bermaydi.

Turgʻun birikmaning oʻziga xos misoli, taʼsirchan soʻzlashuv nutqiga xos boʻlgan ifoda “*as mad as a hatter*” birikmasini olaylik. Bu turgʻun birikma koʻrinishidan oddiy soʻz birikmasidan hech qanday farq qilmaydi, biroq inglizlarda bu birikma “*utterly mad*”, yaʼni oʻtaketgan ahmoq birikmasining ekvivalenti sifatida qoʻllaniladi. Buning maʼnosini tarkibiy qismlarning maʼnosidan kelib chiqqan holda tushuntirib boʻlmaydi. Qachonki umumiy soʻz birikmasi tushunilganda, uning alohida tarkibiy qismlarining maʼnosi unutiladi, oʻsha tarkibiy qismlarning anglashilmovchiligi baʼzi birliklarning tubdan oʻzgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Ifodaning kelib chiqishiga nazar tashlaydigan boʻlsak, iboraning hech qanday shlyapa sotuvchi yoki shlyapa yasovchi bilan aloqadorligi yoʻqligini koʻramiz, lekin bu yerda haqiqiy maʼnoda suvilonga ishora majud, “*mad*” soʻzining kelib chiqishidagi maʼnolarining birida undan qadimgi davrda “*qahr bilan gʻazablangan*” maʼnosida foydalanilganligi maʼlum boʻldi. Shu sababli bu iboraning asl maʼnosi “*ilon kabi gʻazablangan*” hisoblanadi.

I.2. Frazologik chatishmalar

Frazologik chatishma – bu barqaror soʻz birikmasi boʻlib, oʻzida mazmunan boʻlinmas butunlikni namoyon etadi; butun birikmaning maʼnosi birikmadagi ayrim soʻzlarning maʼnosidan anglashilmaydi. Birikma tarkibidagi soʻzlarning maʼno jihatdan mustaqilligi butunlay yoʻqolib ketadi: *to show the white feather* (s.s.: oq patni koʻrsatmoq) – qoʻrqoqlarcha yengilmoq, *to kiss the hare's foot* (s.s.: tovushqonning panjasini oʻpmoq) – kechikmoq.

Zamonaviy tilda chatishmaning ma`nosi birikma shakli bilan uyg`unlashmagan, chunki uning uyg`unlashuvining mavjud emasligi etimologik tahlillar yo`lida yashirinib yotibdi.

Frazeologik chatishmalar nafaqat uyg`unlashgan, balki boshqasi majoziy ma`noda ishlatilayotgan bir paytda, uning asl ma`nosidan foydalaniladigan bir tarkibiy qismni o`z ichiga oladi, masalan: *“to meet the requirements”*. Bularning harakatlanish imkoniyati oldingi turlarga qaraganda ancha kattaroq. Bu turda majoziy qismning ma`nosini buzmaydigan muqobillar ham mavjud. Misol uchun: *“to meet the necessity, meet the demand”*. Bu muqobillarda fe`lning ma`nosi buzilmagan holda saqlanib qolgani bilan butunning ma`nosi o`zgaradi va ular sinonim hisoblanmaydilar.

“Yuqoridagi tasniflashning zaif nuqtalari birqancha mualliflar tomonidan tanqid ostiga olingan. Ingliz tilidagi ma`lumotlarga diqqatini qaratishga urinish, uning cheklovlaridan xabardor bo`lish shart bo`lgan. Birinchidan, taklif etilgan o`zgarmas protseduralarning yo`qligi va mukammal mezon majud bo`lmaganidek so`zlovchi uchun turg`un birikmaning ahamiyati bor yoki yo`qligini aytib berishning imkoni yo`q edi. Ikkinchidan, erkin birikmalar guruhining turlichaligidir. Akademik V.V.Vinogradov ma`nosi matnda ham o`zgarmasligini ko`rsatuvchi bir qolipga solingan birikmalar, ikki qismli texnik atamalar va maqollarni o`z ichiga olgan tasnifini yaratgan. Va nihoyat eng so`nggi sababi, tasnif nazariy asoslarga ega emas va rus tili frazeologiyasi uchun rivojlantirilgan hamda mahsus ingliz tili frazeologiyasi uchun mos emas” [18;52] – deb qayd etib o`tgan edi professor I.V.Arnold.

Loyihaning qiziqarli va ravshan kichik o`zgarishi professor Stroyeva tomonidan nemis tili uchun taklif etilgan. U frazeologik birikmalarning asosiy qismini ikki guruhga bo`ladi: erkin birikmalar va frazeologik chatishmalar. Turg`un birikmalar ajratilgan guruh qismiga kiritilmagan, lekin ular erkin birikmalar tarkibiga kirgan, chunki biz avval aytib o`tganimizdek frazeologik birikmalarga qiziqish va istagini so`ndirishning mezoni turli so`zlashuvchilarning bilimi va topqirligiga bog`liq holda turlichadir. Erkin birikmaning majoziy ma`nosi butun birikma ma`nosi tomonidan yaratiladi, ma`no ko`chishi ekstra-lingvistik omillarga tobe bo`ladi, masalan aholi va uning madaniyati tarixiga doir birikmalardir. Nutqda omonimlik hususiyatiga ega erkin birikmalar mavjud bo`lishi mumkin, lekin ular ma`no jihatdan turlicha hisoblanishadi. Masalan, nemis tilidagi *“jemandem den Kopf waschen”* iborasi *kimnidir so`kmoq* ma`nosida ishlatiladi, shu bilan birga *“den Kopf waschen”* erkin so`z birikmasi *kimningdir boshini yuvmoq* ma`nosida ham ishlatiladi. Erkin birikmaning shakl va tuzilishi qat`iy va o`zgarmas bo`ladi. Uning barqarorligi qofiyadoshlik, sinonimlik, tuzilishdagi o`xshashliklar va boshqalarga asoslaandi. U boshqa bir joyda ishlatilmaydigan arxaik elementlarni qamrab olishi mumkin, lekin har holda birikmani tashkil etuvchi so`zlar ko`pincha oddiy bo`ladi va yorqin obrazlilikni yaratadi. Ularning nutqdagi vazifasi ifodalilik va ularning bir so`zli sinonimlariga taqqoslangan

holda ma`no kuchaytirishdan iborat. Frazeologik chatishmalar, bunga zid o`laroq, tarkibiy qismlarning birida faqat ma`no o`zgarishini ko`rsatadi va bu ma`no o`zgarishi chatishmaning ifodaliligini oshirishga sabab bo`lmaydi. Frazeologik chatishmaga lingvistik omillar, so`roq ostidagi til tizimidagi o`ziga xos mahsus xossalari tomonidan talab qo`yiladi va unda omonimlik hususiyati yo`q. Frazeologik chatishmaning tuzilishi erkin birikmaning tuzilishiga solishtirilganda ancha oson harakatlanadigan va hech qachon yuqorida aytib o`tilgan qofiyadoshlik va boshqalar kabi turg`unlik xossalarining hech birini o`zida aks ettirmaydi. Natijada frazeologik chatishma uslubiy jihatdan neytral va ko`pincha mavhumroq tushuncha bo`lib qolgan.

Professor A.I.Smirnitskiy frazeologik birikmaning ma`no jihatidan birlashishiga sabab bo`layotgani va uning nutqqa to`laligicha kirishiga izn berilayotgani o`rtasidagi iboraviy bog`liqlik sababli so`zga o`xshash bo`lgan frazeologik birlikni muhokama qilgan. Frazeologik birlikning leksik birliklardan farqi strukturaviy hisoblanib, u strukturaviy to`g`rilikning yetishmovchiligini bildirish uchun “раздельноофармленность” (alohida bezak) atamasini tanishtiradi. U andozalangan so`z birikmalarning uch turini taklif etadi: an`anaviy birliklar (ularning ma`nosi bir so`zga to`g`ri kelmaydi va ularning ma`nosi birikma tarkibidagi so`zlar ma`nosidan olinadi, masalan: *clenched fists, rough sketch, nice distinction, to shrug one`s shoulders*), frazeologik chatishmalar (*to get up, to fall in love*; ularning metaforik motivatsiyasi sekin-asta yo`qolib boradi va ular ta`sirchanlik hamda uslubiy jihatdan neytralligi va tegishli tushuncha uchun faqatgina ibora tarkibidagi so`zlardan biri bo`lib qolayotganligi sekin-asta asl ma`noning yo`qolib borishining asosiy sabablaridandir), va iboralar (tasavvuriy, ta`sirchanlik va uslubiy jihatdan rangdor, doim bir qancha neytral sinonimlari mavjud: *to take the bull by the horns, to wash one`s dirty linen in public, to fish in troubled waters, as dead as a doornail*). Faqat ikkinchi guruhga, ya`ni frazeologik chatishmalarga, batafsil tahlillar va tasnifning ayrim turi berilgan. Professor Smirnitskiyning ilmiy asaridagi frazeologiyaga bag`ishlangan bobi juda qisqa, uning yanada batafsilroq deb yuritilayotgan tasnifi juda tartibsiz – tuzilishi bilan uslub va ma`no mezoni, qo`yingki, barcha jihatlari chalkashtirib yuborilgan. Bu qo`llanilgan tasnifning ta`siri akademik Vinogradov foydalangan klassifikatsiya ta`siriga qaraganda ancha arziyas hisoblanadi. Shunga qaramasdan uning turg`un ifodalarga bo`lgan munosabatida juda foydali va qayd qilishga arziqli bir nechta fikrlar mavjud va ular hozirgacha ingliz tilining, eng muhim xususiyatlarini qamrab olgan. Professor Smirnitskiyning olib borgan tadqiqotlari so`zlar va frazeologik birliklar o`rtasidagi qiyosiylikka asoslangan. Ba`zilarida frazeologik birikmalar qo`shma so`zlarga va boshqalari yasama so`zlarga o`xshatilgan. Shunday qilib, *to take the chair* – ikki mustaqil so`zdan tashkil topgan birlik (birlikda bir qancha so`zlar bo`lishi mumkin) huddi

qo'shma so'zga o'xshaydi, modomiki *to give up* – bir mustaqil so'zdan tashkil topgan birlik yasama so'zga qiyoslangan.

Professor A.I.Smirnitskiy gaplarni to'liq shartli ifoda sifatida talqin eta olinishiga e'tibor qaratgan birinchi rus olimi edi. Masalan: *How do you do?* yoki *I beg your pardon. It takes all kinds to make the world. Can the leopard change his spots?* Ular uzoq muhokama qilib, yuqoridagilarni hamma birikmalardan farqlashgan, chunki ular tasniflashda ma'nosi bir so'zga teng bo'lmas edi va ma'no jihatidan tahlilga muhtoj edi. Professor N.N.Amosova tomonidan muhokama qilingan shartli ifodalar ma'no jihatidan muayyan tafovutda edi, misol uchun, *save your breath* – ovozi o'chmoq, jim bo'lmoq, ovozini o'chirmoq yoki *tell it to the marines*. Turg'un birikmalarda tez-tez uchrab turganidek, ularning kelib chiqishi bilan bog'liq turli izohlar mavjud. Taklif etilgan etimologik izohlardan biri bu: *tell that to the horse marines* – bu gapingni borib katta xolangga aytasan, o'sha ishonadi. Yuqoridagiga o'xshash ko'plab iboralar gaplarda kiritmalar sifatida ishlatiladi: *the cap fits* – haqiqiy bayonot; bo'lgan voqea. Masalan, *He called me a liar. Well, you should know if the cap fits. Butter would not melt in his mouth. His bark is worse than his bite*.

Professor N.N.Amosova frazeologiya sohasiga kontekstologik jihatdan yondashgan. U frazeologik birikmalarni qat'iy kontekst birliklari sifatida aniqlagan. Qat'iy kontekst muayyan leksik komponentlarning aniq va o'zgarmas izchilligi hamda ular o'rtasidagi g'aroyib semantik aloqadorlik orqali xarakterlangan kontekst sifatida aniqlanadi. Qat'iy kontekst birliklari so'z birikmalari va iboralarga ajratiladi. So'z birikmalari doimo ikki qismli bo'ladi: bir komponentda frazeologiyaga yo'nalgan ma'no mavjud bo'lsa, boshqasi kontekstni aniqlashga xizmat qiladi. Masalan: *small talk, small hours, small change*. Iboralardagi yangi ma'no har bir ibora tarkibidagi so'zning o'z haqiqiy ma'nosi zaiflashgan yoki butunlay ma'nosi yo'qolgan bo'lishi mumkinligiga qaramay, butun birikma orqali yaratiladi. Qiyoslang: "*in the nick of time*" – ayni daqiqada. Iboralar motivlashgan yoki motivlashmagan bo'lishi mumkin. Motivlashgan ibora erkin so'z birikmasiga omonim bo'ladi, lekin bu so'z birikmasi shaklan qo'llaniladi. Misol uchun: *take the bull by the horns* – xavf-xatarni mardona qarshi olish. *In the nick of time* iborasi motivlashmagan, chunki *nick* so'zi eskirgan so'z hisoblanadi. So'z birikmalari ham o'zgaruvchan va o'zgarmas bo'lishi mumkin, - deb ta'kidlab o'tgan edi professor N.N.Amosova.

Yuqoridagi fikrlarni quyidagi misollar yordami orqali oydinlashtirib olamiz. Yangi ma'no, iboraning ma'nosi, har bir element o'z ma'nosini saqlashiga qaramay, butun birikma ma'nosi o'sha birlik orqali yaratiladi deb aytib o'tildi. Bu jumlaning quyidagi misol orqali oydinlashtiramiz: *a mare's nest* – safsata, kashshofning faqat tasavvuridagina mavjud kashfiyot. *A mare* urg'ochi ot ma'nosini anglatadi, shak-shubha yo'qki, otlar inda yashashmaydi. *Mare* so'zi esa bir ma'noli so'z hisoblanadi hamda buni bilish uchun hech qanday izohning hojati yo'q.

Nest soʻzi koʻp maʼnoli soʻz, uning asosiy maʼnosi hisoblangan qushlar ini maʼnosidan tashqari, metonimiya sifatida polopon yoki metaforada turar joy, yotoq, oʻgʻrilarning tez-tez tashrif buyurib turadigan joyi maʼnolarini ham anglatadi. Bularning hech biri, har qanday holatda ham, *mare* soʻzi bilan bogʻlana olmaydi va ular bitta erkin soʻz birikmasida birga maʼno anglatmaydi. Shunday qilib, har ikki soʻz birikma bilan birga oʻzlarining har doimgi maʼnolarini saqlab qoladi, chunki butun birikma alohida maʼnoga egalik qiladi.

Yuqoridagi misol professor N.N.Amosova tasniflagan qatʼiy kontekstning tarkibiy qismi boʻlmish soʻz birikmalariga tegishlidir, endi eʼtiboringizni ikkinchi tarkibiy qism boʻlgan iboralarga berilgan taʼrif va ularni izohlovchi misollarga qaratishingiz mumkin.

Komponentlar yakkaligi nuqtai nazaridan iboralarning har-xil turlari mavjud. Ularning baʼzilari hech qayerda uchramaydigan eskirgan soʻzlarni yoki eskirgan maʼnodagi elementlarni oʻz ichiga oladi. Bu iboralar hech qachon erkin soʻz birikmasiga omonim boʻlmaydi va shuningdek ular soʻzlarni turkumlash jihatidan butunlay mustaqil hisoblanadi. Masalan: *to cudgel one's brains* – katta aqliy urinishni amalga oshirmoq. Iborada “*cudgel*” eskirgan soʻzining mavjudligi birikmaning ibora ekanligidan darak beradi. Boshqa iboralar erkin soʻz birikmalari bilan oʻzaro omonimlik munosabatida boʻla oladi. Masalan: *dark horse* – (s.s.) tim qora ot, ibora sifatida esa sirli odam deb tarjima qilinadi. Iбора baʼzi nomaʼlum sifatleri sababli poygada tasodifan gʻolib boʻlgan otning koʻrinishiga qurilgan.

The day after the fair – juda kech, muammoli vaziyat allaqachon tugab boʻlgandan keyin. Bu ibora erkin soʻz birikmasi sifatida ishlatilishi mumkin. Professor N.N.Amosova iboraning rasmiy qatʼiyligidan koʻra koʻproq zarurati boʻlgan ifoda komponentlari orasidagi ichki semantik aloqadorligining muayyan xossasi haqida fikr yuritadi. Shuning uchun qatʼiy kontekstning soʻz birikmalari va iboralarga bunday tarzda boʻlinishi birinchi, turgʻunlik xossasi esa ikkinchi darajalidir. Soʻz birikmalari va iboralarning ikkovi ham oʻzgaruvchan va oʻzgarmas turlarga boʻlinadi. Bu sifatlar ularning tuzilishiga juda bogʻliq hisoblanadi. Soʻz birikmasi uning oʻzgaruvchan qismiga bogʻliq ravishda oʻzgarishi mumkin. Misol uchun: *the apple of (his, her, mother's) eye* – (uning, onasining) koʻz qorasi. Soʻz birikmalari akademik Vinogradovning tasnifida aniqlangan frazeologik chatishmalarga ekvivalent boʻladi deb fikr yuritishimiz notoʻgʻri boʻlar edi. Professor N.N.Amosova akademik Vinogradov yaratgan atama orqali qamrab olingan materialni ikki guruhga boʻladi va frazeologik meʼyorlardan holi boʻlgan eng katta qismini birinchi koʻrib chiqadi. “*To pay a visit, to pay call, to pay homage, to pay compliments, to pay respects, to pay deference, to pay (one's) debts, to pay court, to pay (one's) address (to somebody)*”ga oʻxshash birikmalar biz tadqiq etayotgan sohaga mos boʻla olmaydi, chunki *to pay* feʼlining maʼnosini aniqlab kelayotgan soʻzlar oʻzgaruvchan hisoblanadi. Boshqa tomondan olib qaraganda, bu bunday birikmalarning ikkala qismi erkin emas, chunki otlar guruhining

ikkinchi tarkibiy qism bo'lish ehtimoli ma'no xususiyatiga ko'ra cheklanmaydi, lekin stilistik qoidaga ko'ra bu cheklangan. Misol uchun: *to pay seeing off*, *to pay celebration*, *to pay welcome* yoki *to pay greetings* deb aytish mumkin emas. Bularning ba'zilar morfoloqik jihatdan qat'iy hisoblanadi. Masalan: biz *to pay address* birikmasini *to pay an address*ga o'zgartira olmaymiz. Professor N.N.Amosova yarim qat'iy kontekst yoki an'anaviy qat'iy kontekst atamalarini taklif etadi.

Bu ikki guruh o'rtasidagi chegara chizig'i ozgina sun'iydek tuyuladi. Professor N.N.Amosova o'zi yaratgan tasnif yagona tasnif bo'lishi kerakligini talab qiladi.

Professor A.V.Kunin ham iboralarining etimologiyasini muhokama qilishga, ham o'zgacha murakkab holatlarni o'rganib chiqishga qiziqqan. Uning ilmiy asarlari, ayniqsa u to'plagan lug'at, va uning shogirdlarining dissertatsiyalari ham foydali, chunki ular butun soha uchun zamonaviy tekshiruv manbai sanaladi.

Professor A.V.Kunin frazeologiyani leksikologiyaning bir bo'limi emas, balki mustaqil tilshunoslik fani sifatida rivojlanishi shart deb fikr yuritadi. Uning frazeologik birikmalar tasnifi iboralar nutqda bajaradigan vazifasiga asoslangan. Ular otlashgan (*a bull in a china shop*), undovlashgan (*a pretty kettle of fish!*), so'zlashuvga xos (*familiarity breeds contempt*) yoki otlashgan so'zlashuvga xos (*pull somebody's leg*) bo'lishi mumkin. Qo'shimcha kichik yoki ichki guruhlariga tasniflash, birliklar o'zgaruvchan yoki o'zgarmas bo'lishiga yohud bir elementning ma'nosi erkin qolishiga yoki, odatda ko'proq, elementlarning ma'nosi o'rtasidagi o'zaro bog'lanishga asoslanadi. Ko'p e'tibor boshqacha ko'rinishning har-xil turlariga ajratilgan. Masalan, sinonimligiga, otlashganligiga va boshqalarga. Batafsil funksional va semantik tasnif leksikografiyaning talablariga mos ravishda asosan professor A.V.Kuninning tezislarida rivojlantirilgan.

Professor A.V.Kunin o'z tasnifini vazifa, ma'no va tuzilish xususiyatlarining birlashmasiga asoslagan. Uning tizimi o'z ilmiy asarida ravshan aytib o'tilgan.

Frazeologik birikmalar turli ko'rinishga ega bo'lishi va so'z turkumlariga munosib ekvivalent bo'lishi mumkin. Tuzilishiga ko'ra esa aynan frazeologik birikmalarga (*leaky vessel* – inson, *apple of one's eye* – juda qadrli, s.s.: ko'z qorachig'i, *apple of discord* – janjalga sabab bo'lgan narsa) va fe'lli birikmalarga (*to make mountains of molehills* – pashshadan fil yasamoq, *to find fault* – tirnoq ostidan kir izlamoq) ajratish mumkin. Frazeologik birikmalar turli stilistik bo'yoqlarga ega bo'lishi mumkin. Frazeologik birikmalar dabdabaga, balandparvozlikka ega ekanligiga ko'ra: *to do the i's and cross the t's* – o'ta ehtiyotkor bo'lmoq yoki *not to care a fig* – hammaga birdek bo'lmoq; *that's got him* – qilmish-qidirmish; *there is a deer* – ziyrak bo'ling!; *I am fed up with it!* – jonga tegdi! Yetadi! *To have a go* – sinab ko'rmoq. Ba'zi jargon iboralar

hatto bir qancha vulgar soʻzlarga ham ega: *a pretty kettle of fish* – chatoqlik, *to fly off the handle* – oʻzidan ketmoq va boshqalar.

Ingliz tilidagi baʼzi frazeologik birikmalar koʻp maʼnoli hisoblanadi. Shunday iboralardan *to feed the fishes* quyidagi maʼnolarga ega:

1. Choʻkmoq
2. Dengiz kasalidan azoblanmoq

To give way:

1. Chekinmoq
2. Joy bermiq
3. Qaddi bukilmq, mazasi ketmoq
4. Narxdagi pasayish.

Shunga oʻxshash boshqa koʻp maʼnoli soʻz yoki frazeologik birikma boʻlsa, uning maʼnolari matnning oʻzidan aniqlanadi.

Frazeologik birikmalar alohida olingan soʻzlar kabi sinonimlarga ega boʻlishi mumkin, bunday holatda sinonim frazeologik birikmalar ikki turga ajratilishi mumkin;

1. Bir xil ifoda va shuningdek leksik tarkibi ham huddi istesno holat uchun bitta almashuvchi tarkibga ega boʻlgan sinonim frazeologik birikmalar.

<i>To get the bit between one's teeth</i>	}	oʻzini tuta olmaslik
<i>To take the bit between one's teeth</i>		oʻzidan ketmoq
<i>To nip in the bud</i>	}	ildizini
<i>To check in the bud</i>		quritmoq

2. Turli soʻzlardan tashkil topgan asosga va har xil leksemalar orasidagi mutanosib ifodaga ega boʻlgan sinonim frazeologik birikmalar:

<i>To leave no stone unturned</i>	}	barcha imkoniyatlarni ishga solmoq
<i>To move heaven and earth</i>		qoʻlidan kelganini qilmoq
<i>To have a bee in one's bonnet</i>	}	biror narsa, ishga gʻov boʻlmoq
<i>To have something on the brain</i>		biror narsa, ishga toʻsqinlik qilmoq

Frazeologik birikmalar tilning rivojlanish jarayonida erkin sintaktik birikmalarning maʼnosi oʻzlarining haqiqiy, aniq maʼnosidan mavhum sintaktik birikmalarga oʻzgarishi orqali vujudga kelgan va umumiy koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi orqali shundayligicha qotib qolgan. Birikma tarkibidagi soʻzlar oʻzining toʻgʻri maʼnosi va semantik mustaqilligini yoʻqotgan, yoʻqolgan birikmaning maʼno va ifoda uygʻunligini qiyoslash mobaynida boshqa ibora tarkibidagi soʻzlarning maʼnosidan allaqachon yiroqlashib ketgan. Shunday iboralardan *Hobson's choice* (s.s.: hobsonning tanlovi – tanlash imkoniyatining yoʻqligi, boshi berk koʻchaga kirib qolmoq) erkin sintaktik birikmadan paydo boʻlgan va oʻz vaqtida bu birikma aniq

ko`rinish va aniq ta`siriga ega bo`lgan (Hobson – pulli otxona xo`jayini, mijozlar o`z otlarini faqat Hobson aytgan qoziqqa bog`lashgan). Tillardagi frazeologik birikmalarning tuzilishida metaforik ma`no ko`chishi yuz beradi, lekin ularning uyg`unlashuvi yo`qolib ketmaydi. Masalan: *behind the scenes* ((s.s.) manzara ortidagi, tasvir ortidagi; hech kimga bildirmaslik sharti bilan) iborasi kasbiy iboraning metaforik qo`llanilish usuli bilan vujudga kelgan.

Frazeologik birikmalarning paydo bo`lish manbasi turlicha bo`lishi mumkin. Bu:

a) Tarixiy voqealar yoki unutilgan odatlarga asoslangan, masalan, *to burn one`s boats* frazeologik birikmasi ba`zi qadimgi dengizchilarning odatiga ishora qiladi, ya`ni o`z qo`shinlari qirg`oqqa yaqinlashishi bilan o`tmishdagi foydalana olmagan imkoniyatlarini esdan chiqarish uchun kemalarga o`t qo`yib yuborishni buyurganlar; *to bury the hatchet* – sulh tuzmoq (tinchlik shartnomasini tuzish mobaynida amerikalik hindular odatidan kelib chiqqan);

b) Janggor holatlarda qo`llanilgan jumla yoki iboralarga asoslangan, masalan, *to make a cat`s paw* – kingadir o`z zambaragini yasab bermoq (maymun haqidagi masaldan olingan, ya`ni bir kuni maymun mushukni yonib turgan olov ichidan kashtan yong`og`ini olishga majburlagan; *Brevity is the soul of wit* – lo`ndalik – ziyorlikning yuragidir (Shekspir));

c) Olinmalar, ya`ni boshqa tildagi frazeologik birikmalarning s.s. tarjimasi, masalan: *the apple of discord* – (yun.) janjalga sabab bo`lgan narsa, janjal o`chog`i, *to wash one`s hands of (something)* – (yun.) qo`llarni yuvmoq, *to make two bites of a cherry* – (fr.) ishga jalb qilmoq;

d) Turli kasbiy iboralarga, shuningdek xar hil ko`ngilhushlik, o`yin, sport va boshqalar bilan bog`langan iboralrga asoslangan, masalan: *to put the finishing touches* – so`nggi eskizlarni yaratmoq (rassomlarning kasbiy iborasi), *to feel one`s pulse* – kimningdir maqsadini bilib olmoq (tibbiyot iborasidan; s.s.: pulsni tekshirmoq), *to have a ball at one`s feet* – vaziyatni qo`lga olmoq (futbol o`yinidagi ibora; s.s.: oyog`idagi to`p), *to have all the trumps in one`s hand* – barcha kuzrlar qo`lida bo`lmoq (qarta o`yini iborasi), *between the wind and water* – xavfli joyda (dengizchilar iborasi; s.s.: shamol va suv o`rtasida) va shunga o`xshash.

Maqollar ham frazeologik birikmalarga taalluqli hisoblanadi, ya`ni u o`zida frazeologik birikmalarning alohida turini namoyon etadi. Maqollar ularni qolgan frazeologik birikmalardan ajratib turuvchi o`zining farqli xususiyatlariga ega; tuzilishiga ko`ra maqollar tugal sintaktik butunlikdagi gapni bildiradi: maqol o`z ichiga tarbiya, ta`lim, maslahat, masallarni oladi, bundan tashqari u aforizmlik xarakteriga ham egadir. *No pains, no gains* - (s.s.: og`riq yo`q – yutuq yo`q) Mashaqqatsiz rohat bo`lmas. *All is not gold that glitters* – Yaltiragan barcha narsa oltin bo`lavermaydi. *A friend in need is a friend indeed* – (s.s.: Muhtojlikdagi do`st – haqiqiy do`st) Do`st kulfatda bilinar.

Maqollar bir-biri bilan sinonim ham bo`lishi mumkin:

Make hay while the sun shines.

Strike the iron while it is hot.

Temirni qizig`ida bos.

Ba`zi hollarda maqollarning qismi mustaqil frazeologik birikmaga ajrashi mumkin va goho bir qancha o`zgargan ma`no bilan yangi ma`lumot ham berishi mumkin. Shunday maqollardan: *Birds of a feather flock together* - (s.s.: bir patning o`zi qushlarni joyida ushlab turadi) Baliqchi baliqni uzoqdan payqaydi. *Birds of a feather* o`z ma`nosi bilan yangi ma`lumot bermoqda, ya`ni o`zbek tilidagi: bir-biridan qolishmaydi, hammasi bir go`r birikmalariga muvofiq keladi.

Frazeologik birikmalar tovush vositasida qurilishi ham mumkin:

- Qofiyalanib: *A friend in need is a friend indeed*
- Alliteratsiya¹: *bag and baggage* – bor ko`ch-ko`roni bilan, *safe and sound* – ziyon-zahmatsiz.

Ba`zi frazeologik birikmalar sinonimlarni yoki antonimlarni birga ishlatish asosida quriladi. Masalan: *really and truly* – haqiqatan, darhaqiqat, *give and take* – o`zaro rozilik. Frazeologik birikma ta`limotning yoyilishi ularni qiyoslashga xizmat qiladi; bunda *as* yoki *like* bog`lovchilaridan foydalaniladi: *as brittle as glass* – shishadek nozik, *as easy as ABC* – alifbodek oson. Shunday qilib frazeologik birikmalar tuzilishiga ko`ra juft so`zlarga o`xshash yasaladi

Frazeologik birikmalar tilni boyitadi, uni yanada obrazliroq qiladi va uning ta`sirchanlik imkoniyatlarini oshiradi. Tilning frazeologik birikmalarining ta`limoti uchun asosiy narsa – bu asosiy lug`at fondidagi so`zlar hisoblanadi. Shunday ekan, quyidagi frazeologik birikmalar asosiy lug`at fondiga tegishli so`zlardan tuzilgan: *to keep late hours* – kech uxlashga yotmoq, *to keep one`s eye* – kuzatmoq, *to have the upper hand* – g`alaba qozonmoq, *to have an old head and young shoulders* – tengdoshlaridan ko`ra aqliroq bo`lmoq, *to have a sweet tooth* – shirintomoq bo`lmoq. Frazeologik birikmalar tarkibigaeskirgan so`zlarni ham kiritishimiz mumkin, ya`ni zamonaviy tilda bunday frazeologik birikmalardan tashqarida mustaqil ravishda qo`llanilmaydi, masalan: *kith and kin* – barcha qarindosh-urug`lar, *hue and cry* – oldi-qochdi gap; quvg`in. *Kith and hue* so`zlari hozirgi ingliz tilida mustaqil ravishda qo`llanilmaydi.

Frazeologik birikmalarning ishlatilishida boshqa so`zlari yoki ekvivalentlarni stilistik butunlikda nutqda ishlatilishini kuzatish mumkin; shu bilan birga faqat frazeologik birikmalarning qismlari butun iboraning ma`nosi bilan qo`llanishi ham mumkin. So`zlovchi butun birikmaga yanada ifodalilik berish uchun frazeologik birikmalarning ayrim tarkibiy qismlarini tushirib qoldirishi yoki ularni boshqasiga almashtirishi mumkin. Bunda har qanday

¹ Alliteratsiya ohanngdosh ma`lum tovushlarning takrorlanishidan hosil bo`ladi.

holatda ham frazeologik birikmalarning to'liq ma'nosi butunligicha saqlanishi mumkin. Bunday frazeologik birikmalarning hammaga ma'lumlighi va barcha ishlatgani tufayli ularning semantik butunligi buzilmaydi. Mohir yozuvchilar tilning bunday imkoniyatidan unumli foydalanishadi. Misol uchun, Dikkins ingliz tilidagi mashxur iborani variantlashtirgan: *cut of the frying pan into the fire* – (s.s.: olovdagi tovadani) yomg'irdan qochib do'lga tutilmoq. U “Pikvik klubidan bitiklar” asari boblaridan birida iboraning navbatdagi nomlanishini keltirib o'tadi: *How Mr. Winkle when he stopped out of the frying pan, walked gently and comfortably into the fire.* – U janob Uinkldek yomg'irdan qochib, do'lga tutilgan edi. *to be born with a silver spoon in one's mouth* (baxtli bo'lmoq (qiy. Doimo ishi o'ngidan kelmoq)) iborasini Glasvorsi shunday keltiradi: *He was not a highly educated little boy. Yet on the whole, the silver spoon stayed in his mouth without spoiling it.* – U yaxshi tarbiyalanmagan bola edi, lekin har qanday holatda ham uning ishlari o'ngidan kelaverardi, unga hech shikast yetmas edi. Bunda yozuvchi ota-onaning molu dunyosi bola tarbiyasiga ta'sir etmasligini ko'rsatish uchun qo'llaydi. Maqollarga kelsak, Glasvorsi muloqotda qo'llanilayotgan nutq nima haqida borayotganligini ta'kidlash uchun ularga ba'zi o'zgartishlarni kiritadi: *a stitch in time saves nine* – amallarning eng yaxshisi – bu vaqtida bajarilgan amaldir. *He intended to take an opportunity this afternoon of speaking to Irene. A word in time saved nine.* – U o'sha kechada Irenga gapirish imkoniyatiga ega bo'lishni niyat qilgan edi. Amallarning eng yaxshisi – bu vaqtida bajarilgan amaldir. Frazeologiya ma'lum tilning milliy xususiyatlarini, aynan o'sha tilga xoslikni o'z ichiga oladi, demak aynan shu narsa ko'p hollarda tarjima uchun qiyinchiliklar tug'diradi.

II BOB. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning o`zbek tilidagi muqobillari masalasi

Tilning lug`at tarkibiga faqat so`zlar emas, balki turg`un bo`lib qolgan so`z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo`lgan turg`un birikmalar *frazeologizmlar*, *frazeologik birikmalar* yoki *iboralar* deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi *frazeologiya*² deyiladi. Frazeologizmlar tilning leksikasiga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo`limi sifatida qaraladi.

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so`zlarning turg`un birikmasidir. Masalan, *boshiga ko`tarmoq*, *tilini bir qarich qilmoq*, *kovushini to`g`rilamoq*, *juftakni rostlamoq*, *olam guliston*, *katta og`iz* kabi.

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so`z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma`no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma`noni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta`sirchan vosita sifatida ko`p qo`llanadi

Hushyor boq to foniy umr kechadi,

Tegrangda turfa xil toshlar uchadi.

Biri qora hasad yo g`araz toshi

Biri yovuz tuhmat yo maraz toshi...

Ular sabr kosang to`ldirmoq bo`lar,

Ular umr gulin so`ldirmoq bo`lar.

Frazeologizmlar tarjima qilinar ekan, tarjima tilida asliyatdagi frazeologizmlarning barchasiga muqobil variant topilmasligi aniq. Binobarin, muqobili topilmagan frazeologizmni tarjima qilishda har bir holatda tarjimon alohida yo`l tutishi kerak bo`ladi. G`.Salomov: “boshqa xalqning maqol va matalini so`zma-so`z tarjima qilishda g`oyat mohirlik va ehtiyotkorlik talab etiladi. Aks holda, boshqa xalqning milliy tafakkur taxlitini aynan aks ettiraman deb, maqolni quruq gapga, matalni esa suyuq birikmaga aylantirib qo`yishi hech gap emas” [73;245], - deb ta`kidlaydi. Chindan ham, ayrim maqol va matallar, frazeologik birikmalar so`zma-so`z tarjima qilinganda o`z qimmatini yo`qotadi, ular zamiridagi hikmat, milliy koloritga xos bo`lgan turfa jihatlar, asosiy va ko`chma ma`nolar tarjima tilida to`la o`z aksini topa olmaydi.

II.1. Hozirgi zamon o`zbek tilida erkin va turg`un birikmalar hamda frazeologik chatishmalar

Nutq jarayonida fikrimizni bayon qilish uchun so`zlar yordamidagina emas, balki bir necha so`zlarning barqaror bog`lanishidan hosil bo`lgan birikmalardan ham foydalanamiz.

² Frazeologiya - (yun.) Phrasis – “ibora”, logos – “so`z”

Masalan, *Toshkentdagi istiqlol davrida qurilgan inshootlarni ko`rib, og`zim ochilib qoldi*. Bu gapda *og`zim ochilib qoldi* birikmasi so`zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kirilgan.

Og`iz ochilib qolmoq* birikmasi nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir leksema *hayron bo`lmoq leksemasi ifodalagan ma`noga teng bo`ladi. Yoki *yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda, deydi xalqimiz*, jumlasida *deydi xalqimiz* birikmasi tarkibidagi so`zlar o`zaro erkin bog`langan bo`lsa, undan oldingi so`zlar so`zlovchi nutqiga qadar xalqimiz tomonidan yaratilgan, tilimizda tayyor holda so`zlarning xuddi shunday tarkibini doimiy saqlagan holda mavjuddir.

Ikki va undan ortiq so`zlarning o`zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo`lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma`no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o`rinli foydalanish nutq go`zalligini ta`minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko`rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o`rganuvchi tilshunoslik bo`limi paremiologiya³, barqaror birikmalar lug`atini tuzish muammolarini o`rganuvchi bo`lim esa paremiografiya⁴ sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarning barqarorligi belgisiga ko`ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma`no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko`ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1. Frazelogizmlar
2. Maqol va matallar
3. Aforizmlar

Frazelogizmlar uch turli bo`ladi: erkin birikmalar, turg`un birikmalar, frazeologik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so`z to`g`ri, ikkinchi so`z esa ko`chma ma`noda bo`lib birikkan iboralar *erkin birikmalar* deyiladi: *hordiq* (to`g`ri ma`noda) *chiqarmoq* (ko`chma ma`noda), *holdan* (to`g`ri ma`noda) *toymoq* (ko`chma ma`noda), *so`zida* (to`g`ri ma`noda) *turmoq* (ko`chma ma`noda) kabi.

Hozirgi zamon o`zbek tilidagi turg`un birikmalar

³ Paremiologiya – (lot.) *parema* – barqaror, *logos* – ta`limot

⁴ Paremiografiya – (lot.) *parema* – barqaror, *grapho* - yozmoq

Tarkibidagi soʻzlarning maʼnolari va grammatik jihati birikib umumiy koʻchma maʼno beruvchi iboralar turgʻun birikmalar deb ataladi: *koʻkka koʻtarmoq* (maqtamoq), *eti suyakka yopishgan* (ozgʻin), *yuragi orqasiga tortmoq* (qoʻrqmoq) kabi.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi soʻzlar maʼno jihatdan uygʻunlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va koʻpincha mazmunan bir leksemaga toʻgʻri keladi va koʻchma maʼnoda ishlatiladi.

Masalan, *qulogʻi ding boʻlmoq* – *hushyor boʻlmoq*, *qovogʻi osilmoq* – *xafa boʻlmoq*, *ogʻzining tanobi qochdi* – *quvonmoq* kabi.

Maʼno yaxlitligiga ega boʻlgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq soʻzlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi koʻchma maʼnodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir boʻlagi vazifasida keladi. Frazeologizmlarni tashkil etuvchi soʻzlar faqat frazeologizmlarning ichki qismlari sanaladi. Gapning boshqa boʻlaklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan, *Rais daladagi hosilni koʻrib boshi osmonga yetdi*. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Hozirgi zamon oʻzbek tilidagi frazeologik chatishmalar

Tarkibidagi soʻzlarning maʼnolari bilan ibora ifoda etgan maʼno oʻrtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi: *sichqonning inini ijaraga olmoq*, *tegirmonga tushsa butun chiqmoq*, *temirni qizigʻida bosmoq*, *oyogʻini tirab olmoq* kabi.

Frazeologik qoʻshilma yoki butunliklar soʻzlarni oʻzaro biriktirish yoʻli bilan yasalgan yaxlit iboralar boʻlib, ularning tarkibidagi baʼzi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarining komponentlarini almashtirish mumkin emas. *Oyogʻini tirab turmoq* yoki *oyogʻini tirab turib olmoq* bir maʼnoni ifodalashi sababli frazeologik sinonimlar hisoblanadi, biroq ularning komponentlarini almashtirish mumkin emas. Shuningdek, *bagʻri tosh* va *mehri tosh* iborolari frazeologik sinonimlar boʻlib, ularga oʻz maʼnosi bilan qarama-qarshi boʻlgan *koʻngli boʻsh* va *mehri boʻsh* iborolari frazeologik antonimlardir. Baʼzan frazeologizmlar shaklan toʻgʻri kelib, turli maʼnolarni ifodalaydi. Bunday hodisa frazeologik omonimiya deyiladi: *javobini bermoq* – 1) biror savolga javob qaytarmoq; 2) biror xizmatchini ishdan boʻshatmoq kabi.

Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin soʻz birikmalari asosida hosil boʻladi. Biroq ular koʻchma maʼno kasb etib, komponentlari oʻzaro birikib yaxlit holda qoʻllanilishi natijasida singib ketadi. Masalan, *joyiga keltirmoq*, *oʻrniga qoʻymoq* iborolari erkin birikmalarni eslatadi. Lekin ular koʻchma maʼnoda qoʻllanib, “ishni (vazifani) yaxshi bajarmoq”, “biror ishni tartibli

bajarmoq” ma`nolariga ega bo`lgan. Frazelogizmlarning ko`chma ma`nolari nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashadi. Frazelogizmlar turli tillarda o`sha xalqning ba`zi urf-odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini so`zma-so`z ag`darmay, to`g`ri keluvchi iboralardan foydalaniladi.

Frazelogizmlar grammatik tuzilishi bilan farq qiladi. Ularning tarkibida ot, sifat, fe`l va boshqa so`z turkumlari ishtirok etadi hamda komponentlarning sintaktik birikuvi ham turlicha bo`ladi: *olam guliston, ta`bi xira, kayfi buzuvchi, tepsa-tebranmas, qorasi o`chmoq, yuragi qora, o`ziga kelmoq, o`rtaga tashlamoq, katta gapirmoq* kabilar.

Tarkibida taqlid so`zlar bo`lgan frazeologizmlar alohida ko`chma ma`nolari bilan ajralib turadi: *yuragi duk-duk qilmoq, piq-piq qilmoq, taq-taq etmoq* kabi.

Frazelogizmlar semantik tomondan umumlashgan ko`chma ma`no ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarning o`zaro birikuvi va gapda ham shu tartibni saqlab qolishi bilan izohlanadi.

II.2. Frazemalar transformatsiyasi

Tilshunoslikda frazeologizmlarning o`zgaruvchanlik xususiyatlari “struktural o`zgarishlar”, “formal o`zgarishlar”, “frazelogik transpozitsiya”, “leksik qayta shakllanish” kabi terminlar bilan atalgan. Bizningcha, frazemalar transformatsiyasi termini frazemalardagi o`zgarishlarni to`liq qamrab oladi.

Qaxramonlarning tashqi iqyofasi bilan birga, ma`naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va ta`sirli qilib tasvirlab berish maqsadida yozuvchilar frazemalardan keng foydalanadilar. Ayni paytda ular frazemalarni qisman o`zgartirib qo`llaydilar yoki butunlay yangi individual-muallif frazemalarni ham yaratadilar. Kuzatishlarimiz o`zbek tilida frazemalar transformatsiyasining quyidagi shakllari mavjudligini ko`rsatdi:

Frazema tarkibidagi muayyan so`zlarni almashtirish

Tilning rivojlanish bosqichida frazemalar tarkibidagi u yoki bu komponent faol ifoda qiluvchi yangi leksemalarga almashtirilishi mumkin. Masalan, “sallani ol desa, kallani olmoq” frazemasidagi salla komponenti qo`llanmasligi tufayli do`ppi leksemasi bilan almashtirilgan, natijada “do`ppini ol desa, kallani olmoq” shaklidagi yangi frazema hosil bo`lgan. “do`ppiga qo`shib faqat boshni emas, oyoq-qo`lini ham qiyma-qiyma qilib olib keladi” [87;122]. Ushbu gapda “sallani ol desa, kallani olmoq” iborasining ijodiy o`zgartirilganligini ko`rish mumkin. “salla” so`zi o`rniga “do`ppi” so`zini qo`llagan bo`lsa, “kalla” so`zi o`rniga “bosh” so`zini o`zgartirib qo`llaydi. Yozuvchi bu ibora orqali ayrim kishilarning boshliqlarga yoqish maqsadida berilgan ko`rsatmani me`yorida oshirib bajarish holatini kinoya bilan ifodalaydi.

Frazema tarkibiga muayyan so`zlarni qo`shish

Umumtil frazemalari tarkibiga turli ekspressiv ottenkalar hosil qilish va ma`noni kuchaytirish uchun leksemalarni qo`shib ishlatish bilan ham frazemalar o`zgaradi. Masalan: “Men behad ta`sirchan edim, atrofimdagi og`riqlarga ko`z yumib, o`z ko`nglimning chuldurashiga quloq tutmasdim, tutolmasdim” [44;49]. “ko`nglimga quloq solmasdim”ga nisbatan “ko`nglimning chuldurashiga quloq tutmasdim” fikrni yorqinroq ifodalaydi va ko`proq ma`noni bildiradi. Yoki “yetti nomusimni yerga bukding-ku” [120;213] gapida esa “nomusimni yerga bukding” frazemasini o`zgartirib, ega qismiga “yetti” so`zini qo`shish bilan yanada ta`sirchanlikka erishgan va shu bilan birga “yetti nomusimni yerga bukding-ku” frazemasini “nomusimni yerga bukding”ga nisbatan qanchalik sermazmun bo`lsa, mehribon onadagi iztirob ham shunchalik kuchliligini ifodalaydi.

Frazema tarkibidagi so`zlarning tushib qolishi

Ellipsis hodisasi frazemalarda ko`p uchraydigan tashqi formani takomillashtiruvchi vosita sanaladi. Masalan, “o`ylab, o`yiga yetolmaslik” frazemasining “o`yiga yetolmaslik” varianti ham ellipsis asosida yuzaga kelib, shakily o`zgaradi, xolos. Bu hodisa umumtil frazemasiga semantik jihatdan ham, grammatik jihatdan ham ta`sir o`tkazmaydi: “Yusuf alamli o`ylarining tagiga yetolmasdi” [44;289]. Gapdan frazemaning tushib qolgan “o`ylab” qismi anglashilib turibdi. Frazemalarning hatto birikmadan iborat komponenti ham ellipsisga ham uchrashi mumkin. Masalan, yozuvchi umumtildagi “yer yorilmadi, yerga kirib ketmadim” frazemasini shaklan o`zgartirib, “Uyatdan yerga kirib ketmaymanmi?”[89;125] tarzida qo`llagan. Bunday holda frazemaning birinchi qismi transformatsiyaga uchragan va bunda yozuvchi qaysi frazemaga ishora etayotganini tashlangan komponentsiz ham anglab olish mumkin. Frazemalarning bu tarzdagi transformatsiyasida til elementlarining tushib qolishi ularning ma`nolariga putur yetkazmaydi, balki stilistik mahsuldorlikka erishiladi.

So`z birikmalarini qo`shish

Bunda qo`shilgan komponentlar matnning umumiy ma`nosini o`zgartirmaydi, aksincha, ifodaning ta`sirchan va e`tiborli, emotsional-ekspressiv bo`lishini ta`minlaydi: “Agar bo`lsami, o`tirganlar Muhammadjon akaning ustamonligiga, pixini yorganligiga, mug`ombirligiga, qari tulkiligiga bir ovozdan tan bergan, so`ngra bu voqeani uzoq yillar davomida chet elning saqichidek hech kimga bermay lazzatlangan bo`lardilar” [44;7]. Anglashilmoqdaki, “bir gapni hadeb chaynamoq” frazemasining tarkibi “chet elning saqichidek” so`z birikmasini frazemadan oldin qo`llash bilan kengaytiriladi. Qo`shilgan so`z birikmasi faqatgina frazemaning tarkibini kengaytiribgina qolmasdan, balki uning ifodaviy xususiyatini oshiradi, matnning umumiy ma`nosi kuchayadi, stilistik mahsuldorlik oshadi. Frazemalarning tarkibi va ma`nosi konstruksiyali o`xshatishlarni qo`shish bilan ham o`zgarishi mumkin. Masalan, “Chorasiz so`qir eru xotin, ayb ish qilib qo`ygan boladek “miq” etmay o`tirishar, Obida hayajonlanib titraganda,

Olim uning oppoq qo`lini asta siqib qo`yar, parvo qilmang deya pichirlab, unga dalda berardi”. [8;43] Bunda “miq etmaslik” frazemasi “ayb ish qilib qo`ygan boladek” o`xshatishli konstruksiyasi bilan kengaytirilgan. Umumtildagi “miq etmaslik” iborasi hech narsa demay, jim o`tirish ma`nosini bildiradi. Yozuvchi bu ibora oldidan “ayb ish qilib qo`ygandek” birikmasini keltirish bilan asar qaxramonlarining jim o`tirishi bilan birga o`sha paytning o`zida o`zlarini aybdordek his qilishayotgani va bu vaziyatdagi qo`rquvlarni tasvirlab beradi.

Kontaminatsiya hodisasi

Bu hodisa ham frazeologizmlarning o`zgarishida va shu asosda yangi frazeologizmlarning shakllanishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. G.A.Selivanov “frazeologik kontaminatsiya sekin shakllaandigan jarayon bo`lishiga qaramay, tilning frazeologik tarkibining boyishida mahsuldor usullardan biridir” [130;233-234], deb ta`kidlaydi. Kontaminatsiyaga ko`ra, ikkita yaqin ma`noli, ammo turli leksik tarkibli frazeologizmlar yoki ularning qismlarini birlashtirish asosida yangi frazeologizmlar shakllaandi. Bunda ikki frazeologizmning qo`shilishi oqibatida frazeologizmlarning ichki shakli buziladi va yangi ichki shakl yuzaga keladi. Bu asosda shakllangan frazeologizm yangi ma`noli frazeologizm bo`lmaydi, balki frazeologizmining ma`no otkenasi kuchayadi, emotsional-ekspressivligi oshadi, stilistik imkoniyatlari kengayadi. Masalan: O`z uyiga sig`may qolganini anglagan Obida ko`ngli cho`kib, tilini tishladi. [8;45] Bu yerda “ko`ngli cho`kmoq” va “tilini tishlamoq” iboralari birlashib kelgan.

Kontaminatsiya hodisasida ikkita frazemaning tarkibi buzilmay, bir-biriga birlashtirib qo`llash hollari ham uchraydi. Bunda frazemalar bir-birining ma`nosini to`ldirib keladi: “U haliyam xohlasa, eski rahbar do`stlari va tajribasiga tayanib, tumanning “manaman” degan “xo`roz”lariga basma-bas kelishi va ko`p hollarda ularning bo`ynini qayrib tashlashi hech kimga, jumladan anavi popugi pasayib, suvga tushgan mushukdek shumshayib o`tirgan A`zamjon akaga sir emasdi.” [44;49] Gapda “popugi pasaydi” va “suvga tushgan mushukdek” iboralari birga qo`llanilgan.

Frazemalar kontaminatsiyasida ba`zan ma`nodosh bo`lmagan ikki frazemalar komponentlarining birlashuvi ham uchrashi mumkin: “Men seni kim ko`rganga maqtab, orqangdan ko`rpacha soldirib yurgan bo`lsam!” [120;213] gapida frazemalarni ijodiy o`zgartirib qo`llaydi. “Kim ko`rganga” degan ibora “qayerda kimni ko`rsam o`shanga” degan ma`noni bildiradi. “Orqangdan ko`rpacha soldirib yurgan bo`lsam” degani, “soyasiga ko`rpacha solmoq” iborasining o`zgargan shaklidir.

Frazemik kontaminatsiya frazemalarni leksik o`zgartirishning bir yo`li, shuningdek, yozuvchi tili frazemalarining ham boyishi va rivojlanishi, turli grammatik o`zgarishlarga uchrab, har-xil frazemalar yasaliishining muhim omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Ta'kidlaganimizdek, yozuvchilar tilning qonun-qoidalarini asosida individual-muallif frazeologizmlarini yaratadilar. Okkazional frazeologizmlar individual-muallif frazeologizmlaridir. Masalan: "Nihoyat, juma nomozidan so'ng bir jonliq so'yib, xayri-xudoyi qilishni, shanba bomdoddan so'ng, ya'ni tuproq uyg'onmay yo'lga chiqishni rejalashdi". [89;84] Bu o'rindagi "tuproq uyg'onmay" frazemasini umumtildagi "xo'roz qichqirmay" frazemasiga yaqin ma'noli yangi individual-muallif frazeologizmdir. Yozuvchi ushbu gapda hali hech kim tuproqqa qadam qo'ymasdan, ya'ni tuproqni uyg'otmasdan azonlab yo'lga chiqishni ta'kidlaydi. Xuddi shuningdek, hali quyosh chiqmay turib ma'nosini beruvchi "kun oyoqlamay turib" frazemasini ham individual-muallif frazemasidir. "Baxtiga kun oyoqlamay turib, uyiga Salimxo'janing o'zi kirib keldi" [88;49].

Shunday qilib tilimizning boyligi hisoblanmish frazeologizmlarning uslubiy va shakllanish imkoniyatlari keng bo'lib, ular mohir san'atkor qo'lida har gal yangi emotsional bo'yoq kasb etadi, o'z ta'sir kuchini yanada orttiradi. So'z ustalari frazeologizmlardan ustalik bilan stilistik maqsadlarda foydalanish uchun ularning ma'nolarini yangilashga, uslubiy imkoniyatlarini kengaytirishga intiladilar. Ular tilimizdagi frazeologizmlardan foydalanibgina qolmay, shular asosida yangi frazeologizmlarni ham yaratadilar. Bu jarayon umumtildagi iboralarning leksik tarkibi o'zgartirilishi, ularning ma'no va stilistik vazifalarini oshirish uchun turli til qonun-qoidalaridan foydalanish, ya'ni umumtil strukturasini til qonun-qoidalarini asosida o'zgartirib, ikkinchi tur struktura hosil qilishi mumkin. Bu tilimizning yanada jozibador, ma'noli va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tilning frazeologik tarkibi bo'lib boradi.

Ingliz tilida ham huddi yuqoridagi kabi hodisalar yuz beradi. Bu haqida keying bobda batafsil to'xtalib o'tamiz.

III BOB. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning etimologiyasi hususida

Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning kelib chiqishi to'g'risidagi manbalar bir-biridan juda farq qiladi. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning kelib chiqishiga ko'ra asosiy uchta katta guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

1. Ingliz tilidagi ko'hna frazeologik birikmalar
2. Boshqa tillardan o'zlashtirilgan frazeologik birikmalar
3. Ingliz tilining amerika variantidan olingan frazeologik birikmalar

III.1. Ingliz tilidagi ko'hna va odatlar, tarixiy haqiqatlar, an'analar va boshqalar bilan aloqador frazeologik birikmalar

Ingliz tilidagi aksariyat frazeologik birikmalarning mualliflari hozirgacha fan uchun noma'lumligicha qolmoqda. Bu muammo, ayniqsa, barqaror birikmalarning bir turi hisoblanmish maqollarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Barcha tillardagi frazeologik birikmalar, xususan ingliz tilidagi frazeologik birikmalar ham, millatning donishmandligi va lingvistik didini ko'rsatuvchi xalq ijodi hisoblanadi. Ko'pgina frazeologik birikmalar o'zida ingliz xalqining an'analari, odatlari va e'tiqodi, Angliya tarixining biz bilgan va bilmagan tarixiy haqiqat va dalillarini aks ettiradi. Ko'plab frazeologik birikmalarning ildizlari kasbiy muloqotga borib taqaladi.

Frazeologik birikmalarning asosiy manbasi – bu ularning tarkibidagi o'zaro birikkan so'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirishidir. Ko'pgina ingliz tilidagi frazeologizmlar badiiy asarlardan, turli adabiyot manbalaridan olingan. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning soniga ko'ra adabiy manbalardan keyin birinchi o'rinni Bibliya, ikkinchi o'rinni esa shekspir ijodiyotidan olingan frazeologizmlar egallaydi. Yozuvchilarning asarlari, bolalar she'riyati, ertaklar, karikaturalar ham frazeologizmlarning kelib chiqish manbasi hisoblanadi.

Odatlar, tarixiy haqiqatlar, an'analar va boshqalar bilan aloqador frazeologik birikmalar

Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarning aksariyati mualliflari noma'lum, qadimgi ingliz tilining so'z tartibida tuzilgan so'z birikmalari hisoblanadi. Bunday keng tarqalgan frazeologik birikmalar xalq ijodi namunalari. Masalan: *bite off more than one can chew* – nonni katta tishlamoq, kuchi yetmaydigan ishga chiranmoq, zo'riqmoq, behuda urinmoq, o'z kuchini hisobga olmaslik = qattiq bodom tish sindirar, ortiqcha chiranish bel chiqarar;

Have a bee in one's bonnet – bo'lmag'ur fikrlar bilan boshini band qilmoq, biror narsaga to'sqinlik qilmoq;

Hold one`s head high – boshini baland tutmoq;

In for a penny, in for a pound – bir penniga tavakkal qilgan, bir funtga ham tavakkal qiladi = aytdingmi, so`zingdan qaytma, qilaman dedingmi qilishing kerak, qo`ziqorin bo`lsang aravaga tushaver, aravaga o`tirdingmi, kuchim yetmaydi dema, maydonga tushgan, manglayin qashimas;

Lay down the law – qat`iy gapirmoq, qat`iy buyurmoq;

Plat through the nose – mo`may pul to`lamoq, uch baravar to`lamoq va boshqalar.

Ingliz xalqining an`ana va odatlari bilan bog`liq frazeologik birikmalar

By (yoki with) bell, book and candle – (haz. ib) uzil-kesil, tamomila; har qanday holatda ham, nima bo`lsa ham. Qadimda cherkovdan chiqib ketishda quyidagi so`zlar aytilgan: *doe to the book, quench the candle, ring the bell!*

Beat the air (yoki *the wind*) – bekorga kurashmoq, kuchini bekorga sarflamoq = behuda urinmoq, g`alvirda suv tashimoq. O`rta asrlarda biror raqib qurolli bahsga ruxsat so`rash uchun adolat sudiga kelmaganda, g`alaba belgisi sifatida raqib jangchining quroli silkitilgan. Ibora shu odatdan paydo bo`lgan.

*Booker`s dozen* – o`n uchta, o`n uch dona. Qadimgi ingliz savdogarlari odatidan olingan. Ular nonvoylardan o`n ikkita non o`rniga o`n uchta non sotib olishgan, ana shu o`n uchinchi non savdogarlar foydasiga bo`lgan.

*Blow one`s own trumpet* – maqtanmoq, o`zini reklama qilmoq. O`rta asrlarda biror turnirda qatnashayotgan ritsarlar yoki mashxur shaxslar karnay sadolari ostida tanishtirilgan.

Cut somebody off with a shilling – merosdan mahrum qilmoq. Vasiyatchilar ba`zan merosxo`rni merosdan mahrum etilganligi bildirish maqsadida, merosxo`rga bir shilling qoldirishgan.

Dance attendance on somebody – laganbardorlik qilmoq, biror kimsa uchun yugurmoq, kimningdir xizmatiga doim tayyor bo`lmoq, birovning iti bo`lmoq. Qadimgi inglizlarning odatiga ko`ra to`y kechasida kelin uni raqsga taklif qilgan barcha mehmonlar bilan raqsga tushishi shart bo`lgan.

Then must the poor bride keep foot with a dancer, and refuse none, how scabbed, foul, drunken, rude and shameless so ever he be.[30;30]

God (yoki heaven) bless (yoki save) the mark (ba`zi hollarda: *save the mark*) – betga aytganning xaxri yo`q, kechirasiz, aybga buyurmaysiz, uyat bo`lsa ham (aytishga to`g`ri keladi), xudo saqlasin (asrasin);

Good wine needs no bush – (s.s.) yaxshi vinoga yorliqning keragi yo`q = yaxshi mahsulotning maqtovi o`zi bilan. Qadimgi odatga ko`ra qo`shchilar sotuvda vino borligini bildirish maqsadida pluglarining yog`ochlarini uyidan tashqariga olib chiqib qo`yishgan.

Rob Peter to pay Paul – biror narsani olib, boshqasini qaytarib bermoq, biror kimsaning qarzini qaytarib, boshqasidan qarz olmoq = soqoldan olib, murtga qo`ygandek, boshiga tortsa, oyoqlari ochilib qoladigandek. Ruhoniylar boy cherkovlardan xar hil cherkov buyumlarini qashshoq cherkovlarga olib berishgan. Ibora aynan shu odatga borib taqaladi.

Sit above the salt – jamiyatda yuqori lavozimni egallamoq va *sit below the salt* – ijtimoiy mavqeni egallamoq. Qadimgi inglizlar odatiga ko`ra stolning o`rtasiga tuzdon qo`yilgan, mashxur, hurmatli mehmonlar stolning tuzdon qo`yilgan joydan yuqori qismiga, ahamiyatsiz mehmonlar, kambag`al qarindoshlar va xizmatkorlar stolning quyi tomoniga o`tirishgan.

Ingliz tarixining haqiqatlari bilan bog`langan frazeologizmlar

Also ran – musobaqaning omadsiz ishtirokchisi, omadsiz. G`oliblar haqidagi ma`lumotdan keyin, sovrinli o`rinlarni egallay olmagan otlarning chopish va sakrashlari haqidagi hisobotda ularning ko`rsatkichlari e`lon qilingan. E`lon quyidagi so`zlar bilan boshlangan: *also ran* ... - ham qatnashdilar.

An aunt Sally – Salli xola; hujum qilingan yoki haqorat qilingan narsa yoki kimsa; harakat qilgan bilan uni to`g`rilashga kech bo`lgan yolg`on ma`lumot. “Salli xola” - bir jildga jamlangan ingliz xalqining milliy o`yinlaridan birining nomi. O`yin qoidasiga ko`ra ustunga o`rnatilgan yog`ochdan yasalgan ayol boshi og`zidagi trubkani urib tushirish kerak bo`lgan.

Be born within the sound of Bow bells – Londonda tug`ilmoq. London markazida o`zining qo`ng`iroqlarining tovushlari bilan mashxur “Avliyo Mari-le-Bau” ibodatxonasi joylashgan.

Blue stocking – (k.m.) ilmga, kitobga berilib, xotin-qizlarga xos nazokatini yo`qotgan ayol. Londonda XIII asr o`rtalaridagi adabiy kechalardan birida Angliyadagi golland admiral Boskoven o`z turmushida aslida shunday jamiyat qatlamiga tegishli ekanligini tan olgan, yana shundaylardan biri olim Benjamin Spellingfild bo`lib, u ham bunday kechalarda moviy paypoqda ko`rina boshlagan. Bunday jamiyat qatlami vakillari asosan moviy paypoq kiyib yurishgan.

Carry coals to Newcastle – (s.s.) Nyukaslga ko`mir tashimoq, o`rmonga o`tin tashimoq. Nyukasl – ingliz ko`mir ishlab chiqarish sanoatining markazi.

Come Yorkshire over somebody – (k.q.s.) kimnidir aldamoq, chuv tushirmoq. Ayyor yorshierliklar so`zlashuvga olib kirishgan.

Play fast and loose – ikkala taraf o`yinini g`irromlik bilan olib bormoq; javobgarliksiz ishlamoq, o`z majburiyatini buzmoq, kimningdir his-tuyg`ularini o`yin qilmoq. Ibora Angliyadagi yarmakalarda o`ynaladigan o`yin bilan bog`liq. O`yin qoidasiga ko`ra qatnashchilar barmoqlariga goh bo`sh, goh mahkam qilib ip bog`lanadi, har bir qatnashchi tomoshabinlar yoniga borishadi va tomoshabinlar iplarni chaqqonlik bilan yechib olishlari kerak bo`ladi. Ipni

yecha olgan juftlik g`olib sanaladi va maydonni tark etadi, yecholmagan juftliklar esa mag`lub hisoblanib, maydonga taklif etiladilar. O`yin shu tarzda davom etadi.

Put somebody in the cart – kimnidir qiyin vaziyatga solib qo`ymoq. *Cart* so`zi arava ma`nosini bildiradi. Jinoyatchilar qatl joyiga aravada eltib qo`yilgan yoki shaxarda aravaga o`tkizdirilib sazoyi qilingan.

A strange bedfellow – tasodifiy tanishuv. *Adversity makes strange bedfellows* maqolining bir qismi ibora sifatida ajratib olingan. *Adversity makes strange bedfellows* – shoshilganda labbay topilmas. Angliyada o`rta asrlarda, shuningdek XVI va XVII asrlarda bir kishilik karovatlar kamyob bo`lgan. Bir jins vakillari ham vaqti-vaqti bilan bir joyda uxlashlariga to`g`ri kelgan.

Wardour – street English – ingliz tilining arxaizmlar bilan kuchaytirilgan shakli. Qadimiy buyumlar sotiladigan magazinlar ko`p bo`lgan London ko`chalarining nomlaridan biriga asoslangan.

Maxsus tekshiruvlar natijasida yozuvchilar, olimlar, ixtirochilar, qirollar va boshqalarning nomlari bilan bog`liq frazeologizmlar guruhi ajratilgan. Bunday qayta ishlangan guruhlarda quyidagi guruhchalarni belgilashimiz mumkin:

1. Familiyalar:

According to Cocker – (s.s.) Kokkerga asosan; to`g`ri, to`ppa-to`g`ri, barrcha qoidalarga asosan. E.Kokker (1631-1675) XVII asrda keng yoyilgan ingliz tilidagi arifmetika darsligining muallifi.

The Admirable Crichton [`kraitn] – olim, ziyoli odam. XVI asr mashxur shotland olimi familiyasiga asoslangan.

*Hobson`s choice* – majburiy tanlov, ixtiyoriy-majburiy. Hobson XVI asrda Kembrijda pulli otxonaning xo`jayini bo`lgan. U o`z mijozlarining otlarini chiqish joyiga yaqin joydagi qoziqlarga bog`lashga majbur qilgan.

2. Ismlar:

Big Ben – Katta Ben (Angliya parlamenti binosidagi soat). Soat Benjamin Holla nomiga atalgan, chunki bu soat uning rahnamoligida qurilgan.

When Queen Anne was alive – juda qadim davrlarda, Daq`yonus zamonida.

3. Ism va familiyalar:

Jack Katch – jallod. XVII asrdagi ingliz jallodining nomiga asoslangan.

A Joe Miller – yengil hazil, eski hazil, ko`pdan qolgan latifa. Angliyada birinchi bo`lib latifalar to`plamini nashr qilgan aktyor Jozef Millerning (1684-1738) nomidan olingan.

Diniy e`tiqodga aloqador frazeologizmlar

A black sheep – tirraqi buzoq, oiladagi sharmandalik. Qadimgi e`tiqodga ko`ra qora qo`y inglizlarda shayton muhrini bildirgan.

A crooked sixpence – tumor, kimgadir baxt, omad keltiruvchi predmet. Angliyada yoyilgan irimga ko`ra, bukilgan olti penslik mis tanga uning egasiga baxt olib kelgan.

*Hide one`s head in the sand* va *play the ostrich* – boshini yashirib olib, meni hech kim ko`rmayapti deb o`ylamoq, *an ostrich policy* – tuyaqushcha siyosat, voqelikni ko`rmasdan turib undan chiqib ketishga urinish. Bu iboralar tuyaqushlar biror narsadan qo`rqqanda bajaruvchi xatti-harakatlarini aks ettiradi.

Lick into shape – biror shaklga yoki ko`rinishga keltirmoq, odam aftiga keltirmoq, *an unlicked cub* – go`dak, yosh bola; og`zidan sut hidi ketmagan. Bu iboralar o`rta asrning diniy e`tiqodlariga asoslangan, unga ko`ra ayiqchalar shaklsiz, ya`ni ayiqqa o`xshamagan shaklda tug`ilishadi, ota-onalari ularni yalab ularni kerakli shaklga keltirishgan.

Mamlakat miqyosidagi ba`zi frazeologizmlarning paydo bo`lishi munajjim bashoratlari bilan ham bog`liq. Munajjimlar osmon jismlarining joylashuvi, ularning harakati inson taqdiriga ta`sir etishini isbotlaganlar.

Be born under a lucky star – baxtli yulduz burjida tug`ilmoq.

Be born under an unlucky (yoki evil) star – omadsiz burj ostida tug`ilmoq.

*Believe in one`s star* – taqdiriga ko`nmoq, peshonasidan ko`rmoq

Be through with one`s star – omadsiz ekanligini his etmoq

Bless (yoki thank) one`s stars* (shuningdek: *thank one`s lucky stars) – o`zining omad yulduziga shukrona aytmoq.

*Curse one`s stars* – taqdiridan nolimoq, o`z taqdirini la`natlamoq.

One`s star is in the ascendant – uning yulduzi porlayapti, ovi yurishmoq.

The stars were against it – taqdiri kelishmadi, omadi kelmadi.

Matal va masallardan olingan frazeologizmlar

Fortunatus`s purse – qaynar humcha. Fortunatus – ertak qaxramoni.

The whole bag of tricks – ayyorlikning jami ko`rinishlari.

(in) borrowed plumes – tovu tusiga kirib olgan qarg`a, o`zini yuqori tabaqa vakili qilib ko`rsatishga urunuvchi quruq, maqtanchoq kishi. Bu iboralar o`rta asr masallaridan olingan.

Rivoyatlar bilan bog`langan frazeologizmlar

Halcyon days – (k.u.) tinch-osuda kunlar, osoyishta zamon. *Halcyon* – ko`ktorg`oq (qush nomi). Qadimgi rivoyatga ko`ra, ko`ktorg`oq poloponlarini dengizda suzib yuruvchi inda ulg`aytirgan, bu esa qishning quyoshli kunlariga to`g`ri kelgan va bu davrda, tahminan ikki hafta mobaynida, dengiz tamomila tinch, hech qanday to`lqinlarsiz oqqan.

Have kissed the Blarney stone – tilyog`lamalik qilmoq. Rivoyatga ko`ra Irlandiyada joylashgan Blarni qasridagi toshni o`pgan har-bir odamga tilyog`lamalik in`om etilgan.

A peeping Tom – o`ta sersavol odam, o`ta sinchkov odam. Godiva honim, graf Mersiyskaning turmush o`rtog`i, haqidagi afsoanda aytilishicha, graf koventri shaxri aholisidan uncha ko`p bo`lmagan soliq olishni yo`lga qo`ygan. Godiva honim grafdan soliqni bekor qilishni so`raydi. Graf esa bunga javoban, Godiva honim grafga duch kelib qolganda shunday deydi: “Agar siz butun shaxar ichidan tush paytida kiyimsiz holda kesib o`tishga jur`atingiz yetsa, o`shanda men joriy etilgan soliqni bekor qilaman.” Uning uyalmasligi uchun barcha aholi uylarining har-bir tirqichini yopib olishadi. Faqatgina shu shaxarda yashovchi tikuvchi Tomgina uyining kichkina tirqishidan kuzatib turganini payqab qolishadi. Va uni shu yerning o`zida ko`zlarini o`yib olishadi.

Tarixiy haqiqatlar bilan bog`liq frazeologizmlar

Accept the Chiltern Hundreds (shuningdek: *accept the Stewardship of Chiltern Hundreds*) – o`zining parlament a`zoli vakolatidan voz kechmoq.

Apply for the Chiltern Hundreds (shuningdek: *apply for the Stewardship of Chiltern Hundreds*) – majburiy parlament a`zolidan ozod bo`lish haqida taklif bildirmoq. XVII asrda Bakengimshir va Oksfordshir grafliklarining chiltern okruglarida qaroqchilar ko`p bo`lgan. Ular bilan kurashish uchun *Stewardship of Chiltern Hundreds* nomli boshqaruv muassasasi bo`lgan, har-bir shunday guruhlariga yuzta chilternlik jalb qilingan. 1701-yilgi qonunga ko`ra bu muassasaning boshqaruvchisi parlament a`zolidan mahrum etilgan. Ularga bu qonun yoqib tushgan, lekin o`zlarini parlament a`zolariga tenglashtira olmaganlar. 1750-yildan boshlab ular yana parlament a`ziligiga qabul qilinishi to`g`risida qonun qabul qilingan. Shundan keyin ularni faqatgina o`zlarining so`rovlaridan keyingina bo`shatishgan. A`zolikdan keyin ularni yuzboshilik lavozimiga o`zlarining iltimoslariga ko`ra tayinlashgan.

As well be hanged (yoki hung) for a sheep as for a lamb (yoki as a lamb) – bo`rining yesa ham, yemasa ham og`zi qon. Qadimgi inglizlar qonunining bir bandi, unga ko`ra qo`y o`g`irlagan shaxs osib o`ldirilgan.

The curse of Scotland – (k.q.) la`nati shotlandlar, baloga yo`liqqurlar; doiralar to`qqizligi. Ibora graf Dalrimp Steyrning gerbidagi suratdan olingan. U Shotlandiyadagi inglizlar siyosatiga qarshi harakatlar yetakchisi bo`lgan.

Khaki election – favqulodda vaziyatlardagi saylov. 1918-yilning dekabr oyida Birinchi Jahon Urushidan keyin Angliyada parlament saylovlari boshlangan.

The three tailors of Tooley Street – (s.s.) Tuli ko`chasining uch tikuvchisi; o`zlarini butun boshli xalq namoyandalarimiz deb hisoblovchi odamlar guruhi. Ingliz siyosatshunos arbobi

D.Kanning (1770-187)ning guvohlik berishicha, Tuli ko`chasining uch tikuvchisi parlamentda “*We, the people of England ...*” so`zlari bilan boshlanuvchi murojaat bilan chiqishgan.

When Adam delved and Eve span who was than the gentleman? – Adam yer haydaganda va Yeva ip yigirganda, aslzodalar qayerda edi? 1381-yilgi dehqonlar urushiga rahnamolik qilgan Uott Taylarga ustoz Jon Boll tomonidan yozib berilgan shiorlardan biri. Bu ibora hozirgi kunda aslzodalardan ko`ra ko`proq kulgili vaziyatga tushib qolgan insonlarga nisbatan qo`llaniladi.

Salbiy ma`nodagi frazeologizmlarda “*Dutch*” so`zining ishlatilishi XVI asrda dengizda va urushlarda bo`lib o`tgan ingliz-golland raqobatiga borib taqaladi.

A Dutch bargain – bir tomonlama foydali ish

Dutch comfort (yoki *consolation*) – kuchsiz tasalli.

A Dutch concert – mushuklarning miyovlashi; jinlar bazmi; shovqin-suron, qiy-chuv.

Dutch courage – mastlikdagi jasorat, mastning dovyurakligi; dunyoni suv bossa, to`pig`iga chiqmaydi, parvoyi palak.

A Dutch defence – soxta himoya, yolg`ondakam himoya.

A Dutch feast – avval mezbon to`yib ichib oladigan bayram.

*I`m a Dutchman if ...* - otimni boshqa qo`yaman.

Mohiyatiga ko`ra barcha birikmalarda qatnashgan *Dutch* so`zi gollandiyalik ma`nosina anglatadi, lekin bu so`z sifat bilan oldindan noto`g`ri birikishi tufayli, goho barcha iboralarda ma`no ko`chishining u yoki bu turi kuzatilgan. Ba`zi hollarda ironiyaning ishlatilishiga turtki bo`lgan va otning ma`nosi kuchsizlangan, masalan: *Dutch courage*. *Dutch* so`zi bilan uyg`unlashmagan frazeologik birikmalar predmet o`rtasidagi yo`qolgan mutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Kasbiy atamalarga borib taqaluvchi frazeologizmlar

Frazeologizmlarning muhim manbasi – kasbiy muloqot hisoblanadi. Atamalardan paydo bo`lgan ko`p sonli iboralar kasbiy muloqot me`yoridan yiroqlashib ketgan. L.P.Smitning kitobida bu turdagi ko`plab frazeologizmlar batafsil yoritilgan, biz faqat boshqa misollar bilan kifoyalanamiz. Ba`zi o`rinlarda biz L.P.Smitning ilmiy asarida keltirilmagan frazeologizmlarni keltiramiz:

Dengizchilar hayotidan olingan frazeologizmlar

Between wind and water – eng zaif joyiga, eng qaltis joyida; boplab, o`rinlatib, joyini topib gapirmoq. Kema korpusining suvga botib turadigan joyidan pastroqda joylashgan eng zaif va nozik qismi.

*The cut of somebody`s jib* – biror narsaning tashqi ko`rinishi; (s.s.) kliver⁵ bichimi.

⁵ Kliver – kemanding oldingi qismidagi uchburchak yelkan

Go by the board – ko`chib tushmoq, olib tashlanmoq; halok bo`lmoq, qulab tushmoq; (s.s.) bort bo`ylab izg`ib yurmoq.

High and dry – falokatda; ko`pincha: *leave somebody high and dry*; (s.s.) qirg`oqda – qirg`oqqa chiqib qolgan kema haqida.

On the crest (yoki top) of the wave – baxt-omadning yuqori cho`qqisida; (s.s.) to`lqinning yuqori cho`qqisida.

Plain sailing – oddiy va oson yo`l, oldinga muvaffaqiyatli siljish; hammasi yog`dek silliq ketyapti. Agar birikma *plane sailing* ga o`zgartirilsa, loksodromiya<sup>6</sup> bo`ylab suzmoq ma`nosini anglatadi. Har doim bir kursda ketayotgan kema loksodromiya bo`ylab harakatlaandi. Loksodromiya bo`ylab suzish katta qiyinchilik tug`dirmaydi.

*Trim one`s sails to the wind* – vaziyatga qarab ish tutnoq; shamolning qayoqdan esishini bilmoq; (s.s.) yelkanni shamol yo`nalishi bo`ylab o`rnatmoq.

When one`s ship comes home – omad kulib boqqanda, (s.s.) kema bandargohga qaytganda va boshqalar.

Harbiy sohadan olingan frazeologizmlar

All along the line – barcha chegaralar bo`ylab; har jihatdan, hamma tomondan.

Armed at all points – to`la qurollangan holda; tishidan tirnog`igacha qurollanmoq.

Fall into line – rozi bo`lmoq, biror fikrga qo`shilmoq, (s.s.) safda turmoq.

Lay down one`s arms – qurollarni omborga joylamoq, topshirmoq.

Mark time – oldinga siljimaslik, yurishmaslik, rivojlanmaslik, harakatsiz kutib turmoq, (s.s.) turgan joyida qadam bosmoq.

*Mask one`s batteries* – o`zining adovatli niyatini yashirmoq, (s.s.) batareyalarni⁷ yashirmoq.

*Spike somebody`s guns* – kimningdir yovuz rejalarini barbod qilmoq, birovning yovuz niyatlarini yo`q qilmoq va boshqalar.

Sport turlaridan olingan frazeologizmlar

Draw a bow at a venture – tavakkal qilmoq.

Draw (yoki pull) the long bow – kuchli mubolag`a qilmoq, cho`pchak aytmoq, ertak aytmoq, lag`mon ilmoq.

Get to first base – (ingliz tilining amerika variantidan olingan) qandaydir ishga birinchi marta qadam qo`ymoq. Beysbol o`yinidan metafora qilib olingan.

⁶ Loksodromiya – barcha meridianlarni bir burchak ostida tutashtiruvchi chiziq.

⁷ Batareya - artilleriya divizionining (polki yoki brigadasining) asosiy o`t ochuvchi va taktik bo`linmasi bo`lib, 2-3 o`t ochuvchi guruhlar va boshqarmadan (boshqaruv guruhidan) iborat. 2-6 dona to`plarga (minomyotlar, reaktiv artilleriyaning jangovar mashinalari yoki tankka qarshi boshqariluvchi raketalar) ega.

Jump the gun – ilgarilab ketmoq, o`zib ketmoq, (s.s.) sport to`pponchasidan o`q uzilishi bilan yugurishni boshlamoq.

Neck and neck – bir xil vaziyatda, ortda qolmaslik. Ibora ot poygasi sportidan olingan bo`lib, boshma-bosh degan ma`noda bir xil tezlikda yugurayotgan otlarga nisbatan qo`llanilgan.

Strike the ball under the line – muvaffaqiyatsizlikka uchramoq, maqsadga erishmaslik. Ibora tennis o`yinidan olingan. Tennisda otilgan koptok to`rning ustidan o`tishi kerak bo`lgan, bu esa o`yinning talab etilgan qoidasi hisoblangan va boshqalar.

Sheksprizmlar

Ingliz tilining lug`at tarkibini boyitishda Uilyam Shekspir yaratgan frazeologizmlar soniga ko`ra “Bibliya” dan so`ng ikkinchi o`rinni egallaydi. So`nggi ma`lumotlarga ko`ra ularning soni 105 taga yetgan. [89;20] Ko`plab sheksprizmlar Shekspir asarlarida bir marta uchraydi va ularning shakllari shunday qotib qolgan. Quyida keng tarqalgan frazeologizmlarning bir nechtasini keltiramiz:

The be-all and end-all - hayotni to`ldiradigan narsa, hayotdagi barcha narsa.

Cakes and ale [114;174] - (s.s.) pirojnoye va pivo ; tashvishsiz quvonch, hayotdan zavqlanmoq.

Eat somebody out of house and home [101;121] - insonni uning hisobidan yashab inqirozga uchratmoq; tekintomoq, tekinxo`r.

A fool`s paradise [111;141] - hayoldagi baxt, hayolot dunyosi.

Gild refined gold [103;143] - oltinga yana oltin suv yuritmoq; biror narsani chiroyli, yaxshiroq qilishga harakat qilmoq, garchi u busiz ham yaxshi bo`lsada.

Give the devil his due [102;132] - dushmanga tan bermoq.

The green-eyed monster [110;130] - (k.u.) yashil ko`zli berahm odam; rashkchi.

Have an itching palm [100;110] - poraxo`rlik qilmoq; tamagir va qurumsoq.

Lay it on with a trowel – bo`rttirib maqtamoq, haddan tashqari maqtamoq, maqtovnii haddan oshirib yubormoq, yolg`ondakam tilyog`lamalik qilmoq. Ibora Shekspir tomonidan majhul nisbatdagi fe`l bilan ishlatilgan:

Celia. Well said:that was laid on with a trowel. [97;63]

Hozirda esa bufrazeologik birikmaning fe`li aniq nisbatda ishlatiladi.

She continued to flatter him She got a little private amusement by seeing how much he should swallow. She laid it on with a trowel.[114;54]

Midsummer madness [114;63] - telba bo`lib qolish, haqiqiy jinnilik.

The milk of human kindness [107;187] - (ir.; haz.) dimog`i chog`lik malhami.

More sinned against than sinning [104;154] - nohaq xafa bo`lgan odam.

The observed of all observes [99;81] - hammaning diqqat markazi.

Our withers are unwrung [99;81] - ayblov bizga tegishli emas.

The primrose path of dalliance [99;90] - zavqlanish usuli (yo`li).

The seamy side [106;176] - hunuk taraf, biror narsaning teskarisi.

*Thet`s flat* [106;36] - hal qiluvchi, uzil-kesil, qisqa va lo`nda.

To one`s heart`s content [108;198] - xohlagancha, istagancha, to`yguncha.

To the manner born [99;117] - yoshligidan odatlanish, tug`ma.

A triton among the minnows [98;268] - zaiflar orasidagi buyuk namoyonda.

Wear one`s heart upon one`s sleeve for daws to peck at [110;130] - o`z hissiyotlarini tomoshaga qo`ymoq; oqko`ngil odam. Zamonaviy ingliz tilida bu ibora odatda qisqartirilgan holatda qo`llaniladi: *wear one`s heart upon one`s sleeve*.

To wish is the father to to the thought [101;90] - xohish fikrga sabab bo`ladi; odamlar o`zlari xohlagan narsaga to`la ishonishadi.

Shekspirgacha mavjud ba`zi iboralarning yoyilishi uning asarlarining mashxurligi bilan bog`liq bo`lgan. Shunday iboralardan ba`zilari quyidagilar:

Care killed a cat [109;209] - g`am-tashvishlar yaxshilikka olib bormaydi = ish emas tashvish qaritar. Inglizlar mushuklarning o`nta joni borligiga ishonishadi. Keyinchalik bu iboraning o`xshashi bo`lgan *curiosity killed a cat* iborasi yasalgan.

curiosity killed a cat – sinchkovlik yaxshilikka olib bormaydi = ko`p bilgan tez qariydi.

Out of joint – tartibsiz holatda, alg`ov-dalg`ov.

The time is out of joint, oh, cursed spite,

That I was born to set it right. [99;286]

Ko`chma ma`nodagi *out of joint* iborasi “Hamlet” dunyoga kelmasidan 187 yil oldin 1415-yilda “Katta Oksford lug`ati”da keltirib o`tilgan.

E.Partrij o`zining “*Dictionary of Clichees*” lug`atiga keng tarqalgan shekprizmlarning 62 tasini kirgizgan. Ularning orasidan quyidagilarni topishimiz mumkin: *a Daniel come to judgement, a fool`s paradise, gild refined gold, give the devil his due, the green-eyed monster, lay it on with a trowel, midsummer madness, the milk of human kindness, our withers are unwrung* va boshqalar.

*As good as one`s word* [114;122] - so`zidan ustidan chiquvchi, bir so`zli.

Better a witty fool than a foolish with [114;122] - ahmoq dono bo`lgandan ko`ra, dono ahmoq bo`lgan yaxshiroq.

Borrowing dulls the edge of husbandry [99;107] - qarzlar xo`jayinchilikka zarar yetkazadi.

By inches [98;106] - oz-ozdan, bir oz, bosqichma-bosqich, qadamma qadam.

Cowards die many times before their deaths [100;108] - qo`rqqoq ming marta o`ladi.

Lay a flattering unction to one's soul [99;107] - yaxshi va yoqimli xayollar bilan o`zini yupatmoq.

Paint the lily [103;111] - biror narsani bezash va yaxshilash kerak bo`lmasa ham uni bezashga va yaxshilashga urinmoq. Zamonaviy ingliz tilida ikki sheksprizmnining kontaminatsiyasidan<sup>8</sup> iborat iboralar uchraydi: *gild the lily* kontaminatsiyasi *gild refined gold* va *paint the lily* iboralarining chatishuvidan hosil bo`lgan. [115;124]

Salad days [96;105] - yoshlik – beboshlik.

Single blessedness [95;103] - (haz.) bo`ydoqlik - hayotning baxtiyor onlari.

Something is rotten in the state of Denmark [99;107] - ishkal.

Thereby hangs a tale [112;121] – bu haqida ko`p gapirish mumkin; bu butun boshli tarix.

A tower of strength [105;124] - kimningdir ishongan tog`i, suyangan bog`i bo`lishlik va boshqalar.

Zamonaviy ingliz tilidagi sheksprizmlarga kiritilgan o`zgartishlar

Hozirgi ingliz tilidagi sheksprizmlarga u yoki bu o`zgartishlar kiritilgan bo`lishi mumkin. Bunday o`zgartishlardan ba`zilarini quyidagi misollar orqali ko`rsatib o`tamiz:

At one fell swoop sheksprizmi qisqartirilgan shaklda, ya`ni *at one swoop* tarzida ishlatilgan va shundayligicha tilda qotib qolgan. Natijada esa miqdoriy variantlar yuzaga kelgan. Miqdoriy variantlar ibora tarkibining qisqarishi yoki kengayishi tufayli yuzaga keladi.

They go quick, one after another – fiva of them vanished already at one swoop (S.O'Casey).

In one fell swoop ingliz tilining amerika variantida tuzilishi jihatdan sinonim qilib belgilangan.

Mr.Strongfort had decided, he said, to teach me everything in one well swoop. (W.Saroyan).

At one fell swoop [107;116] - bir zarbada, bir galda, bir onda, darhol.

The better part of valour is discretion sheksprizmi ingliz tilida so`z tartibi o`zgargan holda mavjud: *discretion is the better part of valour.*

The better part of valour is discretion [101;155] - mardlikning ko`rki – bu kamtarlik.

Fool somebody to the top of his bent sheksprizmidan *to the top of somebody's bent* birikmasi mustaqil ibora sifatida ajratib olingan.

Fool somebody to the top of his bent – ahmoq qilmoq, ahmoq qilib ketmoq.

to the top of somebody's bent – to`laligicha, butunlay, yetarlicha, to`yguncha, xohlagancha. Bu fikrimizni quyidagi misollar orqali ifodalaymiz:

⁸ Kontaminatsiya – o`xshash ikki so`z yoki ibora qismlarining chatishuvi natijasida yangi so`z yoki iboraning paydo bo`lishi.

by way of ... humouring him to the top of his bent, I ... remarked "What a delicious country you have about these lodgings of yours!" (Charles Dickens).

Philip, in his happier moods, indulged Tom to the top of his bent (George Eliot).

"Go on a smash of boats. Play hell to the top of your bent" [Jack London]

Tarkibi kengaytirilgan sheksprizmga misol sifatida *more honoured in the breach than in the observance* iborasini olishimiz mumkin.

more honoured in the breach than in the observance – amal qilgandan ko`ra ko`proq qoida buzadi. Shekspir "Hamlet" da bu iboraning tarkibidagi ikkinchi *in* predlogini qo`llamaydi. Bu predlog keyinchalik qo`shib olingan, buning natijasida esa ikki xil varian yuzaga kelib qolgan. Bu quyida berilgan misollarda o`z tasdig`ini topadi:

To my mind the afternoon call is a convention more honoured in the breach than in the observance. (W.Foster)

Shekspirning *more honoured in the breach than in the observance* iborasi *custom* so`zi bilan bog`langan.

Ko`plab sheksprizmlar vaqtlar o`tishi bilan leksik variantlarga ega bo`lib bordi, masalan: *applaud* (yoki *cheer*) *to the echo* – baqirib, zavqlanib olqishlamoq, gulduros qarsaklar bilan olqishlamoq. Shekprizm: *applaud to the echo* [107;116].

Cram something down somebody`s throat

Ram something down somebody`s throat

Thrust something down somebody`s throat

Sheksprizm: *thrust something down somebody`s throat* [113;122].

Ba`zi hollarda sheksprizmlar tarkibi almashtirilishi mumkin. Masalan:

Buy golden opinions – o`zi haqida yaxshi, ijobiy fikrlarga ega bo`lmoq, olqishga sazovor bo`lmoq.

Macbeth: ... He hath honoured me of late; and I have bought golden opinions from all sorts of people ... [107;162]

Hozirda *buy* fe`li o`rniga *win* fe`li ishlatilmoqda:

I don`t want to use hackneyed phrases, but the fact is I can`t say it any other way, he`d won golden opinions. (William Somerset Maugham)

The sear, the yellow leaf sheksprizmining zamonaviy tilda *the sear and yellow leaf* varianti mavjud.

The sear, the yellow leaf [107;121] - (kit.) keksalik yoshi.

A Daniel come to judgement sheksprizmi hozirgi kunda ironiya sifatida ishlatiladi.

A Daniel come to judgement – vijdonli, adolatli, yon bosmaydigan hakam.

Ingiliz adabiyoti manbalaridan olingan frazeologik birikmalar

Shekspirdan tashqari ko`plab boshqa yozuvchilar ingliz tili frazeologiyasini boyitishgan. Lekin ba`zi iboralarning muallifini aniqlash mumkin emas, chunki ular xalq ijodi hisoblanadi. Ba`zi frazeologizmlarda biz alohidalikni kuzatamiz, bunday frazeologizmlarni biror yozuvchi yoki shoir birinchi marta adabiyotga olib kirgan bo`ladi. Adabiyotda u yoki bu frazeologizmning kirib kelishini har doim ham uning tuzilishi belgilab bermaydi, chunki muallif asar yozilgan davrning ruhiga mos keluvchi va o`sha davrda keng tarqalgan iboradan foydalangan bo`lishi mumkin. O`lis davrlarda yashab ijod qilgan yozuvchilar yaratgan iboralarga muallif tanlash juda ham qiyin hisoblanadi, masalan: Jeffri Choser.

XIV asr

Jeffri Choser

Choser ijodiga borib taqaluvchi frazeologizmlarga bir qancha iboralar tegishli.

He must have a long spoon that soups with the devil - shayton bilan bog`langan bo`lsang o`zingdan ko`r.

He should have he needs a long spoon that soups with the devil [38;47] - shayton bilan bog`langan bo`lsang o`zingdan o`pkala.

Murder will out [38;47] – kasalni yashirsang isitmasi oshkor qiladi, oyni etak bilan yopib bo`lmaydi.

Through thick and thin [38;47] - dadil, o`jarlik bilan, barcha vaziyatda, hech qanday g`ovga qaramay.

*Wet one`s whistle* [38;94] – (lotin tilidan grek tili orqali) biroz ichmoq, ichib olmoq, tomoq ho`llab olmoq.

Make a virtue of necessity [39;48] – zaruratdan ezgulik qilmoq, xo`ja ko`rsinga qilmoq, o`zini ixtiyoriy harakat qilayotgandek qilib ko`rsatmoq. Ibora qadimgi fransuz tilidagi *faire de necessite vertu*, lotin tilidagi *facere de necessitate virtutem* (zaruratdan o`zini ko`ngilli qilib ko`rsatmoq) iboralaridan o`zlashtirilgan.

A nine day`s wonder [39;55] - qisqa muddatli shov-shuv, arziyas mish-mishlar.

XVI asr

Edmond Spenser

As sure as death [37;46] – albatta, muqarrar, shubhasiz.

A square of dames [37;54] - (e.i.) xotinlarning ko`nglini ovlovchi shaxs, xotinparast.

XVII asr

John Benyan

The Slough of Despond [48;57] - (k.u.) umidsizlik.

Up and doing [48;57] – g`ayratli, faol. *A Psalm of Life* she`rida Henry Longfello bu iborani ko`p ishlatgani uchun ibora keng yoyilib ketgan.

Let us then be up and doing.

With a heart for any fate;

Still achieving, still pursuing,

Lean to labour and to wait.

Vanity fair [48;9] – manmanlik yarmarkasi; kim o`zarga yashamoq. Bu ibora Tekkeriy romanida ko`p ishlatilgani uchun ommalashib ketgan.

Tomas Braun

Doktor Fell – (k.i.) o`ziga beixtiyor yoqmay qolgan odamning g`ashiga tegadigan kishi. Satirik T.Braun doktor Fellni ishdan bo`shatish haqida shunday yozgan:

I do not like thee, doctor Fell,

The reason why I cannot tell;

But this alone I know full well

I do not like thee, doctor Fell.

Ser Frensis Bekon

Give hostages to fortune [77;86] – katta majburiyatni o`z bo`yniga olmoq, o`z taqdirini oldindan ko`ra olishga ishonish (turmush qurish va farzandli bo`lish haqida).

The remedy is worse than the disease [77;86] – o`lganning ustiga tepgan.

Uillyam Davenport

A gay Lothario [94;103] – quvnoq sho`x yigit, xotinlar ketidan yuradigan kishi, xotinboz.

Ben Jonson

Marriage is a lottery – turmush – lotereya.

Hugh: I smile to think how like a lottery these weddings are [21;30] Misoldan ko`rinib turganidek, Ben Jonsonning gapi tilga o`zgargan holda kirib kelgan.

Something in the wind [22;31] – kelib chiqish yoki yuz berish ehtimoli bo`lgan = osmonda uchib yurmoq.

The Swan of Avan – (k.u.) Eyvon oqqushi. Ibora Shekspirning taxallusi hisoblanadi. U Stratford-upon-Avonda tug`ilib shu yerga dafn etilgan.

Jon Drayden

*A blot on somebody`s escutcheon* – obro`ga tushirilgan dog`. Robert Braunning tragediyalaridan biri shunday nomlanganligi tufayli iboraning ommalashuviga sabab bo`lgan: *The Blot on the Scutcheon*.

The British Lion [49;58] – (s.s.) Britaniya arsloni; Buyuk Britaniya.

Jon Milton

Better to reign in hell than serve in heaven [51;60] – o`zga yurtda shox bo`lguncha, o`z yurtingda gado bo`l.

Confusion worse confounded [51;60] – chigallik, o`ta tartibsizlik.

The cynosure of all eyes [50;108] – (k.q.;k.u.) diqqat markazi

Every cloud has a silver lining – oyning o`n beshi qorong`u, o`n beshi yorug`.

L.P.Smitning fikricha bu ibora Miltonning quyidagi satrlarida yuzaga chiqadi:

Was I decided or did a sable cloud

Turn forth her silver lining

On the night?

Comus

Fall on evil days [51;68] – qashshoqlikka duchor bo`lmoq, baxtsiz bo`lmoq = qora kunlar boshlandi.

The light fantastic toe – raqs, raqs san`ati. Ba`zan hazil muloqotlarda ko`p uchratishimiz mumkin:

Tip it as you go

On the light fantastic toe.

L`Allegro

Zamonaviy ingliz tilida *the light fantastic* ko`rinishida uchraydi.

More than meets the eye – bir qarashdan ko`ra ko`proq. Miltonning o`zgartirilgan to`rtligi:

(great bards) have sung

Of fumey and of trophies hung,

Of forests and enchantments dear

Where more is meant than meets the ear.

Il Penseroso

XVII asr

Jon Arrbetnot

John Bull – Jon Bull (ingliz burjuasi timsoli). Jon Arrbetnot o`zining *The History of John Bull* satirik pamfletida ingliz qirolichasi Annaning saroy shifokori haqida yozib qoldirgan.

Jon Bayrom

Tweedledum and tweedledee – egizaklar. Ibora Bayrom tomonidan XVIII asrning birinchi yarmida o`zaro dushmanlik kayfiyatida bo`lgan ikkita musiqa maktablarini belgilash uchun tuzilgan, ularning orasidagi farq kam bo`lgan:

Some say compared to Bonacini:

*That mynheer Handel`s but a ninny:
Others avert that he to Handel.
Is scarcely fit to hold a candle.
Strange all this difference should be
“Twixt Tweedledum and Twweedledee.”*

On the Feuds between Handel and Bonacini

Iboraning mashxur bo`lishida L.Kerrolomning xizmati beqiyos. U bu iborani o`zining *Through the Looking-Glass* asarida ishlatgan. Bu asar o`zbek tiliga “Sirli ko`zgu ortidagi Alisa” deb tarjima qilingan.

Edmund Berk

Bite the hand that feeds you [35;44] – tuzini yeb, tuzlug`iga tupurmoq.
Men of light and leading [34;43] – (k.u.) madaniyatli arbob, madaniyat arbobi.

Robert Berns

John Barleycorn – Jon Arpa Doni. Pivo va boshqa spirtli hamda soloid ichimliklar timsoli. XVII asrning birinchi yarmida ishlatilgan bu ibora R.Berns uni o`z she`rlaeida ishlatgani uchun ommalashib ketgan.

*John Barleycorn was a hero bold
Of noble enterprise;
For if, you do but taste his blood
`t will make your courage rise.
... then let us toast John Barleycorn.
Each man a glass in hand;
And may his great posterity
Ne`er fail in old Scotland.*

The land of cakes [70;79] – (s.s.) suli nonlar mamlakati; Shotlandiya.

Oliver Goldsmit

Rule of thumb [63;123] – homcho`t; xonaki, qo`lbola.

Tomas Grey

Far from the madding crowd [83;143] – (s.s.) bekorchi olomondan uzoqda. Iborani Tomas Gardining shunday nomlanuvchi kitobi mashxur qilib yuborgan.

Where ignorance is bliss, `tis folly to be wise [83;92] – hech narsani bilmaysan, shuning uchun javob bera olmaysan.

Jon Gey

(as) *cool as a cucumber* – ayroni achimaydigan, og`ir karvon = dunyoni suv bossa to`pig`iga chiqmaydi.

I cool as a cucumber could see

The rest of womankind.

Poems on Several Occasions.

Daniel Defo

A gentleman`s gentleman [31;40] – (s.s.) jentlmenga xizmat qiluvch jentlmen; xizmatkor, kamerdiner⁹.

Samuel Jonson

From China to Peru [74;84] – (s.s.) Xitoydan Perugacha; har yerda.

Uillyam Kuper

A cup that cheers, but not inebriates [94;104] – (h.i.) kayfiyatni ko`taradigan, lekin katf bermaydigan ichimlik, choy.

Tomas Morton

What will Mrs. Grundy say? – Grandi xonim nima deydi? = xonimlar nima deydi? Ibora *Speed the Plough* komediyasida ishlatilgan. Grandi xonim – keng tarqalgan o`git timsoli.

Aleksandr Pop

Break a butterfly on the wheel [13;23] = arzimagan ishga ko`p kuch sarflamoq.

Damn with faint praise [13;22] - biror kimsaning mehnatini tahqirlamoq, mensimaslik.

The feast of reason and flow of soul – mazmunli suhbat, ma`naviy suhbat. *a feast of reason* ham shu ma`nolarda ishlatiladi.

There St. John mingles with my friendly bowl,

The feast of reason and the flow of soul.

Satires and Epistels of Horace Imitated.

Fools rush in where angels fear to tread [12;22] – ahmoqlar farishtalar qadam bosishga xazar qiluvchi yerga oshiqishadi; jinniga qonun-qoida yo`q. Shunga o`xshash ibora:

Rush in where angels fear to tread – esi past va o`ziga bino qo`ygan odam xavfli ishga qo`l uradi.

Leather and prunella – ahamiyatsiz narsa, nazarga kirmaydigan. Ibora *Essay on Man* asaridan olingan parchaning noto`g`ri talqini tufayli yuzaga kelgan:

Worth makes the man, and want of it the fellow;

The rest is all but leather or prunella.

Mazkur parchada *leather or prunella* cobbler orr the parson ma`nosini anglatmoqda. *Prunella* – jubbalar qiliandigan pryunel gazlamasi. Pryunel – poyabzalning ustki qismiga va

⁹ Kamerdiner – burjua-dvoryan honadonidagi shaxsiy uy xizmatkori.

mebel qoplashda ishlatiladigan yengil, pishiq mato. Jubba – provaslaviye ruhoniylari kiyadigan keng yengli, uzun ustki kiyim.

Not for ears polite [14;24] – yaxshi tarbiya ko`rgan odamlarning eshitmasligi uchun.

Who shall decide when doctors disagree? [15;25] – (h.i.) nafs hakalak otganda xom sut emgan band anima ham qilardi? Iboradan *doctors differ* yoki *doctors disagree* – nafs hakalak otmoq.

Samuel Richardson

Be under somebody's thumb [75;85] – kimningdir quli bo`lmoq, xotinlarga tobe bo`lmoq.

A pretty kettle of fish! [76;86] – xo`p yaxshi bo`ptida! Ajoyib voqea bo`libdiku! Ishlar pachava! Ish chalkashib ketdi!

Jonatan Swift

All in the day's work [52;114] – odatdagidek, mo`tadil.

all the world and his wife – (h.i.) behisob; sen yetishmay turganding.

Miss: Pray, madam, who were the company?

Lady Smart: why, there was al the world and his wife.

Johnathan Swift. Polite Conversation.

The battle of the books – (k.u.) kitoblar jangi, ilmiy munozara.

Darken somebody's door [52;62] – biror sohaga sekin-asta kirib bormoq.

The land of Nod – tush qirolligi. Ingliz tilida *nod* so`zi asosaiga qurilgan so`z o`yini mavjud.

Nod – mudroq.

Nod – Nod yerlari. Aveliyaning o`limidan keyin Kain badarg`a qilingan Bibliyadagi joy nomi. Swift kiritgan ibora quyidagicha:

Go into the land of Nod [52;62] – uyquga ketmoq.

Promises and piecrust are made to be broken – vafosiz va`da. Keyinchalik paydo bo`lgan varianti: *promises are like piecrust, made to be broken.*[52;62]

Quarrel with one's bread and butter [52;62] – tirikchilikka yarab turgan ishini to`xtatmoq.

Rain cats and dogs [52;62] – sharros quymoq, chelaklab yog`moq.

A sight for sore eyes [52;62] – aziz mehmon; yoqimli manzara.

Someone is walking over my grave [52;62] – (so`zl.,h.i.) qo`rquvdan titroq bosmoq.

Adam Smit

A nation of shop-keepers [10;20] – do`kondorlar mamlakati (inglizlarning laqabi).

Tobayas Mollet

Fit like a glove [85;95] – uzukka ko`z qo`ygandek.

Fly off at a tangenti [85;95] – kutilmaganda suhbat mavzusidan chetlashmoq.

Pop the question [86;96] – o`z nikohiga o`tishni taklif qilmoq.

Jon Uesli

Cleanliness is next to godliness [87;97] – ozodalik – taqvodorlikka yo`l.

Lord Chesterfild

Small talk [57;76] – quruq safsata, arzimagan voqea; ob-havo haqida suhbat.

XIX asr

Jorj Gordon Bayron

(as) merry as a marriage-bell – hayoti quvonch va xursandchilikka to`la.

Soft eyes look`d love to eyes which speak again,

And all went merry as marriage bell.

Childe Harold`s Pilgrimage

Young barbarious [40;50] – yosh varvarlar (aqliy salohiyatda to`la kamolotga yetmagan aristokrat talabalar haqida). Varvarlar – Qadimgi Yunoniston va Rimda madaniyatdan ortda qolgan ajnabiylarga berilgan nom.

Mary Breddon

Dead Sea fruit – (s.s.) chiroyli chirigan xo`l meva; yolg`on, soxta g`alaba (roman nomi).

Uillyam Vordsvort

The child is the father of the man – shayton insonning yetmish ikki tomiridadir (*My heart leaps up when I behold ... she`ridan parcha*).

Charlz Dikkens

Anything for a quiet life [27;37] – (h.i.) hammasini tinch hayot uchun fido qilmoq.

An artful Dodger – tajribali o`g`ri. *Oliver Twist* romanidagi cho`ntakkesar Jon Dokins timsoli.

Barkis is willing [28;38] – Barkis rozi bo`ldi, shuningdek e`tirozlar yo`q.

The Circumlocution Office – (s.s.) byurokratiya, qog`ozbozlik, ishni paysalga solish rivojlangan muassasa. *Little Dorrit* romanidagi byurokratik muassasa nomidan olingan.

Go to the damnition bow-wows [29;39] – (h.i.) bor-yo`g`idan ajralmoq, xarob bo`lmoq, barchasi zoye ketmoq.

How goes the enemy? [29;39] – (so`zl.,h.i.) soat necha bo`ldi?

In a Pickwickian sense [27;91] – Pikvikka xos mazmunda, shunga o`xshash yana: yengil hazil.

*King Charles`s Head* [28;92] – (k.i.i.) jon-u tani bilan, miyasiga o`rnashib qolgan g`oya.
Bu kam ishlatiluvchi ibora aqldan ozgan janob Dik Karl Birinchining ishqibozligi bilan bog`liq.

A London particular – Londonning qalin tumani.

“This is a London particular.”

“I had never heard of such a thing.”

“A fog, miss”, said the young gentleman.

“O indeed!” said I.

Bleak House.

Not to put too fine a point upon it [25;35] – ro`yirost gapirmoq, sodda qilib aytganda.

Prunes and prism [26;36] – nozlanib gapirmoq, noz-karashma, sulukatli, qiliqdor.

Hozirda *prunes and prisms* ko`rinishida ishlatiladi.

Tomas Karleyl

The whiff of grapeshot [82;92] – (evf.) ommaviy harakatning ruhini tushirish uchun bir qancha o`qni baravariga otish.

Tomas Kempbell

Coming events cast their shadows before – hodisadan oldin uning alomati keladi. Shuningdek yana, voqea o`zining alomatidan oldin yuz berdi. Bu frazeologik birikmada *cast one`s shadow before* frazeologizmining xosilasi mavjud.

*cast one`s shadow before* = o`zini kim ekanligini bildirib qo`ymoq, soyasiga ko`rpacha soldirtirmoq.

Few and far between – siyrak. Qisqartirilgan misra: *like angel visits few and far between*. [81;91]

Jon Morton

Box and Cox – navbatma navbat ishlatiladigan xona yoki bino. Ibora farsning¹⁰ nomidan olingan, unga ko`ra ikki personaj Jon Boks va Jeyms Kokslar navbatma navbat bir xoanda shug`ullanishgan: biri tunda, boshqasi kunduzi.

Jon Pul

Paul Pry – begonalarning ishiga burun suquvchi odam. Komedik asar nomiga asoslangan.

Jon Reskin

The pathetic fallacy – (k.u.) tabiatni jonlantirish. Masalan: *the cruel sea, a pitiless storm* kabi iboralar.

Bruerning [24;683] lug`atida *the pathetic fallacy* iborasi yuqoridagi ko`rsatilgan ma`nolarda Reskin tomonidan ishlatilganligi noto`g`ri deb topilgan. Frazeologik birikmaning bu

¹⁰ Fars – kichik hajviy pyesa.

ma`nosi ketinroq yuzaga keldi, Reskin esa bu iborani odamlarga vaziyatni to`g`ri baholashga halal beruvchi kuchli hissiyotni ifodalash uchun olib kirgan, fikrimizni quyidagi misol bilan dalillaymiz:

All violent feelings ... produce a falseness in ... impressions of external things, which I would generally characterize as the "Pathetic fallacy".

Modern Painters

Volter Skott

Beard the lion in his den [92;108] – xavfli dushmanga uning o`z uyida hujum qilmoq, xavfli raqibga dadillik bilan qarshi chiqmoq.

Catch somebody red-handed – jinoyat ustida qo`lga tushirmoq, jinoyat ustida ushlamoq. *Take somebody red hand* iborasi aynan shu ma`noda XVI asrgachashotlandiyaning huquqiy sohalarida qo`llanilgan. Zamonaviy tilda asosan *catch somebody red-handed* ishlatilmoqda.

*Dree one`s weird* – o`z taqdiriga ko`nmoq, taqdirga tan bermok. Ibora XIV asrdan beri ma`lum. XVI asrda muomaladan chiqib ketgan edi. Volter Skott uni qaytadan ingliz adabiyotiga va so`zlashuvga o`zining *The Antiquary* asari orqali olib kirdi. Hozirgi zamonaviy til nigohi bilan qaraydigan bo`lsak, iboradan eskirganlik alomati ufurib turadi.

Far cry – katta masofa, ancha uzoq davr, katta farq = osmon bilan yercha farq bor. Ibora shotland matallaridan biri *it is a far cry to Lochow* ning bir qismi hisoblanadi. Volter Skott buni quyidagicha isbotlaydi:

The menace was received with a scornful baugh while one of the Campbells replied, "It is a far cry to Lochow" a proverbial expression meaning that their ancient hereditary domain lay beyond the rea chof an invading army.

The Legend of Montrose.

A foeman worthy of somebody`s steel – munosib raqib

And the stern joy which warriors feel in foeman worthy of their steel.

The Lady of the Lake.

*Laugh on the wrong side of one`s mouth* [92;103] – ko`tarinki kayfiyatdan keyin ma`yus tortib qolmoq, kulgudan ko`z yoshga o`tmoq.

*One`s native heath* – ona zamin, tug`ilgan joy.

My foot is on my native heath, and my name is Mac Gregor!

Rob Roy.

Robert Luis Stivenson

Dr. Jekyll and Mr. Hyde - doctor Jekyll va janob Hyde; yaxshilik va yomonlikni o`zida mujassamlashtirgan odam. Ibora *The Strange Case of Dr Jekyll and Mr Hyde* asarining bosh qaxramonlarining ismiga qurilgan.

Play the sedulous ape [71;82] – ko`r-ko`rona taqlid qilmoq.

Penny plain and two pence coloured [71;82] – usti yaltiroq, ichi qaltiroq.

Stivenson iborada arzon pyesalar to`plamining narxlarini ifodalovchi so`z birikmasining tarjimasidan foydalangan, ya`ni oddiy qoplamali kitobcha uchun bir penni (*penny plain*) va rangli muqovali kitobcha uchun ikki pens. Keyinchalik bu birikma frazeologik birikma bo`lib qolgan.

Henri M. Stenli

The dark continent [45;56] – qora qit`a; Afrika.

Uillyam Metkpis Tekkerey

A skeleton in the closet – boshqalardan sir tutuluvchi oilaviy ko`ngilsizlik. Keyinroq *a skeleton in the cupboard* ko`rinishiga kelgan. Tekkerey ungacha bu ibora ma`lum bo`lishiga qaramasdan *The Newcomes* asarida *a skeleton in the closet* iborasini adabiyotga olib kirgan. Aslini olganda esa bu ibora *vanity fair* iborasiga o`xshashdir.

Alfred Tennison

A rift within the lute yoki *a little rift within the lute* [16;83] – tartibsiz va o`ylamasdan ish boshlash, illat, nuqson; o`rta sovuqlik tushishi.

Oliver Vendell Holms

Nail alie to the counter [64;84] – yolg`onni xalq oldida ochiqchasiga fosh qilmoq. Qadimda ingliz baqollari soxta tanga pullarni o`z rastalariga mixlab qo`yishgan va bu bilan ular xalqqa oralarida soxta pul yasash bilan shug`ullanuvchi fuqarolar borligiga ishora qilishgan.

XX asr

Jon Berri

Little Mary – (s.h.i.) oshqozon, qorincha. Jon Berri pyesasining nomi.

Redyard Kipling

*The white man`s burden* – oq tanlilar zulmi, go`yoki mustamlakachilarning sivilizatorlik vazifasi – mustamlaka siyosati imperialistlarining o`z xalqini munofiqona himoya qilishi. Kiplingning she`rlaridan birining nomidan olingan.

A flannelled fool – flanel¹¹ kostyumdagi ahmoq. Boy tanbal sportchilarning ustidan kulish uchun o`ylab topilgan laqab.

¹¹ Flanel – ipdan yoki jundan to`qilgan yengil mato.

XX asrda yaratilgan ko'plab iboralar u yoki bu sababga tarixdagi mashxur shaxslarning turli fikr-mulohazalariga borib taqaladi. Misol uchun:

Keep one's powder dry – poroxni quruq saqlamoq, jangga tayyor bo'lmoq, shay bo'lib turmoq. Ibora Oliver Kromvel tomonidan Danbar yaqinida shotland monarxiyachilari bilan jang qilayotgan qo'shinlarini ruhlantirish uchun aytilgan. Bu ibora 1650-yil 3-sentabrda qo'shinlar daryoni kechib o'tishi oldidan aytilgan edi:

Put your trust in God, but be sure to keep your powder dry.

Die in the last ditch – o'lmaguncha chekinmaslik, yiqilsa ham dushman tomonga yiqilmoq, jonini ayamay himoya qilmoq, oxirigacha kurashmoq. Faylasuf Tomas Gobbsning¹² so'nggi so'zlari *a leap in the dark* bo'lgan. Ibora ingliz tiliga mangulikka qadam qo'yishlik, o'lim ma'nolari bilan kirib kelgan. *Die in the last ditch* iborasi Angliya qiroli Vilgelm III Oranskan tomonidan yozib qoldirilgan.

There is one certain means by which I can be sure never to see my country's ruin: I will die in the last ditch. [47;58]

the schoolmaster is abroad – keng yoyilib borayotgan ta'lim. Kam qo'llaniluvchi *the schoolmaster is abroad* iborasi birinchi Henri Piter Brum, keyinroq Buyuk Britaniya lord-kansleri tomonidan ishlatilgan.

*The schoolmaster is abroad, and I trust him, armed with his primer, against the soldier in full military array.*¹³

Catch the whigs bathing and walk away with their clothes – (s.s.) vigilar¹⁴ cho'milayotganda behosdan bostirib kirib, ularning kiyimlarini olib chiqib ketmoq; boshqa partiyalar siyosatini kuzatishni boshlamoq. Kam ishlatiluvchi *catch the whigs bathing and walk away with their clothes* iborasini 1845-yil 28-fevralda Quyi Palatada B.Dizraeli o'z nutqida qo'llagan. Shuningdek u o'z nutqlarida *be on the side of the angels* iborasidan ham foydalangan.

Be on the side of the angels – an'anaviy nuqtai nazarda turmoq. Ketinchalik bu ibora aybsiz jabr chekkan odam tomonida turmoq ma'nosiga ega bo'ldi. Ibora birinchi marta 1864-yil 25-noyabrda Darvin nazariyasi haqidagi bayonotda ishlatilgan.

The question is this: Is man an ape or an angel? My lord, I am on the side of the angels.

Terminological inexactitude – (evf.) texnik hatolik, nohaq gap, yolg'on. U.Cherrill bu iborani 1906-yil 22-fevraldagi Quyi Palatadagi nutqida ishlatgan.

A boy in the backroom – 1) ilmiy tekshirish institutidagi maxfiy hodim; 2) ishchi, ekspert, mutahassis (biror kimsaning soyasida mashxur bo'lishga harakat qiluvchi odamlar haqida). Ibora

¹² Tomas Gobbs – 1588-yil 5-aprelda Malmsberida tug'ilib, 1679-yil 4-dekabrda Xarduikda vafot etgan ingliz faylasufi.

¹³ 1828-yil 29-yanvardagi Quyi Palatadagi nutqdan olingan.

¹⁴ Vigi – XVII-XIX-asrlarda Angliyada, 1834-1854-yillarda AQShda faoliyat ko'rsatgan siyosiy partiya.

1941-yil 24-martda e`lon qilingan harbiy mutahassislar yetishtirish haqidagi lord Biverbrukning nutqidan olingan:

To whom must praise be given ... to the boys in the backroom. Keyinchalik paydo bo`lgan variant: *a backroom boy.*

The wind of change – o`zgarishlar shamoli. Iborani Angliya bosh vaziri G.Makmillan Afrikadagi ijtimoiy g`alayonlarga nisbatan ishlatgan.

Noma`lum mualliflar tomonidan tuzilgan u yoki bu iboralarning mashxur bo`lishiga taniqli siyosiy arbob va yozuvchilarning bunday iboralardan foydalanishi katta yordam bergan. Masalan:

Bag and baggage – bor ko`ch-ko`roni bilan. Dastlab ibora quyidagi ko`rinishda bo`lgan:

With bag and baggage – harbiy bo`linma va askarlarning barcha qurol-aslahalari bilan. Ibora XVI asrdan beri ma`lum va Yevropada turklar hokimiyati haqida U.Gladstonning nutqida bu iboradan foydalangani tufayli keng omma tomonidan ishlatilib kelinmoqda.

Let the Turks now carry away their abuses in the only possible manner, namely by carrying away themselves ... One and all, bag and baggages shall, I hope, clear out from the province they have desolated and profaned.

Luis Kerroll txallusi bilan nom qozongan ingliz matematigi va yozuvchisi J.Dodjson tomonidan ishlatilgan ba`zi frazeologizmlarning mashxur bo`lishiga uning barchaga ma`lum "Alisa g`aroyibotlar mamlakatida" kitobi shak-shubhasiz yordam bergan. Shunday frazeologizmlarga, allaqachon bizning yodimizda qolib ulgurgan *tweedledum and tweedledee* dan tashqari *grin like a Cheshire cat* hamda *as mad as a hatter* yoki *as mad as a March hare* lar ham iboralarga tegishlidir.

Grin like a Cheshire cat – istehzoli iljaymoq, og`zini bor kenglikda ochib jilmaymoq.

As mad as a hatter yoki *as mad as a March hare* – butunlay aqldan ozgan, es-hushi o`zida emas, butunlay esini yeb qo`ymoq. Buuch ibora L.Kerrollning kitobidagi jilmayayotgan Cheshir mushugi, telba telpakdo`z va esi past mart quyonlari bilan uzviy bog`liqlikdda. Har uchala iboralar ham L.Kerrollgacha ma`lum bo`lgan, lekin *as mad as a hatter* iborasining etimologiyasi noma`lumligicha qolmoqda.

Ba`zi frazeologik birikmalar u yoki bu asarlarning personajlari bilan bog`langan bo`ladi. Shu turdagi frazeologizmlarning bir qanchasini quyida keltirib o`tamiz:

Hamlet with Hamlet left out, shuningdek *Hamlet without the Prince of Denmark* – martabasini yo`qotgan Hamlet; izlaganda labbay topilmaydi.

A lady Bountiful – patronessa honim; xayr-ehson ishlari bilan shug`ullanuvchi honim. D.Farkarning *The Beaux Stratagem* pyesasi qaxramonining ismidan olingan.

The faithful Adam – sodiq sobiq xizmatkor. Shekspirning *As You Like It* komediyasining qaxramonlaridan birining nomiga qurilgan.

Man Friday – Jumavoy, sodiq va sadoqatli xizmatkor. Daniel Defoning *Robinson Crusoe* romanidagi sodiq xizmatkorning nomidan olingan.

A Mark Taply – Mark Tepli, har qanday vaziyatda ham umidsizlikka tushmaydigan odam. Charlz Dikkensning *Martin Chuzzlewit* nomli romanining qaxramonlaridan birining nomidan olingan.

An Oliver Twist – Oliver Twist, kam ulush oladigan odam. Ch. Dikkensning shu nomli romanining bosh qaxramoni nomiga qurilgan.

An Uriah Heep – Uriya Hip; munofiq fitnachi. Ch. Dikkensning *David Copperfield* romanining qaxramonlaridan birining ismidan olingan:

... *a sort of factotum to the King and the Lord Bishop, to whom he belonged "body and soul and boots", an Uriah Heep.*

Mark Twain.

The real Simon Pure – tabiiy, xaqiqiy. S. Sentliverning (1667-1723) *A Bold Stroke for a Wife* asarining qaxramonlaridan birining nomiga qurilgan.

A Sherlock Holmes – Sherlok Holms; bilimdon, topqir josus. Artur Konan Doyl hikoyalarining qaxramoni.

Ba`zan badiiy asar qaxramonlarining u yoki bu sifati frazeologizmlarda o`z ifodasini topadi, masalan:

*Cardelia`s gift* – (k.u.) past, muloyim ayol ovozi. Shekspirning *King Lear* tragediyasi qaxramoni Kordeliyaning ovoziga o`xshatish.

Ba`zi ingliz tilining frazeologizmlari bolalar she`riyatidan kirib kelgan.

Jack Horner – mag`rur bolakay.

Little Jack Horner

Sat in a corner,

Eating a Christmas pie;

He put in his thumb,

And he pulled out a plum,

And said,

"What a good boy am I?"

Jack Sprat – arziyas odam, notovon.

Tom Thumb – barmoq bo`yi bola, pakana, past bo`yli = sinjaloq. Qadimgi she`riy ertak qaxramoni bo`lgan juda kichkina odamcha nomidan olingan.

Ba`zi frazeologik birikmalar bolalar o`yinlari va qo`shiqlari bilan bog`langan, masalan:

Tom Tiddler's ground – serdaromad ish, yog'li joy. Ibora qadimgi bolalar o'yinlaridan biri bo'lgan *Tom the Idler's ground* nomidan kelib chiqqan. Bu o'yinda Tom Tiddler deb ataluvchi boshqaruvchi o'zi joylashgan yerga hech kimni kirgizmaydi. Boshqa bolalar shu paytda qo'shiq kuylab turishadi:

Here we are on the Tom Tiddler's ground

Picking up gold and silver.

Keep the home fires burning frazeologik birikmasi Birinchi jahon urushi davrida mashxur bo'lgan qo'shiqdan olingan.

Ba'zi frazeologizmlar matbuotda nashr qilingan karikaturalar bilan bog'liq.

Colonel Blimp – nihoyatda eskilikka yopishib olgan odam, ahmoq, qovoqbosh. 1891-yilda karikaturist rassom Devid Lou yaratgan obraz.

The curate's egg – ba'zi ijobiy tomonlari mavjud yaramas narsa yoki odam. 1895-yildagi *Punch* nomli ingliz hajviy jurnalida qavm ruhoniysining yordamchisi haqida rasmi hajviya bosib chiqarilgandi. Unda o'sha qavm ruhoniysining yordamchisi yepiskopdan palaxta tuxum olgan va bu tuxumlarning biri sehrli ekanligini bilib qolgan.

Drop the pilot – (dengizchilik) lotsmanni¹⁵ ishdan bo'shatmoq. Ko'chma ma'noda: haqiqiy maslahatchini rad etmoq. Iboraning paydo bo'lishi 1890-yilda *Punch* jurnalida Vilgelm II ning talabiga ko'ra Bismarkning iste'fosiga bag'ishlangan karikaturaga borib taqaladi.

The old lady of Threadneedle Street – (h.i.) Trednidl Stritli qariya honim. Trednidl ko'chasida joylashgan ingliz bankiga omma tomonidan berilgan nom. Ibora 1797-yildan Jeyms Gilreyning karikaturalarida ko'rina boshlagan. Karikaturada qulflangan sandiq ustida o'tirgan qari ayolningoltinlarini egallashga urinayotgan bosh vazir Kichik Uillyam Pitt aks ettirilgan. Pitt Napoleon bilan bo'layotgan janglar uchun qari ayollardagi pullarni qo'lga kiritishga harakat qilgan. Karikaturaning ostida shunday yozuv bo'lgan: *the old lady of Threadneedle Street is in danger*.

III.2. Xorijiy tillardan o'zlashgan frazeologik birikmalar

Xorijiy tillardan o'zlashtirilgan frazeologizmlar ingliz tili frazeologiyasini to'ldirib turuvchi manbalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, lotin va fransuz tillaridan ko'plab frazeologizmlar o'zlashtirilgan. Bundan tashqari, yunon, ispan, italyan va boshqa tillardan o'zlashtirilgan iboralar ham mavjud. O'zlashtirilgan frazeologik birikmalarning ko'pchiligi o'zida kitobiylik xususiyatini namoyon etadi. O'zlashtirish usuliga ko'ra frazeologizmlar besh guruhga ajratiladi:

1. So'zma-so'z o'zlashtirilgan iboralar. Bu guruh o'z navbatida ikki kichik guruhlariga bo'linadi:

¹⁵ Lotsman – kemalarga yo'l ko'rsatuvchi mutaxassis.

I. Ingliz tilida soʻzma-soʻz oʻzlashtirilgan iboralar mavjud, lekin baʼzilarining asli ingliz tilida ishlatilmaydi. Masalan: *baptism of fire* – jangovor choʻqintirish (fr. *Baptême du feu*), *make believe* – mugʻombirlik qilmoq (fr. *Faire croire*).

Bu kichik guruhga baʼzi maqollar ham aloqadordir: *dead men don't bite* – oʻliklar tishlamaydi (qiy. Oʻliklarning joni yoʻq), bu ibora ingliz tiliga yunon tilidan lotin tili orqali olib kirilgan (lot. *Fames optimum condimentum* (Sitseron)).

2. Ingliz tilida oʻz aslidek ishlatiladigan soʻzma-soʻz oʻzlashtiriladigan iboralar: *man is to man a wolf*. – gadoning dushmani gado boʻladi (lot. *Homo homini lupus est*), Qadimgi Rim shoiri Plavtaning nutqidan olingan. *Second to none* – tengi yoʻq (lot. *Nulli secundus*), *with a grain of salt* – shubhali, ishonchsizlik bilan (lot. *Cum grano salis*).

3. Asliga baʼzi oʻzgartirishlar kiritilib olib kirilgan frazeologik birikmalar. Bu tillardagi mavjud leksemalar tartibining buzilish holatini nazorat qilib turadi, misol uchun, *an iron hand in a velvet glove* – yumshoq joyda yashi uxlaysan (fr. *Une main de fer dans un gant de velours*), fransuz tilidagi soʻz tartibida aniqllovchi otdan keyin keladi, ingliz tilida esa aksincha. *If you run after two hares, you will catch neither* – ikkita quyonning ortidan yugursang, ikkovini ham qoʻldan chiqarasan. (lot. *Duos qui sequitur le pores neutrum capit*). Bu maqolning nemis va fransuz tilidagi variantlarini kuzatsak ularda ham lotin tilining soʻz tartibi oʻzgarganini koʻrishimiz mumkin. Fransuz tilida: *qui court deuse lievres n'en prend point*; nemis tilida: *wer zwei Hasen hetzt fangt keinen*.

Baʼzan asl tartibning oʻzgarishi leksik almashishlar hisobiga murakkablashadi: *by all that's blue!* – jin ursin! Fransuz tilidagi *parbleu* – *par Dieu* – Allohga qasam evfimizmi oʻrnida ingliz tildagi frazeologik birikmalar fransuz tilidagi asli bilan qiyoslaganda tarkibit qismlar qoʻshilib ketganligini koʻrishimiz mumkin.

4. Bir qismi oʻzgartirilib, bir qismi esa toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilinib olib kirilgan frazeologik birikmalar. Masalan: *a propos* (yoki *apropos*) *of nothing* – hech narsadan hech narsa yoʻq, bekordan bekorga (fr. *A propos de rien*).

5. Qadimgi tilning soʻz tartibi boʻyicha olingan frazeologik birikmalar. Shunday tuzilishga ega quyidagi noyob frazeologik birlik misol sifatida xizmat qilishi mumkin: *omnium gatherum* – aralash-quralash; barcha-barchasi, barcha yigʻilganlar (lot. *omnium gatherum*). *Omnium* – *omnis*ning qaratqich kelishigi, koʻplik shakli, *gatherum* – qadimgi tildagi eskirgan soʻz: *gather+um* (*omnis* - hamma).

6. Klassik asosdagi qadimgi frazeologik birikmalar. Bunday frazeologik birikmalar antik mifologiyalarga, qadimgi dalillarga asoslangan frazeologizmlarning katta qismini oʻz ichiga oladi. Masalan: *the cask of Danaids* – Danaidning bochkasi, tubsiz bochka.

Bibliyadan oʻzlashgan frazeologik birikmalar

Bibliya frazeologik birikmalarning muhim adabiy manbasi hisoblanadi.

Bibliyaning ingliz tilidagi tarjimalarida ko`rsatilgan frazeologik birikmalarning ingliz tili frazeologiyasining boyishiga ulkan ta`siri haqida ko`plab gapirilgan hamda yozilgan. Bibliya yuz yillar davomida Angliya'dagi kitoblar ichida eng ko`p o`qilgan va sitatalar olingan manbaa hisoblanadi. Undagi nafaqat alohida olingan so`zlar, balki idiomatik iboralar ham Bibliya sahifalaridagi ma`nosi bilan ingliz tiliga kirib kelgan. Odatda bunday iboralar qadimgi yevrey va yunon iboralaridan so`zma-so`z tarjima qilish orqali olingan. Ingliz tilidagi Bibliyadan olingan o`zlashtirma va iboralarning soni shunchalik ulkanki, ularni to`plash va sanash nihoyatda qiyin vazifa hisoblanadi.

Bibliyadan olingan frazeologik birikmalar to`la o`zlashtirilgan iboralar hisoblanadi.

So`zlashuvda keng yoyilgan biblizmlardan bir qanchasini misol tariqasida keltiramiz. Bunday iboralardan ba`zi biblizm evivalentlari boshqa roman-german tillarida ham ishlatiladi.

At the eleventh hour – so`nggi daqiqada, eng so`nggi damda.

Beat swords into plough-shares – qilichlarni bolg`alab, omoch yasamoq, tinch mehnatga o`tmoq, tinch kunlarga yetib kelmoq.

The breath of the nostrils – hayotiy zarurat, suv va havodek zarur.

Can the leopard change his spots? – nahot leopard o`z terisini boshqasiga almashtira olsa? = bukrini go`r tuzatadi.

*Cast one`s bread upon the waters* – suvga non uloqtirmoq; oqibatini o`ylamay biror ish qilmoq.

Cast pearls before swine – eshakning qulg`iga tanbur chalmoq.

Filthy lucre – oltin, kumush pullar; pul.

Grind the faces of the poor – kambag`allarni shavqatsizlarcha qiynamoq, kambag`allar mehnatidan ayovsiz foydalanmoq.

Heap coals of fire on somebody`s head – uyaltirmoq, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarmoq.

In the twinkling of an eye – ko`z ochib yumguncha.

The mammon of unrighteousness – pul, boylik.

New wine in old bottles – (s.s.) eski humlardagi yangi vino; orzu-havasi yo`q.

The olive branch – zaytun shoxi; tinchlik va osudalik timsoli.

The root of evil – yovuzlikning ildizi; mol-dunyoga muhabbat.

A thorn in the flesh of somebody – doim kimningdir g`azabini keltirmoq; xira pashsha.

A whited spulchre – (s.s.) asir olingan tobut; tashi yaltiroq, ichi qaltiroq; tashqi ko`rinishida inson g`azabini qo`zg`atuvchi biror narsani yashirib turgan odam.

Ask for bread and be given a stone – mehr berib minnat topmoq.

Bone of the bone and flesh of the flesh – pushti kamaridan boʻlgan farzand.

The dog returns to his vomit – jinoyatchi jinoyat joyiga qaytadi; ot aylanib qozigʻini topadi.

Rule with a rod of iron – qattiqqoʻllik bilan boshqarmoq.

Sell one's bright right for a mess of pottage – oʻzining birinchi kashfiyotini arzimagan pulga sotib yubormoq.

Separate the sheep from the goats – echkilardan qoʻylarni ajratmoq; muhim ishlarni saralab olmoq.

Set somebody's teeth on an edge = joniga tegmoq, bezor qilmoq.

Shake the dust from one's feet yoki *shake the dust off one's feet* – uzil-kesil ajralmoq, aloqani uzmoq, voz kechmoq, etagini qoqmoq, qoʻlini yuvib, qoʻltiqqa artmoq.

Baʼzi frazeologik birikmalar ibodat, duo mtnlari yozilgan *The Book of Common Prayer*dan olingan:

For better, for worse – qaygʻuli va quvonchli kunlarda ham, nima boʻlganda ham. Nikoh marosimida cherkov xizmatkorlarining kelin-kuyovga beradigan savolning bir qismi.

From the bottom of the heart – chin qalbdan, chin yurakdan, samimiy.

Lay violent hands on oneself – oʻz joniga qasd qilmoq, oʻzini oʻzi oʻldirmoq.

Like a giant refreshed – yangi kuch bilan.

The world, the flesh and the devil – rohat-farogʻatga intilish; xirs.

A sealed book iborasi ham aynan shu kitobdan oʻzlashtirilgan.

A sealed book – oilaviy nashr uchun kitob. 1622-yilda *The Book of Common Prayer* kitobi davlat bosmaxonalariga rasmiy nashr uchun berilgan. Bu kitobni faqatgina bosh cherkovlarda saqlash buyurilgan.

Bibliyadan olingan frazeologizmlar va ularning Bibliyadagi timsoli

Bibliyadan olingan frazeologizmlar oʻzlarining Bibliyadagi prototiplari bilan juda tez tarqib ketgan. Bunday qiyin va oʻrganilmagan savollar alohida koʻrib chiqilishini talab etadi va bu biz bajarayotgan ish doirasidan chetga chiqib ketadi. Biz baʼzi mulohazalar bilan cheklanamiz va shunday tavofutlarning asosiy turlarini koʻrsatib oʻtamiz.

1. Bibliyadan olingan frazeologizmlarning prototipi oʻz maʼnosida ishlatiladigan soʻz birikmasidir. Ulardagi maʼno koʻchishi natijasida frazeologizmlarning muvofiqlari vujudga keladi.

Cast the first stone at somebody – birinchi toshni otmoq; jazoga hukm qilmoq; toshbo`ron qilmoq. Iso Masihni sinamoqchi bo`lgan kitobxon¹⁶ va fariseylar¹⁷ eriga hiyonat qilayotgan paytda qo`lga tushirilgan ayolga yo`liqtirishadi, shunda Iso Masih ularga shunday deydi:

He that is without sin among you let him first cast a stone at her.

Iudeyada mavjud qatl etish marosimiga ko`ra qatl qilinuvchi toshbo`ron qilingan.

Daily bread – rizq-ro`z; tirikchilik manbai, tirikchilik vositasi. Yevangeliyada keltirilgan duoda ibora o`z ma`nosida ishlatiladi.

*Give us this day our daily bread.*¹⁸ – Bizga bugungi rizqimizni bergin.

Noqobil farzand haqidagi masalda keltirilgan *kill the fatted calf* iborasi o`z ma`nosida ishlatiladi.

kill the fatted calf – so`qimni yiqitmoq. Keyinchalik bu ibora boshqa ma`noga ega bo`lgan.

kill the fatted calf – uydagi bor narsa bilan yaxshilab mehmon qilmoq.

*A millstone about one`s neck* – og`ir javobgarlik; = gardandagi yuk, yelkadagi tog`. Ibra ma`nosi Bibliyada bildirgan ma`nosiga o`xshash. Frazologizm *hang* va *have* fe`llari bilan tez-tez qo`llaniladi. *About* so`zi *round* so`zining o`rnida ishlatilgan.

Thirty pieces of silver – o`ttiz tanga; sotqinlik, xoinning narxi. Ibra Iso Masihni 30 tangaga sotib yuborgan Iudeya qavmi haqida aytilgan Yevangeliyaning bir bo`lagiga borib taqaladi.

*Wash one`s hands (of something)* – qo`llarini yuvmoq, javobgarlikdan forig` bo`lmoq. Diniy qo`l yuvish marosimi biror kimsaning cho`qintirilishiga aloqasi yo`qligi haqida guvohlik bergan. Ibra Pilat haqidagi afsonaga borib taqaladi, unga ko`ra Pilat Iso Masihni qatl qilishga qayta olib kelgan va yig`indan oldin qo`llarini yuvgan.

... he took water and washed his hands before the multitude, saying I am innocent of the blood of this just person: see ye to it.

Ba`zida frazeologizmlar Bibliyada kelgan variantidan shaklan ajrab turadi. Misol uchun:

The ten commandments – o`n muqaddas burch. Bibliyada o`nta muqaddas burch sanab o`tilgan bo`lib, ularni *the ten Commandments* emas, balki *the Commandments* deb atashgan. Ibra Bibliyadan tashqarida hazil yoki ironic ma`nolarda ishlatiladi: ayollarning tirnoq izlari.

¹⁶ Kitobxon – kitobiy bilimlarga yopishib olgan, tashqi hayotdan uzilib qolgan odam haqida.

¹⁷ Farisey – Qadimgi Iudeyada: boy tabaqalar manfaatini himoya qilgan, mutaassabligi va munofiqligi bilan nom chiqargan diniy-siyosiy partiya a`zosi.

¹⁸ Sitatalar *The Authorized Version* deb nomlanuvchi Bibliyaning 1611-yilgi ingliz tilidagi tarjimasidan keltiriladi. Kitob Angliya qiroli Yakob I ning buyrug`iga asosan tarjima qilinganligi tufayli, *King James`s Bible* deb ham ataladi.

Ibora Shekspirgacha ma'lum bo'lsa-da, uni Shekspir o'zining *Henry IV* yilnomasining ikkinchi qismida ishlatgani uchun ommalshib ketgan.

Duchess of Glocester ... Could I come near your beauty with my nails I'd set my ten commandments in your face.

I'll set my ten commandments in the face of the first look that lays a finger on him.

Walter Scott.

I'll write the ten Commandments on your face.

Fr. Marryat

The eleventh commandment – o'n birinchi burch; qo'lga tushib qolma (*Thou shall not be found out*).

2. Bibliya iboralari prototiplarining variantlari frazeologizmlarda shakllanadi. Misol uchun:

To live on the fat of the land – yegani oldida, yemagani ketida, faravon yashamoq, shod-hurram umr kechirmoq = pichog'i moy ustida bo'lmoq, qozon ham, cho'mich ham moy bo'lgan sharoitda yashamoq.

Eat the fat of the land bibliya prototipi ommaviy muloqotga kirib bormagan.

3. Bibliyadan olingan iboralarning shaklan o'zgarishi.

Be weighed in the balance and found waiting – mos emasligi, yetarlimasligi ma'lum bo'lmoq; ishonchni oqlamaslik. Bibliyada: *thou art weighed in the balances, and art found wanting*.

A drop in the bucket o'zgargan bibliya iborasi hisoblanadi:

Behold the nations are as a drop of a bucket ...

Gall and wormwood frazeologik birikmasi Bibliyadagi haqiqiy birikma bilan qiyoslanganda, undagi so'z tartibi o'zgarganini va artikllar olib tashlanganligini ko'rishimiz mumkin: *the wormwood and the gall*.

Gall and wormwood – jirkanch, manfur, ko'ngilga tekkan = tomoqqa qadalgan pichoqday, jonni halqumga keltiradigan og'ir gap.

Hope against hope frazeologizmi "*who against hope believed in hope ...*" dan yaratilgan.

Hope against hope – mo'jiza kutmoq, yo'q narsadan umid qilmoq = osmondan chalpak yog'ishini kutmoq.

A lost sheep – yo'ldan ozgan, ahloqi buzilgan odam. Bibliyada: *... for I have found my sheep which I was lost*.

Wheels within wheels frazeologizmi L.P.Smitning fikriga asosan *...a wheel in the middle of a wheel* birikmasidan olingan.

Wheels within wheels – qiziqish; nufuz va fitnaning aralashib ketishi, chigal vaziyat.

Pride goes before a fall – yaxshilikni oxiriga yetkazmay turib kekkayish = shayton kibrlandi va arshdan quvildi.

Pride goeth before destruction and an haughty spirit before a fall.

A wolf in sheep's clothing – qo'y terisiga burkangan bo'ri.

Ba'zi bibleyizmlar zamonaviylashtirilgan va eskirgan shakllari olib tashlangan, masalan:

Not to let one's left hand know what one's right hand does – o'ng qo'ling berganini chap qo'ling bilmasin.

When thou doest alms let not thy left hand know what thy right hand doeth. – ehson qilganingda o'ng qo'ling berganini chap qo'ling ham bilsin.

Ibora Bibliyada ijobiy ma'noda ishlatilmoqda. Hozirgi tilda esa undagi ma'no biroz o'zgargan va bo'lishsiz shakldagi frazeologik birikma tusini olgan.

4. Noto'g'ri sitatalar keltirish natijasida bibliya iboralarining buzilishi. [14;225] Bu jumla quyidagi iboraga tegishli: *he that runs may read*. Ibora Bibliyadan quyidagi parchaning noto'g'ri sitata keltirilishi oqibatida paydo bo'lgan:

And the Lord answered me and said, Write the vision and make it plain upon tables, that he may run that redeath it.

He that runs may read - har bir kirish joyi yoki yo'li.

Cast in one's lot with somebody frazeologizmi Bibliyadai quyidagi parchaning noto'g'ri izohi natijasida paydo bo'lgan:

Cast in thy lot among us; let us all have one purse.

Cast in one's lot with somebody – biror kimsa bilan taqdirini bog'lamoq, birovning qismatiga sherik bo'lmoq.

Kata Oksford lug'ati va E.Partrijning lug'atlarining guvohlik berishicha, keltirilgan misoldagi nutqda gap bosib olingan yoki talangan mulkni bo'lib olish uchun qura tashlash haqida bormoqda.

Possess one's soul in patience – sabr qilmoq, yurakni keng qilib turish. Ibora bibliya iborasining shakl va mazmun jihatdan o'zgargan ko'rinishi hisoblanadi:

In your patience possess ye your souls.

Kata Okssford lug'ati bu iborada *possess* fe'li o'zining eskirgan ma'nosida ishlatilganini ko'rsatadi: *come into possession of, obtain, gain, win.*

See eye to eye – gapi gapiga qovushmoq, fikri bir yerdan chiqmoq, irqi chiqishmoq. Bu ibora Bibliyada yuzma-yuz turmoq ya'ni *see face to face* ma'nosida ko'rinadi.

5. Frazeologizmlarning tarkibidagi so'zlar Bibliyada o'zlarining so'zma-so'z ma'nolarida qo'llaniladi, lekin ular o'zgaruvchan birikmani yuzaga keltirmaydi.

Loaves and fishes frazeologizmi dunyoviy ne`matlar ma`nosini anglatadi. *Loaves* - nonlar va *fishes* – baliqlar Xristos uni eshitish uchun to`plangan yuzlab odamlarni beshta non va bir juft baliq bilan boqqanligi haqida yevangeliyada kelgan gapda ishlatilgan. Bibliyada *loaves* so`zi va *fishes* so`zi ishlatilgan, lekin *loaves and fishes* birikmasidan foydalanilmagan. Bu so`z birikmasiga eng yaqin ma`no quyidagi gapda keltirilgan:

There is a lad here, which hath five barley loaves, and two small fishes: but what are they among so many?

The writing on the wall – yaqinlashib kelayotgan baxtsizlikning darakchisi, dahshatli belgi. Ibora bazm vaqtida notanish qo`l tomonidan yozilgan devordagi noma`lum so`zlarni ko`rgan xaldeylar¹⁹ shoxi Baltazar haqidagi bibliya afsonasiga borib taqaladi. O`sha noma`lum so`z quyidagicha bo`lgan: *Mene, Mene, Tekel, Upharsin*. Bu daxshatli alomat edi. Shundan keyin tez orada Baltazar o`ldiriladi va uning hokimiyati yoqib yuboriladi. Baltazar haqidagi afsonada *the writing on the wall* so`z birikmasi qo`llanilmaydi, hattoki uning tarkibidagi *writing* so`zi *wall* so`zi kabi alohida holda ham uchramaydi. *The writing on the wall* frazeologizmidan keyin uning varianti hisoblangan *the handwriting on the wall* paydo bo`lgan.

6. Ba`zi frazeologizmlar Bibliyadagi syujetlarga borib taqaladi, lekin Bibliyada ularning prototipi bo`lmaydi.

David and Jonathan – David va Ionafan, ajaralmas do`stlar = qiyomatli do`stlar.

A dead letter – quruq siyosat; amalga oshmagan, faqatgina qog`ozda qolib ketgan ish yoki buyruq. Ibora Bibliyadan olingan quidagi parchaga asoslangan:

Who also hath made us able ministers of the new testament: not of the letter, but of the spirit: for the letter killeth, but the spirit saveth life.

A doubting Thomas – hech kimga va hech narsaga ishonmaydigan odam. Ibora xavoriylardan²⁰ biri Foma haqidagi yevangeliya afsonasidan kelib chiqqan. Afsonaga ko`ra unga chormixga tortilgan Xristning qayta tug`ilishi haqida aytilganda, u bu gapga ishonmagan.

Forbidden fruit – mamnu ne`mat, vasvasa qiladigan, lazzatli, lekin man etilgan narsa. Bibliyadagi syujetga ko`ra ibora quyidagi maqolga borib taqaladi: *forbidden fruit is sweet*. Yoki: *forbidden fruit is sweetest*. Mamnu ne`mat shirin bo`ladi.

The golden calf – oltin buzoq, pul, oltinning qudrati. Yevreylar xilvat joyga doimo piyoda toat-ibodatga borib xudo deb sig`ingan oltindan yasalgan buzoq haqidagi Bibliyadagi hikoyadan olingan. Bu buzoq Bibliyada *a molten calf* nomi bilan keladi.

A little bird told me yoki *a little bird whispered to me* = (s.t.i.) olamni mish-mish bosib ketdi, hamma joyda duv-duv gap; gap egasi bilan yurmaydi.

¹⁹ Xaldeylar – miloddan avvalgi VII asrda Yangi Bobil davlatini tashkil etgan somoniylar qabilasi.

²⁰ Xavoriy, apostol – Isoning afsonaviy o`n ikki shogirdidan biri.

Curse not the king, no not in the thought ... for a bird of the air shall carry thy voice, and that which hath wings shall tell the matter.

Navbatdagi misollar bu frazeologik birikmaning hayotda qanday qo'llanilishini namoyon etadi:

He has so wanted to have a son himself. A little bird has always told me that.

J. Glasworthy

Mrs Shuttleworth: a little bird has whispered to me that the Government intends to show its appreciation to your great services in the next Honours List.

W.S. Maugham

Hide one's light under a bushel – yerdagi iste'dodini juvonmarg qilmoq. Frazeologik birikma frazeologizmning tarkiblari barcha tarkiblari turli joylardan yig'ib olingan quyidagi kinoyaga asoslangan:

You are the light of the world. A city that is set on an hill cannot be hid.

Neither do men light a candle, and put it under a bushel, but on a candlestick; and it giveth light unto all that are in the house.

Let your light so shine before men, than that may see your good works ...

A fly on the ointment – bir qoshiq qatron bir bochka as alga tatiydi, bir qoshiq qatron bir bochka asalni buzadi, bir qozon asalu, bir qoshiq zaxar. Ibora quyidagi kinoyali qochirimga asoslangan:

Dead flies cause the ointment of the apothecary to send forth a stinking savour; so doth a little folly him that is in reputation for wisdom and honour.

The massacre of the innocents yoki *the slaughter of the innocents* – yosh tajribasiz hodimlarga nisbatan ortiqcha talabchanlik, shavqatsizlik. Ibora Iudeya qiroli Irod sehrgarlardan Iudeyaning yangi hukmdori, ya'ni Iisusning tug'ilishi haqida bilgandan keyin, uning buyrug'iga ko'ra Vifleymdagi barcha yoshlarni o'ldirilishi haqidagi yevangeliya hikoyasidan kelib chiqqan. Bu hikoya o'zida iboraning hech bir so'zini o'zida saqlamagan.

(as) poor as Job [djoub] – qovog'idan qor yog'moq

A prodigal son va *a prodigal* – noqobil farzand, oqpadar.

7. So'z o'yinlari natijasida yoki bibliya iboralari bilan o'xshashligiga ko'ra qurilgan frazeologizmlar.

The light of one's countenance – moyillik, iltifotli e'tibor. Ibora Bibliyadagi ibora bilan o'xshashligiga asoslangan: tangri jamolining nuri.

Lord, lift thou up the light of thy countenance upon us.

The land of Nod – tush qirolligi. Ingliz tilida nod so'zi asosaiga qurilgan so'z o'yini mavjud.

Nod – mudroq.

Nod – Nod yerlari. Aveliyaning o`limidan keyin Kain badarg`a qilingan Bibliyadagi joy nomi. Svift kiritgan ibora quyidagicha:

Go into the land of Nod [24;50] – uyquga ketmoq... .

Bibliyadan olingan frazeologizmlarning hozirgi zamon ingliz tilida ishlatilayotgan frazeologizmlar bilan o`xshashligi hususida

Bibliyadan olingan frazeologizmlar hech qanday o`zgartishlar kiritilmagan qotib qolgan sitatalar hisoblanmaydi. Zamonaviy ingliz tilida ularning ko`pi variantlar bilan qoplangan, turli yangicha ko`rinishlarga ega bo`lgan, ulardan iboraning yasalishlari haqida ma`lumot olish mumkin.

Quyida Bibliyadan olingan frazeologik birikmalarga o`xshash misollar keltiramiz. Qavs ichida iboraning variantlari beriladi.

Cast in one`s lot with somebody (throw in one`s lot with somebody) - biror kimsa bilan taqdirini bog`lamoq, birovning qismatiga sherik bo`lmoq.

Proclaim from the housetops (cry(shout) upon the housetops) – hammaga eshittirib ma`lum qilmoq, jar solmoq.

A drop in the bucket (a drop in the ocean) – dengizdan tomchi.

The land of promise (the promised land) – jannatmakon yer.

*Strengthen somebody`s hand (hands) = strengthen the hand (hands) of somebody* – mavqeini mustahkamlamoq; yordam berayotgandek ko`rinmoq.

Variant frazeologizmning qisqarishidan paydo bo`lishi mumkin.

The voice of one crying in the wilderness – bekor ketgan urinish, behuda harakat, hech kim quloq solmagan gap, hech qo`llab-quvvatlamagan gap.

Bibliyadan olingan qisqartirilgan frazeologizmlarga keltirilgan misollar bir ma`noli va ko`plab variantlarga ega iboralar sifatida hizmat qilishi mumkin.

The crumbs which²¹ fell from the rich man`s table=crumbs from the rich man`s table=crumbs from the table - boylarning sarqitlari. Bibliyada bu ibora so`zma-so`z ma`nosida ishlatiladi.

And desiring to be fed with the crumbs which fell from the rich man`s table

Bibleizmlarning yangilanishi va ta`sirchanlik bo`yoqdorligining o`zgarishi

Biz yuqorida bibleizmning ta`sirchanlik bo`yoqdorligining o`zgarishiga bir misol keltirgan edik: *not to let one`s left hand know what one`s right hand does*. Lekin bu bibleizmda

²¹ Zamonaviy ingliz tilida *which* o`rniga *that* ishlatilishi mumkin.

eskirgan shakllari zamonaviylashtirilgan. Ta'sirchanlik bo'yoqdorligining o'zgarishi uning shakli o'zgarishsiz ham bo'lishi mumkin.

Filthy lucre iborasi ingliz tilida ironiya yoki hazil ibora tarzida qo'llaniladi va stilistik sohada ahyon-ahyonda yangilanishga uchrashi mumkin. Frazeologizmning shaklan o'zgargan ko'rinishda ishlatilgan quyidagi birikmani misol tarzida keltiramiz:

Strain at a gnat and swallow and a camel – (s.s.) chivinni suzib olmoq va tuyani yutib yubormoq; mayday-chuydalarga e'tibor berib asosiysini nazarga ilmaslik.

Factor said in effect: "I will swallow all the camels you have said about me, but I strain at this gnat." *Times*

Shu bilan biz ingliz tilidagi frazeologizmlar uchun Bibliya qanday manbaa ekanligi haqida beriluvchi savollarga bildirilgan qisqacha mulohazalarimizni yakunlaymiz.

Turli xil tillardan o'zlashgan frazeologik birikmalar

Ingliz tilidagi frazeologizmlarning eng ko'pi antik mif, tarix va adabiyotlar bilan bog'langan. Bunday frazeologizmlarning ko'pi xalqaro harakterga ega bo'lib, ularni qator tillarda uchratish mumkin.

Quyidagi iboralar antik miflardan kelib chiqqan, masalan:

Achille's heel yoki *the heel of Achille's* – Axilles tovon; yagona zaif tomon, joy.

The apple of discord – janjalga sabab bo'lgan narsa, adovatga sabab bo'lgan narsa.

Augean stable(s) – Avgiy otxonasi; otbozor (juda iflos itirqini joy yoki juda chalkash, betartib ish). Ibora Yunoniston podshohi Avgiyning 30 yil tozalanmagan otxonalari haqidagi afsonadan kelib chiqqan.

The bed of Procrustes shuningdek *the Procrustean bed* yoki *Procrustes' bed* – Prokrust to'shagi; to'g'ri kelsa-kelmasa hammasini zo'rma-zo'raki bir andozaga solish.

*Cassandra*²² *warnings* – (k.u.) mensilmayotgan, lekin ayni vaqtda sodir bo'layotgan biror voqea haqida ogohlantirish.

*Cross the Stygian*²³ *ferry* – (k.u.) Stiksdan keyin o'tmoq; ota-bobolari oldiga jo'namoq, o'lmoq, vafot etmoq, qazo qilmoq, olamdan o'tmoq, ko'z yummoq, jon bermoq.

Fling (yoki *throw*) *a sop to Cerberus* – (k.u.) Serberning ko'nglini ovlamoq, Serberning og'zini moylamoq, qahri qattiq soqchini rahmini keltirmoq. Ibora Virgiliyadan olingan.

²² Cassandra – bashoratchilik qobiliyati in'om etilgan Troya qirolichasi.

²³ Stiks – o'liklarning ruhlarini yer osti hukmronligiga o'tkazib qo'yuvchi yerosti daryosi.

The golden age – oltin asr. Ibora birinchi marta yunon shoiri Gesiodning “Mehnatlar va Kunlar” sheʼrda uchragan. Sheʼr Saturn davrida yozilgan boʻlib, bu davrda odamlar hudolardek tashvishsiz, janjalsiz, urushsiz, ogʻir majburi mehnatlarsiz yashashgan.

The horn of plenty – osmondan yogʻilgan, juda serob, moʻl-koʻl.

A labour of Hercules (the labours of Hercules) – pahlavonlar mehnati, azamatlar ishi, gʻoyat qiyin ish. Bu ibora yana quyidagi koʻrinishlarda ishlatiladi: *a Herculean labour, Herculean labour*.

A labour of Sisyphus (a Sisyphean labour) – tinimsiz ogʻir va befoyda ish.

Lares and Penates – (k.u.) oʻz uying - oʻlan toʻshagging. Lar va Penat qadimgi rim miflarida uy oʻchoqlarining homiylari boʻlishgan.

Hercules` Pillars yoki *the Pillars of Hercules* – 1) chek, chegara, had. Qadimgi odamlar nazarida Gibraltar boʻgʻozining qirgʻoqlarida qarama-qarshi joylashgan ikki qoya, yaʼni hozirgi kundagi Gibraltar va Seuta qoyalari qadimgi xalqlar yashovchi quruqliklar tugaydigan joyni bildirgan; 2) (k.m.) qadimgi yunon afsonasiga koʻra Gerakl butun Yevropa va Afrikaning Liviya davlatidan toʻxtovsiz yurib oʻtgan va oʻz sayohatining estaliklari sifatida Gerkules ustunlarini qoʻyib chiqqan.

Rise like a phoenix from its ashes – (k.u.) kuldan qaqnus yaralgandek.

Sow dragon`s teeth – (k.u.) ajdar tishlarini ekmoq; nizo urugʻini sochmoq, urushga chaqirmoq, jangga chorlamoq.

The thread of Ariadne – (k.u.) mushkul, ogʻir ahvoldan qutulish imkonini beradigan, mushkulini oson qiladigan narsa haqida yoʻl-yoʻriq, koʻrsatma, dastur. Krit oroli Ariadnning qizi yunon qaxramoni Tezeyaga uni labirintdan chiqib ketishi uchun unga kalava ip berib yordam qilgan.

Yunon mifologiyasidan olingan tushunilishi oson boʻlgan iboralarning qiziqarli misollaridan biri *Castor and Pollux* hisoblanadi. Bu frazeologizm Elma bilan bogʻliq chiroqlar, machta uchidagi chiroq, atmosfera elektrining paydo boʻlishi (yashin, chaqmoqlar haqida). Ibora yunon mifologiyasidagi Ledning egizak oʻgʻillari Kastor va Polluks ismlaridan olingan.

Gomerning “Illiada” va “Odissey” asarlari bilan bogʻliq iboralar:

Between Scylla and Charybdis – Silla va Xaribdis orasida; qiyin ahvol, chorasiz ahvol.

Homeric laughter – qah-qah urib kulish, qattiq kulgu, qah-qaha. Ibora Gomerning boylar ustidan kulish bayoni bilan bogʻliq.

On the knees of the Gods – yolgʻiz hudoga ayon.

Penelope`s web – Penelopa rejalari; uzaytirish, choʻzish taktikasi.

Winged words – barqanot iboralar, ogʻizdan-ogʻizga oʻtib keng tarqalgan soʻz va iboralar, hikmat va matallar.

Gomerning “Illiada”sida va keyinchalik Virgiliyaning “Eneida”sida Troyaning jasur himoyachilaritarannum etilgan. Shunday iboralardan:

Like a Trojan – mardlik, jasorat, qahramonlik. Boshqa Troya urushi bilan aloqador ibora quyidagicha:

The Trojan horse – Troya oti, yashirin xavf.

L.P.Smit oʻz ilmiy asarida qadimgi yunon va rim adabiyoti bilan bogʻliq qator iboralarni keltirgan va koʻp hollarda bu iboralarning mualliflarini koʻrsatib oʻtgan. Quyida oʻzimizning qoʻshimchalarimiz bilan eng keng yoyilgan iboralardan bir nechtasini keltiramiz.

Yunon tarixi va adabiyotidan olingan iboralar:

Appeal from Philip drunk to Philip sober – oʻylamay qabul qilingan qarorni qaytadan koʻrib chiqishni soʻramoq.

The Gordian knot – chigal masala, mushkul ahvol: turli holatlarning chigal bogʻlanishi. Odatda biz bu iborani quyidagi koʻrinishlarda uchratamiz:

Cut the Gordian knot yoki *cut the knot* – chigal masalani yechimini topmoq; = kalavanning uchini topmoq.

Quyidagi ibora Afina qonun chiqaruvchisi Solonga tegishli:

The unwritten law – yozilmagan qonun.

Platonning falsafiy asarlaridan keltirilgan iboralar:

Hand on the torch – (k.u.) oqillik, bilimlar mashʼali harakatini uzatib turmoq.

Platonic love – ilohiy ishq, sof muhabbat.

Beg the question – (k.u.) isbotsiz, oʻz xulosasidan kelib chiqib oʻzi istagancha boshlamoq. Ibora Aristotelga tegishli; u oʻz asarlarida quyidagi yunon maqollarini ham keltirib oʻtadi:

*One swallow does not make a summer*²⁴ = kuch – birlikda.

There is many a slip twixt the cup and the lip – irgʻib oʻtmay “xoʻp” dema, oldindan hovliqma, tugʻilmagan buzoqqa qoziq qoqma.

The smell of the lamp – (s.s.) chiroq hidi (birikmada yozuvchi oʻz asarini yozayotganda unga nur taratayotgan lampadagi moy hidi haqida soʻz bormoqda); zoʻrma-zoʻraki, sunʼiy.

Know where the shoe pinches – ishkallik nimadayu, muhtojlik nimadaligini bilmoq. Yuqoridagi iboralar Plutarxning asarlari orqali mashxur boʻlgan.

Call a spade a spade – oʻz ismini karomatli deb bilmoq. Iboraning boshlanishidan notoʻgʻri ekanligini koʻrish mumkin, lekin Erazm Rotterdamsk Plutarxning matallarini dalil

²⁴ Maqol Aristotelgacha uzoq vaqt davomida muomalada boʻlgan va Ezop masallaridan biriga borib taqaladi. Yunon tilida, shuningdek rus tilida, bu maqolda “bahor” soʻzi ishlatiladi. Bu maqol boshqa tillarda quyidagi koʻrinishlarga ega:

Fr. *Une hirondelle ne fait pas le printemps*

Nem. *Eine Schwalbe macht noch keinen Sommer*. Sommer soʻzi oʻrnida *Frühling* soʻzi boʻlishi mumkin.

sifatida keltirish orqali muvaffaqiyatga erishgan. Plutarx iboraning quyidagi tarjimasidan foydalangan: tog`orani tog`ora demoq.

Misr hukmdorlaridan biri Ptolomey Filadelfu qadimgi buyuk matematik Yevklidga geometriyani tez o`rganish istagi borligini va bu istagini Yevklid amalga oshirishi kerakligini aytganda, u bunga javoban bizgacha yetib kelgan quyidagi ko`rinishdagi ibora bilan javob bergan: *there is no royal road to geometry*.²⁵

The dog in the manager – pichan ustidagi it. Ibora Lukianga tegishli.

Yunon tilidan kelib chiqqan iboralar:

*Burn one`s boats* – o`z kemasiga o`t qo`ymoq, shuningdek qo`shinning chekinayotgan qismini ajratib olmoq. Ibora bizgacha Plutarxning asarlari orqali yetib kelgan.

Leave no stone unturned – barcha vositalarni ishga solmoq, barcha vositalardan foydalanmoq, barchasini ishga solmoq, barchasini yurgizmoq, barchasini yurishtirmoq.

Write in water - (k.q.i.) bekordan bekorga mehnat qilmoq.

Take the wolf by the ears – o`zini qiyin va xavfli vaziyatda qoldirmoq.

L.P.Smit Ezop va boshqa yunon ertak masallaridan keltirilgan qator iboralarni sanab o`tgan. O`zimizning qo`shimchalarimiz bilan quyida bir nechta iboralarni misol tariqasida keltirib o`tamiz:

Blow hot and cold – hardamhayol bo`lmoq, biri ikkinchisini rad etuvchi ish qilmoq, ikki xil vaziyatda qolmoq; fikri tez o`zgaradigan bo`lmoq, tayini yo`q bo`lmoq, tutruqsiz bo`lmoq. Ibora Ezop masallaridan biriga borib taqaladi. Unga ko`ra bir sayyoh ham qo`llarini isitish, ham sho`rvasini sovutish maqsadida ularni puflagan.

Kill the goose that laid (yoki lays)the golden eggs – (s.s.) tilla tuxumni ko`tarib turgan g`ozni o`ldirmoq = o`z oyog`iga o`zi bolta urmoq, o`ziga o`zi choh qazimoq.

Cry wolf too often – yolg`on trevoga ko`tarmoq. Ibora *cry wolf* ko`rinishida ham keladi. Ibora cho`pon haqidagi iboradan olingan. Unga ko`ra cho`pon vaqtichog`lik qilish maqsadida “Bo`ri!, Bo`ri!” deb baqirib odamlarni aldagan.

*The lion`s share* – tuyadek ulush, eng ko`p qism.

Sour grapes – hom uzum. Ibora biror kimsaning boshqalarga tanbeh berishda tengsiz ekanligini aytish uchun qo`llaniladi.

*Cherish (nourish yoki warm) a viper in one`s bosom* – qo`ynida ilon saqlamoq.

Take time by the forelock – qulay fursatdan foydalanib qolmoq, ovsarlik qilmay fursatni qo`ldan boy bermaslik. Ibora eramizdan avvalgi I asrda yashagan Rim masalchisi Fyodrnning masallaridan olingan.

²⁵ Hozirgi tilda bu iboradagi *geometry* so`zi o`rniga ibora ma`nosiga mos tushuvchi har qanday ot so`z turkumidagi fe`l bilan almashtirilishi mumkin. Boshqa manbalarga ko`ra bu ibora qadimgi masalga borib taqaladi.

Biz yuqoridagilarga Ezop masallaridan keltirilgan bir qancha iboralarni qo`shishimiz mumkin.

An ass in a lion`s skin – arslon terisidagi eshak.

A fly on the wheel – biror ishga o`z munosabatini bo`rttirib ko`rsatuvchi odam = bu yoqda biz ham bormiz! Bizni sedan chiqarmang! Ibora Ezop masallaridan olingan. Ingliz tiliga Lafontemning “*Le Coche et la Mouche*” (Dilijans<sup>26</sup> va Pashsha) masalidagi *la mouche du coche* dan o`zlashtirilgan.

King Log – (k.q.i.) to`nka qirol (befahm, befarosat qirol)

King Stork – (k.q.i.) zolim hukmdor, zulmkor. Ibora baqalarni boshqarish uchun laylakni yordamga chaqirgan baqa haqidagi masaldan olingan.

The mountain has brought forth a mouse – tog` sichqonni yaratdi. Ibora Ezop masalidan olingan bo`lib, Fyodr uni qayta ishlagan.

The tortoise wins the race while the hare is sleeping – toshbaqa quyon uxlab yotgandagina poygada g`olib bo`ladi.

Qadimgi yunon va rimliklar tinchlik ramzi musobaqasidagi g`olibga ishonchlari yoki unga gulchambar taqishlari bilan bog`liq iboralar:

Bear (carry off yoki take) the palm – musobaqada birinchilikni egallamoq, g`alaba qozonmoq.

Yield the palm to somebody – musobaqa birinchiligidan voz kechmoq, mag`lubiyatni tan olmoq.

*Reap (yoki win) one`s laurels* – g`alaba tojini qo`lga kiritmoq, shon-shuhratga erishmoq.

*Rest on one`s laurels* – erishilgan yutuqlardan mag`rurlanmoq, hotirjam bo`lmoq, hotirjamlik kayfiyatiga tushmoq.

Ingliz tilidagi ko`plab frazeologizmlar Qadimgi Rim bilan aloqador. Masalan:

A bed of roses – atirguldan to`shak, baxtli, tinch hayot. Ibora odatda bo`lishsiz gaplarda ishlatiladi, masalan: *life is not a bed of roses*. – Hayot yo`llari atirgullar bilan qoplanmagan. Bu ibora Qadimgi Rimda o`z yotoqlarini atirgul gulbarglari bilan to`ldirgan boylarning odati bilan bog`liq.

*Caesar`s wife must (yoki should) be above suspicion* – Sezarning hotini shubhadan holi bo`lishi shart. Bu iboradan *Caesar`s wife* frazeologizmi ajratib olingan.

*Caesar`s wife* – (s.s.) Sezarning hotini; shubhalanmaslik shart bo`lgan inson.

Cross (yoki pass) the Rubican va *the die is cast* – masala hal, gap tamom, bo`lari bo`ldi, boshqa gap yo`q. Iboralar Sezar yurishlari bilan bog`liq.

²⁶ Dilijans – xat, pochta va pasajjirlarni tashuvchi arava.

A Lucullian banquet (yoki *feast*) – zo`r ziyofat, shohona bazm, bazmi Jamshid, dabdabali bazm. Ibora dabdabali ziyofatlari bilan dong chiqargan Qadimgi Rim zodagoni Lukullaning ismiga asoslangan.

Fiddle while Rome is burning – xalqning musibatli davrida ko`ngilhushlik qilmoq, = kimga to`y kimga aza. O`zining qattiqqo`lligi bilan nom chiqargan Rim imperatori Neron o`zining buyrug`iga asosan o`t qo`yilgan Rimga qarab she`r to`qib, kefar chalib yonayotgan Rimni tomosha qilib o`tirgan.

Be (turn) thumbs down (on) – qarshi bo`lmoq, ta`qiqlamoq.

Be (yoki turn) thumbs up (on) – tarafdor bo`lmoq, rag`batlantirmoq. Yengilgan gladiatorning taqdirini imperator barmog`ining harakati hal qilgan: bosh barmoqni pastga tushirish – o`limni, bosh barmoqni yuqoriga ko`tarish – tiriklikni anglatgan.

Come the uncle over somebody – so`kmoq, biror kimsaning yaqin qarindoshini haqorot qilmoq (yaqin qarindoshidan kelib so`kmoq); o`z jiyanlarini vasiylikka qoldirgan amaki. Ibora qattiqqo`llik namunasi sifatida ishlatilgan Qadimgi Rimdagi maqoldan kelib chiqqan, masalan:

Ne sis patruus mini – meni so`kish (jazolash) uchun o`z huquqingni suiste`mol qilma.

A Roman holiday – boshqalarning azobi hisobiga kelgan hursandchilik. Qadimgi Rimda bayram kunlarida gladiatorlar jangi uyushtirilgan.

The watches of the night – (k.u.) aniq vaqt; tunggi bedorlik, uyqusizlik soatlari. Qadimgi Rimda tun bir necha qismlarga ajratilgan va har bir qismga soqchi tayinlangan. Soqchi lotin tilida *vigilium*, ingliz tilida *watch* deyiladi, navbatchi soqchilar esa *the first watch, the second watch* va hokazo deb atalgan.

Ba`zi frazeologizmlar Qadimgi Rim yozuvchilarining ijod namunalaridan olingan:

A snake in the grass – makkor, mahfiy dushman = ilonday qo`yinga kirib oluvchi odam, makkor, xavfli odam; lot.: *latet anguis in herba* – o`tloqda yashiringan ilon. (Vergiliy)

The golden mean – beg`alva ish, qiyinchilik tug`dirmaydigan, jon koyitmaydigan ish, ishning tinch tomoni; lot.: *aurea mediocritas* (Goratsiy).

*Fire that`s closest kept burns most of all* – yashirin olov kuchli yonadi. Ibora odatda tushkun his-tuyg`ular haqida gapirilganda ishlatiladi. Ovidiyning “Metamorfoz” asaridan sitata: *quoque magis tegitur, tectus magis aestuat ignis* – yong`inni qancha ko`p dimlasang, shuncha ko`p lovullab yona boshlaydi.

The sinews of war – (k.u.) pul, janglarni harakatga keltiruvchi kuch. Lot.: *nervi belli percuria* (Sitseron).

Ingliz tilidagi ko`plab frazeologizmlar lotin tilidan fransuz tili orqali o`zlashtirilgan. Lekin mavjud frazeologizmlar esa lotin tilidan hech qanday yordamchi til vositachiligisiz, ya`ni

fransuz tilidan foydalanilmasdan o`zlashtirilgan. Bu jumlani o`sha iboralar fransuz tilida ishlatilmasligi bilan isbotlashimiz mumkin.

Anger is a short madness – g`azab – uzoq davom etmaydigan aqlsizlik. Lot.: *ira furor brevis est* (Goratsiy).

Forewarned, forearmed – oldindan ogohlantirish – oldindan qurollanish, kim ogohlantirilgan bo`lsa, o`sha qurollangan. Lot.: *praemonitus, praemunitus*.

Homer sometimes nods – har kim adashishi mumkin = har qanday dono ham adashadi. Lotincha: *indignor, quandoque bonus dormitat Homerus* – Dono Gomer mudrab qolgandek men ham har gal o`kinchni his qilaman. Yoki, Dono Gomer xato qilgani kabi men ham har gal achinishni boshdan kechiraman. (Goratsiy)

Kings go mad and the people suffer for it – qirollar aqldan ozadi, xalq esa bundan aziyat chekadi; lot.: *delirant reges, plectuntur Achivi* – qirollar aqldan ozadi, yunonlar esa bundan qiynaladi. (Goratsiy)

Like cures like = achchiqni achchiq kesadi, zaxarni zaxar kesadi, nimaga urilsang o`sha davolaydi; lot.: *similia similibus curantur*.

One fool makes many = ahmoqlik – yuqumli kasallik, og`ayning ola qarg`a bo`lsa yemishing go`ng, qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi, siniqdan boshqa hammasi yuqadi; lot.: *unius dementia efficit multos*.

III.3. Frazologik birikmalarni ingliz tilidan o`zbek tiliga o`girish muammolari va o`qitish texnologiyalari

Odatda erkin birikmalarni tarjima qilish muammo tug`dirmaydi. Agar erkin birikmalardagi so`zlardan biri ko`chma ma`noda qo`llansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarining bir nechta turi mavjud bo`lib, ularning har-birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi. Birinchi turdagi so`z birikmasi *sifat+ot* turi. Ularning semantik strukturasi bir-biridan katta farq qiladi. Bu birikmada qo`llanilgan otning xususiyatini va sifatini belgilaydi. Agar ingliz tilidagi *free educational institution* birikmasidan *free* so`zi *institution* so`zi bilan aloqasi yo`q, bu degani ba`zi hollarda sifatlar otning xususiyatlari va sifatidan tashqari u bilan bog`liq tushunchalarni ham ifodalashi mumkin. Yana bir misol: ingliz tilidagi *a medical man* birikmasini tarjima qilishda *a stout person* birikmasini tarjima qilishda qo`llangan usuldan foydalanib bo`lmaydi. Ingliz tilidagi *a stout person* o`zbek tiliga *to`ladan kelgan* yoki *semiz odam* deb tarjima qilinadi. Ingliz tilidagi *a medical man* birikmasini o`zbek tiliga tarjima qilishda so`zma-so`z tarjima to`g`ri kelmaydi. Bu yerda ikki so`z bitta ma`noni ifodalaydi va *shifokor* deb o`giriladi. O`zbek tilida ham bunday bitta ma`noni ifodalovchi birikmalarni ko`plab uchratishimiz mumkin. Masalan: *tog` qo`yi, malla sochli, devor soati* va hokazo. Bir otni bir

necha sifat aniqlab kelishi mumkin bo'lgan hollar ham uchraydi. Bunda aniqlanmish bo'lib ot kelishi mumkin. Masalan, *temir xotin*, *ichkari uy kaliti* kabilar.

Ingliz tilida aksariyat hollarda otlarni aniqlab kelgan so'zlarni (bular ot ham, sifat ham bo'lishi mumkin) qaysi biri ekanligini aniqlash mushkul bo'ladi. Masalan, *retail philanthropy business* birikmasi nima ma'no anglatganini bir qarashda anglash oson emas, chunki uni ikki xil tushunish mumkin. O'zbek tilida bunday hollar deyarli uchramaydi.

Ingliz iboralarining yana bir xususiyati otni aniqlab kelgan sifat tushirib qoldirilgan hollar ham uchraydi. Masalan, *dry pruning* iborasini olsak. Bu iboraning so'zma-so'z tarjimai *quruq butash* bo'ladi. So'z birikmasining ma'nosi *daraxt shoxlari quruq bo'lgan paytda qilingan butashni* ifodalaydi.

Tarjima jarayonida so'z birikmalarining semantik hamda tuzilish xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bunda birinchi navbatda otni tarjima qilib olish tavsiya etiladi, chunki qanday aniqlanmish qo'llanmasin hammasi otni aniqlab keladi va ot gapda eng muhim ma'noni ifodalaydi. Tarjimonning keyingi vazifasi gapdagi ma'no guruhlarini ajratib olish hisoblanadi. Gapning ma'no guruhi ajratib olingach, ot va sifat o'rtasidagi grammatik aloqalar turi aniqlanadi. Otdan oldin kelgan so'z va so'zlar, uni aniqlab keladi, ularni agar gap ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinsa, uni o'zbek tili grammatikasi qoidalariga asosida va aksincha, agar gap o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinsa, ingliz tili grammatikasi normalariga asoslanib tarjima qilinadi. Aksariyat hollarda ingliz va o'zbek tili erkin birikmalarning tarkibi ikki tilda ham mos kelishi mumkin:

Strategic Arms Limitation Treaty – Strategik qurollarni cheklash shartnomasi.

Bunday tarkibda aniqlovchi bo'lgan iboralarni tarjima qilishning bir necha usuli mavjud:

1. Ingliz tilidagi ot oldidan kelgan aniqlanmish o'zbek tilida ham shu tartibda tarjima qilinadi: *a cheap ticket* – arzon chipta, *an expressive word* – ifodali so'z.

2. Ingliz ot+ot shaklida kelgan ibora ham huddi yuqoridagidek tarjima qilinadi, bunda o'zbek tilidagi iboraga bir nechta ibora to'g'ri kelishi mumkin: *opposition leader* – muxolifat lideri, muxoliflar lideri, oppozitsiya lideri.

3. Otni aniqlab kelgan inglizcha iboralar o'zbek tiliga bog'lovchilar yordamida tarjima qilinadi: *youth unemployment* – yoshlar o'rtasidagi ishsizlik.

4. Ingliz tilidagi aniqlanmish va ot o'zbek tiliga izohlovchi orqali tarjima qilinishi mumkin: *his millionaire friend* – uning millioner do'sti.

5. Ba'zan ingliz iboralaridan bir qismi tasviriy yo'l bilan, ya'ni bir necha so'z yordamida tarjima qilinishi mumkin: *a bargain counter* – narxi tushurilgan mollar do'koni.

6. Ingliz tilining tarkibida aniqlovchi boʻlgan iboralarni tarjima qilishda aksariyat hollarda ibora tarkibidagi muayyan soʻzni yoki otni boshqa otga oʻzgartirish zarur va tavsiya etiladi. Masalan, *free educational institutions* oʻzbek tiliga bepul oʻqiladigan oily oʻquv yurtlari deb tarjima qilinishi lozim, chunki *free* soʻzi *institutions* otini emas, balki *educational* soʻziga aloqasi bor. Huddi shu fikr *Parliamentary Labour Party* birikmasiga ham aloqador. Bu iborani oʻzbek tiliga Leyboristlar partiysining parlament fraksiyasi deb tarjima qilish oʻzbek tili grammatikasining qoidasiga toʻliq muvofiq keladi.

Tarjimani toʻliq berish maqsadida baʼzi hollarda aniqlovchini ayni shu gapda qoʻllangan boshqa ot bilan tarjima qilish maqsadga muvofiq boʻladi. Misol tariqasida *dismal array of titles* birikmasini koʻrib chiqaylik. Bu iborani oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilish maʼnoga putur yetkazadi, shuning uchun uni *dismal* soʻzining aniqlovchisi *titles* otini emas, balki *array* otini aniqlab kelganligi uchun birikmani *eng yomon (eshitiladigan yoki quloqqa yoqmaydigan) laqablar yigʻindisi* deb tarjima qilishga tarjima qilishga toʻgʻri keladi.

7. Aksariyat hollarda ingliz tilidagi aniqlanmishli iboralar oʻzbek tiliga ravishli iboralar bilan tarjima qilinadi:

to be

to have

to give + *A* + *N phrase*

to take

Yuqoridagi namunalarga quyidagi misollarni keltirish mumkin: *to have a good sleep* – yaxshi tiniqib uxlamok, *to take a deep breath* – chuqur nafas olmok, *to give a loud whistle* – qattiq hushtak chalmok, *to have a good lunch* – yaxshi, mazali taom yeb tushlik qilmok va shu kabilar.

8. Ingliz tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilishda shunday hollar uchraydiki, turli ekstrolingvistik omillar taʼsirida tarkibida feʼlli iboralar mavjud gaplar va ularning tuzilishi butunlay oʻzgarib ketadi. Masalan, “*He had “I don’t know expression” in his face.*” – Uning yuzi, hech narsa bilmasligini ifodalab turardi.

Bu borada O.V.Petrova shunday deb yozadi: “tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari oʻrtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma hamda tarjima tilidagi soʻz birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi.”(O.V.Petrova. 2006, 18)

Ingliz tilining oʻziga xos aniqlovchi va aniqlanmishdan tashkil topgan iboralari mavjud boʻlib, ular ichki predikatsiyaga ega. Ularning tarjimasini asosan iboralarning stilistik xususiyatlariga bogʻliq. Agar bunday aniqlovchilar yoyiq va koʻp qismdan tashkil topgan boʻlsa, ular odatda oʻzbek tiliga toʻldiruvchi ergash gaplar yordamida tarjima qilinadi. Aniqlanmishli ibora tarkibidagi ot xususiyatini ifodalovchi soʻzlar boʻlgan hollarda esa ular bitta ot orqali

tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo`ladi: *a gra-it-and-run ... counter* – yo`l-yo`lakay kirib ketiladigan mayxona yoki gazakxona.

Turg`un birikmalarni tarjima qilish erkin birimalarni tarjima qilishdan farq qiladi. Turg`un birikmalar tarjimasi haqida gapirishdan avval ularning o`z va ko`chma yoki obrazli turlarini farqlab olish lozim. O`z ma`nosida qo`llangan turg`un birikmalarni tarjima qilish yuqorida fikr yuritilgan prinsiplarga asoslanadi. Eng muhim prinsiplardan biri – tarjima til normalarini unutmaslik hisoblanadi.

Ko`chma yoki obrazli turg`un birikmalar tarjimasi alohida e`tiborni talab etadi. Bunday iboralarining asosiy xususiyati ularning komponentlari yig`indisidan anglab olish qiyinligi bilan xarakterlanadi. Turg`un birikmalar ma`nosi alohida olingan so`zlardan emas, balki ularning yig`indisidan kelib chiqadi. Obrazga asoslangan turg`un birikmalar matnni ifodali hamda stilistik jihatdan bo`yoqdor bo`lishini ta`minlaydi. Asliyat matnining bo`yoqdorligi tarjimada ham o`z aksini topishi va ifoda vositalarining to`liq saqlanishini talab etadi. Tarjimon matnning ifodali va bo`yoqdorligini ta`minlash maqsadida tarjima matnida ham adekvat va obrazli turg`un birikmalarning variantini topishi lozim bo`ladi.

Tarjima nazariyasi bo`yicha nashr etilgan adabiyotlarda bunday birikmalarni tarjima qilishning to`rtta usuli borligi haqida ma`lumot beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) obrazni qanday bo`lsa shundayligicha saqlash;
- 2) obrazni qisman o`zgartirish;
- 3) obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish;
- 4) tarjimada butunlay obrazni saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish.

1. Odatda universal yoki internatsional obrazlar tarjimada to`liq saqlanadi. Bunday frazeologik birikmalar tarixiy, afsonaviy, diniy, mistik, mifologik va shu kabilarga asoslangan bo`ladi. Masalan, *in the seventh heaven* – yettinchi osmonda. Bunday frazeologik birikmalar asliyatning tarjima tilidagi ekvivalentlari deb ataladi. Tarjimada to`liq ekvivalentga ega frazeologik birikmalar deyarli hech qanday muammo tug`dirmaydi, chunki ular stilistik hamda pragmatik jihatlardan bir xil qiymatga, ma`noga, ifoda usuli va ta`sir kuchiga ega bo`ladi.

Ba`zan asliyatdagi obrazli frazeologik birlikni tarjima tilida muqobili bo`lmasa ham saqlab qolish imkoniyati bo`ladi. Bunga kalkalash yo`li bilan erishish mumkin. Masalan, *nothing comes out of the sack but what was in it* – qopda nima bo`lsa, shu chiqadi yoki qozonda boric ho`michga chiqadi. Bu usul obrazli frazeologik birlikning ma`nosi shaffof bo`lgan taqdirda, ya`ni uni hamma oson tushungan holdagina qo`llash mumkin. Frazeologik birikmalar tarkibidagi so`zlar ko`chma ma`noda qo`llanilgan bo`lsa-da, ularning lug`aviy ma`nosi aniq bo`lsa, uni tarjima qilishda kalkalashdan foydalanish matnni, matndagi informatsiyani hamda matndagi g`oyani tushunishni osonlashtiradi, tarjima muqobilligini ta`minlaydi. Kalkalash aksariyat

hollarda obrazli frazeologik birikmalarni oddiy frazeologik, ya'ni erkin birikmalarga aylantirib qo'yadi. Bu usulning qanchalik to'g'ri tanlanganligini tarjima sifati ko'rsatadi. Aksincha, frazeologik birikma tarkibida qo'llangan so'z ma'nolari shaffof bo'lmasa, kalkalash usulidan foydalanish matnda qo'llangan ko'chma ma'noli so'zlarni qisman, ba'zan esa to'liq tushunmaslikka olib keladi. Masalan, ingliz tilidagi *to send somebody to Coventry* turg'un frazeologik birligini tushunish uchun undagi so'zlar ma'nosi yoki ma'nolar yig'indisi yetarli bo'lmaydi, chunki bu frazeologik birlik na *yubormoq* va na *Koventri* so'zining ma'nosiga bog'liq. Bu iboraning tarjimasini *baykot qilmoq* fe'liga to'g'ri keladi.

2. Aksariyat hollarda asliyat va tarjima tillarida bir xil fikr ifodalanadi, biroq ular obrazlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ularning har ikkisi bir xil ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Bunday hollarda obrazlar o'rtasida mavjud ozgina farq hisobga olinmasligi lozim. Bunda tarjima qilinayotgan frazeologik birlikdagi obraz tarjimada ba'zi bir aniqroq aytadigan bo'lsak, qisman o'zgarishga uchraydi. Shunday bo'lsa-da tarjima adekvat hisoblanadi: *a fine suit does not make a gentleman* – kiyim odamni bezamaydi, *a burnt child dreads the fire* – og'zi qaynoq sutga kuygan, qatiqni ham puflab ichadi. Ikkinchi misolda ingliz va o'zbek frazeologik birikmalari o'rtasida muqobillik yo'qdek ko'rinadi. Chunki birlikning birorta so'zi bir-biriga to'g'ri kelmaydi, biroq frazeologik birlikda ifodalangan obraz deyarli bir xil – olovdan va qaynoq narsadan qo'rqish ma'nosi berilgan. Ikkala turg'un birlikda berilgan ma'no umumlashtirilgan. Yana birr-ikkita miolni tahlil qilib chiqaylik: *look not a gift horse in the mouth* – berganning betiga qarama, *to lay by a rainy day* – qora kunga saqlamoq/qoldirmoq va hokazo.

3. Har bir xalqning til boyligi, jumladan frazeologik birikmalari uning tarixi, madaniyati, urf-odatlar, turmush tarsi, mentaliteti va xarakterli xususiyatlari va shu kabilarni aks ettiradi. Hamma uchun bir xil fikrlar turli xalqlar tomonidan turlicha ifodalanadi: o'zbeklar *tuyaning dumi yerga tekkanda, qizil qorayoqqanda, xapshanba kuni* deganda inglizlar *"when pigs fly"* frazeologik birligini qo'llashadi. Ikkala frazeologik birligini qo'llashadi. Ikkala frazeologik iboradagi leksik birliklar bir-biriga, ayniqsa *"tuya, qizil qor hamda xapshanba"* butunlay to'g'ri kelmasada, *hech qachon sodir bo'lmaydigan ish-harakat, voqea* asosiy fikr hisoblanadi. Frazeologik birikmalar tarkibidagi aksariyat so'zlar esa ikkinchi darajali unsur sifatida qo'llangan. Bu yerdagi asosiy vazifa asliyatdagi frazeologik birikmalar tarjima tilida xuddi shu fikrni ifodalagan va xuddi shunday stilistik ma'noga ega bo'lgan turg'un birikma topish.

Misollardan ko'rinib turibdiki, aksariyat hollarda asliyatdagi frazeologik birikmalarning ekvivalentlari yo'q bo'lganda, ayni obraz qo'llanmaganda obrazni butunlay almashtirish tavsiya etiladi. Tarjima tilida asliyatdagi frazeologik birlikka ma'no stilistik ifodaliligi oxshash turg'un birikma topish maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Shunday hollar bo'ladiki, tarjima tilida asliyat tiliga na ekvivalenti va na o'xshash frazeologik birikma topiladi. Asliyatda ifodalangan fikrni aks ettira oladigan birlikni na ekvivalent na o'xshash bo'lganda, frazeologik birlik shaffof bo'lmasa, kalkalash usulidan foydalanishni iloji bo'lmaganda, turg'un frazeologik birikmalar tasviriy yo'l bilan tarjima qilinadi. Tasviriy usul erkin ko'chma ma'noga asoslanmagan frazeologik birliklarni qollashni talab etadi: *"a skeleton in the cup"* - "oila siri", *"in a whole skin"* - "bekamu-ko'st, soppa-sog', sog'-salomat, beziyon" va shu kabilar.

Ko'chma, ya'ni obrazli frazeologik birikmalarni tarjima qilishning asosiy usullari mavjud.

Frazeologik birikmalarni tarjima qilish jarayonida so'zlarning milliy xususiyatlarini hisobga olish lozim bo'ladi. Milliy xusiyatga ega bo'lgan so'zlar, ya'ni realiy (xos so'zlar) tarjimasi, frazeologik birikmalar tarjimasi juda murakkab hisoblanadi, tarjimondan katta kuch va ko'p vaqt talab etad. Bir tomondan tarjimada milliy xususiyatlarni saqlash oson bo'lmasa, ikkinchi tomondan tarjimonning erkinlikka yo'l qo'yishi natijasida tarjima tiliga asliyat tilining milliy xususiyatlarini olib kirish xollari uchrab turadi. Ma'no jihatdan *"to carry coals to Newcastle"* iborasi *"Surhandaryoga xurmo olib bormoq"*, *"Marg'ilonga atlas tashimoq"*, *"Chinozga baliq tashimoq"* deb emas, balki neytral ma'noga ega *"daryoga suv tashimoq"*, *"o'rmonga o'tin olib bormoq"* kabi neytral birikmalar topish, zarur bo'lsa, yangi erkin frazeologik birikmalar yaratish tavsiya etiladi. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan frazeologik birikmalar o'zbekchalashtirilishi lozim, lekin bu bilan tarjimaning o'zini oqlamagan usullardan foydalanish, uni suiiste'mol qilish nafaqat tarjima usuliga, balki mazmuniga ham putur yetkazadi, tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Belgilar umumiy va maxsus bo'lishi mumkin. Har qanday tilda oq rang soflik, adolat belgisidir. Shuningdek, qora - qayg'u, o'lim; gul - chiroyli, sevgi; bulbul-chiroyli ovoz; bo'ri - hasislik, ochlik; tulki - makkorlik; iymon - donolik va hokazo. Bu belgilar umumiy belgilardir. Har xil geografik iqtisodiy, ijtimoiy, insonlarning siyosiy holatlari bilan bog'liq maxsus belgilar ham mavjud. Shunga ko'ra bir frazeologik birikmalarni tarjimada turli hil so'zlar bilan solishtiramiz. M: *as red as a cherry* - olmaday qizil; *as harmless as a dove* - musichaday beozor.

Har bir tilda o'zining milliy, madaniy xususiyatlariga ega bo'lgan frazeologik birikmalar mavjud. Frazeologik birikmalarning tarjimasi milliy, madaniy hususiyatiga chuqur e'tibor bergan holda qilinishi lozim.

Frazeologik birikmalar har bir tilda tashkil topishi jihatidan ijtimoiy-tarixiy hodisalar, aqliy va ruhiy holatlar, din, milliy an'ana va urf-odatlarini o'z ichiga oladi. Turli xil geografik nomlar frazeologik birikmalarning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin. M: *Do in Rome as the*

Romans do. - Onasini uchqo'rg'ondan ko'rsataman. Frazeologik birikmalar milliy xususiyatga ega bo'lganda boshqa tilga kalka orqali tarjima qilinadi. M: *Golden wedding* – oltin to'y.

Ingliz tilida inson tana a'zolariga ko'z, qovoq, bosh va xokazolarga asoslangan bir necha iboralar mavjud. Ba'zida notasviriy ifodaviy, iboralar bilan tarjima qilish muhim bo'lib qoladi, lekin ba'zida tillarda ishlatilishi mumkin. Tarjimon iboralarni va asliyat tilidagi boshqa idiomalarni yodda saqlab qolishni o'rganishi shart. Haqiqiy qiyinchilik iboralarni badiiy tomondan tarjima qilinayotganda tug'iladi. Tarjimon tarjima tilidagi iboralarni qo'llanilishiga sezgirligini oshirish va ularning jonliligini ta'minlash uchun tabiiy qo'llashi va asliyat tilidagi usulini saqlab qolishi kerak. Asliyat tilida ibora hisoblanmagan, lekin iboralar bilan yaxshi tarjima qilinadigan so'zlar bo'lishi mumkin. M: *Dutch courage* iborasi o'zbek tiliga *kayf, mastlik* so'zlari bilan tarjima qilinadi.

Evfemizm - bir so'z, iboraning boshqa so'z yoki ibora o'rniga qo'llanilishi.

Lekin efemizm yoki qog'ozga o'rab gapirish nojoya iboraning, ijtimoiy qabul qilinmagan, yoqimsiz bo'lgan so'zlardan qochish maqsadida qo'llaniladi. Hamma tillarda boshqa so'z o'rnida qo'llaniluvchi ayniqsa jinsiy aloqa, o'lim va g'ayritabiiy holatlar doirasida qo'llaniladigan evfemizmlar frazeologik birliklari mavjud. Yahudiylar Xudo so'zi o'rnida jannat so'zini qo'llashgan. Ko'plab tillarda o'lim so'zining o'rniga boshqa so'zlarni qo'llash qabul qilingan. Inglizlar *pass away* – (narigi dunyoga ketmoq) va boshqa ifodalarni qo'llashadi. Jinsiy aloqa ko'p tillarda pardalab gapirish *as to know, to touch, to come together, to sleep with* singari frazeologik birikmalari orqali qo'llaniladi. Qo'shma Shtatlarda qari odamlarni katta yoshdagi shaxslar (*senior citizens*) deb atashadi. Evfemizmlar tarjima tiliga mos keladigan evfemizm so'zlar bilan qo'llanilishi kerak. Tarjimon uchun eng muhim narsa shuki, asosiy tildagi evfemizmning tabiiyligini eslab qolish va so'ng tarjima tilida qabul qilingan va to'g'ri keladigan so'zga tarjima qilish kerak. Misol uchun: *He is sleeping with his father* iborasi: *U qishlog'iga ketdi* deb tarjima qilish kerak. Biroq ba'zi tillarda *U o'ldi* deb tarjima qilinadi.

Frazeologik mos kelishlarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. To'liq moslashish. Misol: *to lose one's head* – kallasini yo'qotmoq.
2. Qisman moslashish, ular obrazlilik jihatidan yaqin, lekin leksik tuzilishi, sintaktik kelishuvidan va so'zlar tartibi jihatidan farqlanadi. Misol: *to get out of bed on the wrong foot* – chap yoni bilan turmoq.
3. Moslashishning bo'lmasligi.

Har xil tillarda ko'p frazeologik birikmalarning frazeologik moshlashuvi mavjud emas. Ular realiyadir.

Realiyalar leksik birlik bo'lib, insolar hayotidagi milliy urf-odatlar va ularga xos bo'lgan hodisalarni anglatadi.

Bunday frazeologik birikmalarni soʻzma-soʻz, analogiya yoki tasviriy yoʻl bilan tarjima qilish yaxshiroqdir. M: *Cold war* – sovuq urush.

Soʻzma – soʻz tarjima: *The apple of my eye* – koʻzginamning nuri.

Tahlil orqali tarjima: *To pull somebody's leg* – mazax qilmoq; *to enter the House* – parlament aʼzosi boʻlmoq .

Shunday qilib, frazeologik birikmalarni tarjima qilishning qiyin muammolaridan biri, bu ularning vazifaviy va semantik tomondan ajralmas birliklar boʻlib hisoblanishidir. Ularning idiomatik maʼnosi bor va ular nutqda tayyor birlik sifatida namoyon boʻladi. Frazeologik birikmalarning milliy madaniy xususiyatlar mavjud va ular tarjimada muommolar paydo qiladi.

Frazeologik birikmalar bir tildan boshqa tilga toʻgʻri yoʻl orqali tarjima qilinadi:

1. Grammatik, sematik va uslubiy moslashishlar orqali.
2. Semantik ekvivalentlar orqali.
3. Kalka orqali.
4. Tasviriy (bayon) tarjima orqali.

Toʻliq frazeologik birikmalarning moslashishi ikkita tilda bir xil boʻlishi mumkin. *Black frost* – qora sovuq; *to lose one's head* – kallasini yoʻqotmoq.

Frazeologik birikmalarni tarjima qilish jarayonida ularning tuzilishi va mazmunini solishtirish orqali funksional va semantik mustaqil birliklar tanlab olinadi. Bu prinsiplar til elementlarini oʻxshashlik va mos kelishi orqali ifoda qilinadi. Ushbu birliklarning tuzilishi va maʼnosi mos kelishi mumkin yoki moslashishda ayrim kamchiliklar orqali taqdim etiladi.

Frazeologik birikmalarni tuzilishi va mazmuni jihatidan toʻliq mos boʻlishi kam kuzatiladi. *Black frost* – qora sovuq.

Frazeologik birikmalarning qisman mos kelishi uchun obrazlilik tomondan bir xil, lekin tuzilish va soʻz tartibi jihatidan bir – biridan farq qilad. M: *to dance to smb's pipe* – birovning nogʻorasiga oynamoq.

Koʻpgina frazeologik birikmalarning oʻzbek tilida ekvivalentlari mavjud emas. Quyidagi turdagi birliklarni tarjima qilayotganda soʻzma-soʻz tarjima, analogik va tasviriy tarjima turlarini qoʻllash mumkin. M: *cold war* – sovuq urush, *the arm's race* – qurollanish poygasi. Analogiya tomonidan tarjima qilish esa maxsus milliy hususiyat boʻlgan holda mumkin boʻladi. M: *The apple of my eye* – koʻzginamning nuri. Tasviriy tarjima frazeologik birikmalarning, bu soʻzlar tuzulishining erkin tarjimasidir. M: *to enter the House* – parlament aʼzosi boʻlmoq.

Frazeologik birikmalarda komponentlarni almashtirish, tushirib qoldirish va qoʻshish mumkin. Shuning uchun biz tarjimada quyidagi holatni taʼkidlashimiz lozim.

Tarjimada ikki tildagi frazeologik birikmalarning asosiy tuzilishining grammatik shaklini saqlab qolish muhimdir. Aks holda uslubiy va pragmatik maʼnolar tarjimada aks ettirilmay

qolishi mumkin. M: Devorni ham qulog'i bor – *Walls have ears* – mumkin, lekin *Walls has an ear* mumkin emas. Frazеologik birliklar to'liq moslashishda o'zining tuzilishi va ma'nosi leksik birliklarning soni jihatidan farqlansa ham, lekin semantik jihatdan farqlanmaydi. M: Qanday shamol uchurdi – *what wind blows you here*.

Asliyat tilidagi frazeologik birikmalar ekvivalentini tarjimada topish uchun tarjima tilida mos keladigan variantini tanlanadi. Ushbu frazeologik birikmalar leksik komponentlar jihatidan farqlanadi, lekin ularning asliyat va tarjima tilida mazmuni bir xil bo'ladi. Ular tarjimada birbirlarining o'rnida qo'llanila oladi, chunki ularning o'rnida qo'llanishga to'siq bo'luvchi milliy xususiyatga ega emas. M: *to have smth at one's finger ends* - besh qo'lday bilmoq.

Ba'zida na ekvivalent, na mos keladigan ekvivalent yordam bera oladi.

Bunday holda tasviriy tarjima usuli qo'llaniladi. Bu frazeologik birikmalarning erkin ravishda tarjima qilinishdir. M: *It is greek to me* - jumboq.

Dress so'zi *to dress a chicken* va *to dress a child* iboralarida bir xil manoga ega emas. *To dress a chicken* – patini yulish, *To dress a child* esa kiyimlarini kiyish ma'nosida qo'llanilyapti.

Collocation so'zi bir so'z boshqasi o'rnida qo'llanilishini bildiradi. Ba'zi so'zlar tez-tez bir-biri bilan birga keladi va ba'zilari bir-biri bilan birga kelishi kuzatilmaydi. Qaysi so'zlar bir-biri bilan birga kelishini bilish matnni to'g'ri tushunish va to'g'ri tushunish va to'g'ri tarjima qilish imkonini beradi. Ba'zi so'zlar birga kela olmaydi. Ingliz tilida *cat's wings* (mushukning qanotlari) demaymiz, lekin biz *bird's wings* (qushning qanotlari) deb qo'llaymiz. Faqatgina fantastikada *mushukning qanotlari* deb qo'llash o'zini oqlashi mumkin. So'zlarning birikishi turli tillarda farqlanishi mumkin. Misol uchun: ingliz tilidagi *have* so'zi "*dream*" so'zi bilan qo'llaniladi: *I have a dream*. Biroq o'zbek tilida bu birikma qo'llanilmaydi.

Har qanday tilda birikmalar yoki frazeologik birikma aniqdir. Ular hamma vaqt aniq tartibda yoki birgalikda qo'llaniladi va ularning to'g'ri tarjimasini bilish muhim. Ayniqsa ingliz tilidagi *spick and span*, *hale and hearty*, *to- for*, *now and then*, *neat and tidy* kabi birikmalarni va ularning aniq tarjimasini bilish kerak. Boshqa tillarda turg'un birikmalar hisoblangan umuman turli birikmalar mavjud.

Aniq birikmalar odatda turg'un tartibda birgalikda ishlatiladi. Agar tartibi o'zgartirilsa, shu til so'zlashuvchisiga notabiyy tuyiladi. Ingliz tilidagi *bread and butter*, *day and night* (boshqa tillarda *night and day* deyiladi), *knife and fork*, *black and white*, *black and blue*, *ladies and gentlemen*, *rant and rave* kabi birikmalarni tarjimon bilishi lozim. Ingliz tili so'zlovchisiga agar kimdir *gentlemen and ladies* deydigan bo'lsa, bu g'alati tuyuladi. Ko'p tillarda *mother and father* deyishadi, lekin hech qachon *father and mother* emas. O'zbek tilida *ota va ona*, lekin *ona va ota* emas. Iboralar maxsus qo'llanishlar bo'lib to'liq ma'noga egadir. Lekin birikmalarning ma'nosi yaxlit so'zlarning ma'nosi bilan bir xil emas. Ular ko'pgina leksik birliklar bilan bir xil ma'nosi

bor boʻladi, lekin aniq moslashish boshqa tilda ifodalanmagan boʻladi. Misol uchun, ingliz tilida *kick the bucket* oʻlim bilan bir xil maʼnoga ega, lekin bu qandaydir hurmat koʻrsatish maqsadida ham qoʻllaniladi. Quyidagi misolda ingliz va oʻzbek tilidagi soʻzlarning tarjimasi berilgan, lekin har xil feʼllar qoʻllanilgan. Biliklarning har qaysi tildagi shakli tabiiydir, lekin badiiy tomondan tarjima qilinsa, notabiiy tuyulardi.

<i>To keep the law</i>	Qonunga amal qilmoq
<i>Ate wild honey</i>	Asal ichdi
<i>He was given wisdom</i>	Aql oʻrgatdi

Shuning uchun iboralarni tarjima qilayotganda bunday hollarda eʼtibor qaratish zarur. Tarjimon birinchi navbatda iboraning mazmunini aniq bilishi va iborani toʻliq ifoda qilish uchun tabiiy ekvivalentini topishi shart. Baʼzida soʻzlarda paydo boʻladigan umumiy maʼno birikmalariga asoslangan holda qoʻllanishlarni tahlil qilish mumkin. Misol uchun, quyidagi gaplarning qoʻllanishlari toʻgʻri.

Agar feʼl oʻzgartirilganda, natija notoʻgʻri maʼnoda yoki metafora maʼnosida boʻlib qolar edi. Birinchi ustunda shaxslarsiz ikkinchisida shaxslar bor qilib tarjima qilingan.

<i>I washed the car</i>	<i>I bathed the baby</i>
<i>I rented a typewriter</i>	<i>He hired a secretary</i>
<i>The puppy yelps</i>	<i>The bay screams</i>
<i>He sheared the sheep</i>	<i>He cut the boy's hair</i>

Shunday qilib, frazeologik birikmalar oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilinmaydi. Quyida ingliz frazeologik birikmalarining oʻzbek tilidagi birikmalarga moslashishi va ekvivalenti har xil boʻlishi mumkin boʻlgan misollar berilgan.

1. *It gave me a chance to sleep. I didn't sleep last night.* – Hechqisi yoʻq, qaytanga uxlab oldim, kechsi mijja qoqmagan edim.
2. *“Tonight you will tell me everything”* – said Rinaldi. – “Kechqurun menga oqizmay-tomizmay hikoya qilib berasiz”, - dedi Rinaldi.
3. *When he swaggered by twirling his new mustache, everybody stopped to look and admire.* – U endi sabza ura boshlagan moʻylovini burab, savlat toʻkib yurgan chogʻida hamma odamlar unga qarashar edi.
4. *I sacrificed everything for something that never come.* – Roʻyobga chiqmagan ana shu narsani deb butun umrimni hazon qildim.

5. *It was still raining cats and dogs.* – Yom hamon chelaklab quyayotgan edi.

6. *All right, I wash my hands of the matter. But I warn you all that a time's coming when you're going to feel sick whenever you think of this day.* – Yaxshi! Agar shunday bo'lsa, men qo'limni yuvib qo'ltig'imga uraman. Ammo sizlarga aytadigan bir gapim bor: bir kun keladi bu qilmishingizga pushaymon bo'lasiz va qilgan ishingizni eslashingizning o'zidayoq hushingizdan ketib qolasiz.

Frazeologik birikmalar nutqda tayyor holda uchraydi, ular turg'un birikmlar bo'lib, funksional va semantik jihatdan bo'linmas yoki ajralmas birliklardir.

Ingliz va o'zbek tillaridagi so'z birliklarining tez o'sishi natijasida yangi frazeologizmlarni o'z vaqtida ularni lug'atlardan topa olmaymiz va tarjimon ularni lug'atsiz tarjima qilishga to'g'ri keladi. Biz eski frazeologik birikmalarni «Большой английский – русский словарь» dan va A.V.Kuninning “Ingliz – rus tili frazeologik lug'ati” dan topa olishimiz mumkin. Tarjimon mustaqil holda frazeologiyani asosiy nazariyasi masalalarini hal qila olish, frazeologik birikmalarni to'g'ri tanlay olish va ularning ifodaviy-uslubiy tarjimadagi vazifalarini belgilab bera olishi kerak.

Frazeologik birikmalar tarjimasining asosiy qiyinchiligi shundaki, lug'atlarning hech biri matnda frazeologik birikmalarni qo'llanishidagi rang-barangliklarni ta'minlay olmaydi. Kuninning “Ingliz – rus tillari frazeologik lug'ti” da frazeologizmlarning ko'pchiligini tarjimasi bor. Masalan: *charity begins at home*. Bu frazeologik birlik har xil lug'atlarda turlicha tarjima qilingan. Myullerning «Англо – русский словарь» kitobida – *savob o'z uyingdan boshlanadi* deb izohlangan. Xornbayning lug'atida shu frazeologik birikma *charity begins at home – a person's first duty is to help members of his own family* deb keltirilgan.

Bu misol shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlarning lug'atlarda har xil shakllari berilishi mumkin, tarjimon uni hisobga olishi zarur.

Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning so'zma-so'z to'g'ri keluvchi ko'pgina turlari mavjud. Masalan: *to play with fire* – o't bilan o'ynashmoq.

Frazeologizmlarni tarjima qilish chog'ida shuni yodda saqlash kerakki, har qanday tilning frazeologizmi shaxsning ichki his-hayajonini ifodalash xususiyatiga ega.

Frazeologik birikmalarni obrazli asosda tarjima qilayotganda, ularni tarjima qilishda aniq namunalar, qoidalar mavjudki, buning to'rt xil yo'lini ko'rsatish mumkin:

1. Umumiy obrazlilikni saqlash.
 2. Obrazlilikni qisman o'zgartirish.
 3. Obrazlilikni umuman o'zgartirish.
 4. Obrazlilikdan voz kechish.
- *Fingers have light* – qo'li qing'irning – dili qing'ir.

- *Fingers beepers, loses meepers* – topgan niyoz, topmagan piyoz.
- *Fiddle while Rome is burning* – kimga to'y, kimga aza.
- *First think then speak* – oldin o'yla, keyin so'yla.

Umumiy bir tarzda aytganda, frazeologik birikmalarni tarjima qilish hammavaqt ham oson emas. Frazeologik birikmalarning ko'pchiligi emotsional va ekspressiv ma'no tashiydi va milliy xususiyatga ega bo'ladi.

Frazeologik birikmalar tilning lug'at tarkibidagi boshqa so'zlardan o'zining turg'unligi, nutq jarayonida tayyor birikma sifatida ishlatilishini hisobga olgan holda, ularni o'qitish va o'rganishda bir qancha muammo va qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Frazeologizmlarni o'rganishning eng samarali va oson usuli ma'lum asar, hikoya umuman olganda, badiiy asarlarni tarjima qilish orqali o'rganish hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida frazeologik birikmalarni o'qitishda ma'lum matnlarga tayangan holda dars olib borish samarali deb hisoblaymiz. Chunki bu jarayon davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda iboraning mavjud bo'lmagan yoki lug'atlarda keltirilmagan ma'nosini kashf qilishi mumkin. O'rganilgan frazeologizmlarni har dars davomida yod olib borish ularni uzoq muddat o'quvchi yodida turishiga zamin hozirlaydi. Frazeologik birikmalarni yod olishning yana bir usuli o'rganilgan frazeologik birikmalar ishtirokida gaplar, kichik matnlar, dialoglar va hikoyachalar tuzish hisoblanadi. Dars davomida esa ularni mustahkamlash maqsadida ko'plab mashqlar tizimidan foydalaniladi. Bularning barchasi frazeologizmlarning leksik, grammatik ma'nolariga yo'naltirilgan. Bundan kutilayotgan natija esa o'quvchilarda frazeologik birikmalar bo'yicha zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Xorijiy tillarning frazeologik birikmalarni oson va to'g'ri o'rganish uchun o'quvchi o'z tilining frazeologik birikmalaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak, aks holda biz ko'zlagan maqsadga yetishimiz qiyin bo'ladi. Quyida shunga o'xshash mashqlarning bir qanchasini keltirib o'tamiz.

1-mashq. *Frazeologik birikmalarni yozing. Ularni erkin va turg'un birikmalar, frazeologik chatishmalarga tasniflang.*

1) June saw she had played a wrong card and broke down. 2) He took a look at her, she was smiling. 3) She has got some silly bee in her bonnet about Eliza. 4) Ah, there you have hit the nail on the head. 5) Little Jon could see that he played second fiddle to her in his father's heart. 6) I couldn't forget it and I took a revenge. 7) The sooner they stop calling one another names the better. 8) His son, the apple of his eye, fell ill with scarlet fever. 9) Are you very rich? No, living from hand to mouth. 10) He must be in very low water.

2-mashq. *Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling, frazeologik birikmalarni yozing va ma'nosi bir so'zga teng keluvchi frazeologik birikmalarni ajrating. Ajratib yozilgan birikmlarga e'tibor bering.*

1) This was the time **to make the quick dash** south to the Mediterranean. 2) He **caught a glimpse** of a most singular thing. 3) The woman **cast a shy glance** full of a constraint at Ransie. 4) The elder sister, a girl of about twenty-one, **gave me a smile** and **a bright look** from her brown eyes. 5) He **took a swift turn** up and down the room. 6) When she saw me behind him, she **gave a little cry** and stood up radiant. 7) He **took a look** at her, she was smiling. 8) George knew that his papa was about **to take a nap**. 9) I **made him a bow**. 10) Miss Murdstone **gave a horse chuckle**. 11) He **gave her a sidelong look**, and found she was giving him the same. 12) Pettinger **took a drink** and offered the bottle to Jasha. 13) I had my reward in the first **glance** of admiration she ever **gave** me. 14) She **took a step** backwards and put out her hands. 15) Mantin **gave orders** to bring all the sandbags. 16) Soames **stole a glance**. 17) I **took a resolve** and lay down. 18) Miss Sharp **gave a little puff**, and a **little scream**, and a **little giggle**. 19) On the days when he does not come, she **takes a long walk** into London.

3-mashq. *Quyidagi gaplardan otli va fe'lli frazeologik birikmalarni ajrating va ularni tarjima qiling.*

1) The Boers are a hard nut to crack. 2) The garden party, a dinner party, and the reception! Too much of a good thing. 3) He had conspired against me like the rest, and they are birds of a feather. 4) Ten to one he isn't in. 5) The meeting was in full swing when he arrived. 6) The fact is they're cat and dog. 7) It was during this time that his little son, the apple of his eye, fell ill with scarlet fever. 8) Everything was in apple-pie order. 9) How I am worried, tied neck and heels. 10) I expect she's in bed somewhere with a dozen nurses and six doctors all dancing attendance on her. 11) So he took himself off with a flea in his ear. 12) I should certainly rap him over the knuckles. 13) Mrs. Crupp had indignantly assured him that there wasn't room to swing a cat there. 14) All this mass of business will be Greek to you. 15) It was reported by members of the family, who would drive up once in a blue moon and ask after their surviving uncle. 16) He had let the cat out of the bag. 17) Unfortunately, he makes no bones about it. 18) Either complete frankness, or complete ignoring – and that meant living with the sword of Damocles above his head.

4-mashq. *Qiyoslash ma'nosidagi frazeologik birikmalarni yozing va ularni tarjima qiling.*

1) She thinks I am as mild as a kitten and as good-natured and stolid as the family cow. 2) You are as slippery as an eel. 3) The America of George Washington is as dead as Queen Anne. 4) His hand was as cold as ice. 5) That little affair of your father-in-law and your Aunt

Irene, Val – it's old as the hills. 6) He was as drunk as a lord last night. 7) No man knows better than you when to make scenes and when to be as cool as a cucumber. 8) She was as lively as a squirrel. 9) I'm hungry as the devil. 10) He is as mad as a March hare. 11) He wasn't as mute as a poker. 12) We are as cross as two sticks. 13) You are as bold as brass. 14) But can I help people seeing what is as plain as the sun in the heavens? 15) After all, I can hardly expect him to come home merry as a lark when he's been sitting for hours with a bedridden invalid. 16) You gave me books to read. But I couldn't read them: they were as dull as ditch water. 17) "When Sissy got into the school here," he persuaded, "her father was as pleased as Punch." 18) For a week Bicket had seen "the job", slippery as an eel, evasive as a swallow, for ever passing out of reach. 19) I will be silent as the grave, I swear it. 20) I wish I had your health. You look as hard as nails. 21) He is as mad as a hatter, you know, but quite harmless, and extremely clever. I only know the chap is as cool as a cucumber.

5-mashq. *Juft frazeologik birikmalarni yozing va ularni tarjima qiling.*

1) At three o'clock that afternoon, they all stood high and dry, safe and sound, hale and hearty, upon the steps of the Blue Lion. 2) The sister, who was an industrious girl, looked high and low for the necklace, but I needn't say, didn't find it. 3) In the main street of Ipswich stands an inn known far and wide by the appellation of "the Great White Horse". 4) I shouldn't have objected to a ten-pound note here and there. 5) Your hard and fast scientific men – they don't understand this. 6) Even envious Miss Briggs never spoke ill of her; high and mighty Miss Saltire allowed that her figure was genteel. 7) She held the two new pound notes up in the air for all and sundry to see. 8) Now and then I looked through the carriage windows. 9) He could see wide straight-sided stretches every now and then. 10) He slipped the few odds and ends that he had not packed into his bags. 11) She could play fast and loose with him. 12) My grandfather is his cousin, so he's kith and kin to me somehow. 13) Stuff sense, said my aunt, don't talk to me. 14) And all were cheering with might and main. 15) The whole district shows the wear and tear of glacial ice moving outwards and downwards from the central plateau. 16) Now she walked quite aimlessly for a time, turning here and there, but finding no courage to go on with her inquiry.

6-mashq. *Quyidagi maqollarni tarjima qiling.*

1) All that glitters is not gold. 2) No pains, no gains. 3) All cats are alike grey in the night. 4) All is well that ends well. 5) As you sow, you shall mow. 6) Better late than never. 7) A great sheep asks water. 8) One swallow does not make a summer. 9) Speech is silver, silence is golden. 10) Tastes differ. 11) A stitch in time saves nine. 12) Choose an author as you choose a friend. 13) Don't trouble trouble till trouble troubles you. 14) Every cloud has a silver lining. 15)

First think, then speak. 16) Necessity is the mother of invention. 17) Where there's a will, there's a way.

7-mashq. *Quyidagi maqollarning sinonimlarini tanlang.*

1) There is no place like home. 2) Well begun is half done. 3) Two heads are better than one. 4) Good health is above wealth. 5) So many men, so many minds. 6) A good beginning makes a good ending. 7) Four eyes see more than two. 8) So many countries, so many customs. 9) East or West home is best. 10) A good beginning is half the battle. 11) Wealth is nothing, without health.

Xulosa

Mazkur bitiruv malakaviy ish ustida olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz va mavzu yuzasidan to'plagan ma'lumotlarga asoslanib quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

Mazkur bitiruv malakaviy ish orqali ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birikmalarning paydo bo'lish usullari va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etish usullari mavzusiga ilmiy jihatdan yondoshdik, uning tarixi haqida bir qator ma'lumotlar keltirdik va bu mavzuni qadimiy tarixga ega ekanligini bilib oldik. Shu bilan birga frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llari ancha muammoli bo'lib uning hali ochilmagan qirralari bor. Biz ularni o'z ilmiy qarashlarimizdan kelib chiqqan holda o'rgandik.

Xozirgi zamon tilshunosligida frazeologik birikmalar yozuvchilarning asarlarida va oratorlarning nutqida stilistik vosita sifatida juda keng qo'llanilmoqda. Chunki u fikrni aniq, to'liq, obrazli ifodalaydi, shuningdek, nutqqa ifodalilik, emotsionallik va ko'tarinkilik berish uchun xizmat qiladi.

Frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llarini ingliz tili va o'zbek tilida qiyoslar ekanmiz, uning o'ziga hos xususiyatlarini, unda uchraydigan o'xshash va noo'xshash tomonlarini o'rgandik. Bu esa biz bo'lajak o'qituvchilar uchun buni bilishimiz muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir.

Har ikkala til o'zining leksik, frazeologik, grammatik strukturasi va xususiyatlariga ega bo'lganligi tufayli ingliz va o'zbek tillarida o'zaro bir qancha farqlar mavjud. Ushbu farqlar esa chet tilini o'rganayotgan o'quvchiga qiyinchiliklar tug'diradi. O'quvchilar esa ushbu muammolarni bartaraf etishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishda ingliz va o'zbek tilidagi frazeologik birikmalarni tahlil qilishga harakat qildik va undagi nomutonsibliklar mavjudligini ta'kidlab, bu tillarda bir-biriga mos tushuvchi frazeologizmlar, maqollar va so'z birikmalarini ko'rsatib o'tdik. Ushbu bitiruv malakaviy ishning maqsadidan kelib chiqqan holda frazeologik birikmalarning paydo bo'lish yo'llarini va ularning o'zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etish usullari texnologiyasi bo'yicha metodik ko'rsatmalar keltirdik. O'zbek va ingliz tilidagi frazeologizmlar va iboralarni o'quvchilar tushunishiga va ularni farqlashiga yordam beruvchi birikmalarni berib o'tdik. Frazeologik birikmalarni o'rganishda mashqlar tizimi muhim ahamiyatga ega. Frazeologik birikmalarni o'rganishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda turli xil nutq mashqlardan foydalanamiz.

Ingliz tilida frazeologik birikmalar mavzusini o'rta maktablarda o'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida qo'llanadigan interfaol metodlar yordamida o'qitish samarali natijaga erishish garovi hisoblanadi. O'quvchilarning intellektual faolligini

oshirishda interaktiv usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy etishni talab etadi.

Interaktiv usullar o'zaro harakat, yoki hamkorlik asosida harakatni bildiradi. Bu metodlar bo'yicha ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur. Interfaol dars ta'lim sifatini kafolatlaydi. Chunki interfaol ta'lim jarayonida o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchini o'qitish emas, ta'lim jarayonini boshqarish va o'quvchiga sharoit yaratib berishdan iborat bo'lib, o'quvchining vazifasi o'rganilayotgan har qanday bilim, ko'nikmalarni o'zi, o'rganilayotgan muammoning yechimini o'zi qidirib topishidan iborat. Muammo o'quvchi tomonidan yechilganligi uchun ham o'quvchining o'zlashtirishi kafolatlanadi.

O'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'quvchiga mavzu yuzasidan og'zaki, yozma va test savollari hamda shu kabi mashqlar berib borish orqali frazeologik birikmalar va iboralarni o'rganish va o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni, muammolarni bartaraf etishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda chet til o'qitish tizimida keng qo'llanilayotgan metodlar asosan suggestopedik metodning nazariy asoslaridan kelib chiqib shakllangan. Shularga misol tariqasida interfaol metodlarni ham keltirish mumkin.

Kelajakda ushbu izlanish til o'rganuvchilarga mavzuni o'rganishda amaliy yordam beradi deb umid qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent, 1996, 235-bet.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, 1999, 14-15-betlar
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, 1998, 24-bet.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent. "Ma'naviyat". 2009-yil, 1-bet.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, 1997, 298-bet.
6. Karimov I.A. ning Vazirlar Mahkamasida oliy ta'lim muassasalariga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqidan. "Turkiston" gazetasi, 1993-yil 20-iyun.
7. Karimov I.A. ning "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasining 2012-yil 11-dekabrdagi №240 (5660) soni.
8. Abbosxon N. "Sho'rqishloq". T., "O'qituvchi", 1979
9. Abdurahmonov G., Sulaymonov H., Holiyorov J.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., "O'qituvchi", 1979.

10. Adam Smith. An Enquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. Ldn., 1970
11. Akobirov S. Lug`at – so`z xazinasi. T., 1963.
12. Alexander Pope. An Essays on Criticism. Ldn., 1860.
13. Alexander Pope. Epistle to Dr. Arbuthnot. Ldn., 1860.
14. Alexander Pope. Essay on Man. Ldn., 1860.
15. Alexander Pope. Moral Essays. Ldn., 1860.
16. Alfred Tennyson. Idylls of the King. New-York, 1991.
17. Arnold I.V. The English Word. M., 1973.
18. Arnold I.V. The English Word. Moscow, 1976
19. Arnold I.V.. The English Word. M., 1986.
20. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T., 1963.
21. Ben Johnson. A Tale of a Tub. Toronto, 1985.
22. Ben Johnson. His Case is Attired. Toronto, 1985.
23. Bradley H., The Making of English. New York – London, 1928, p. 225
24. “Brewer’s Dictionary of Phrase and Fable”, Ldn., 1965, p. 683.
25. Charles Dickens. Bleak House. Ldn., 1962
26. Charles Dickens. Little Dorrit. Ldn., 1996.
27. Charles Dickens. Pickwick Club. Ldn., 1964
28. Charles Dickens. David Copperfield. Ldn., 1965
29. Charles Dickens. Nicholas Nickleby. London, 1987.
30. Christen. “State of Matrimony”, Washington, 1543
31. Daniel Defoe. Everybody’s Business. Moscow, 1993.
32. Dictionary of English Language and culture. (with color illustrations) (Longman Group UK limited 1992)
33. Dementeva M.Yu. номинативно-когнитивный аспект семантики фразеологизма и слова. Авторев. Дисс. Канд. Фил. Наук. – Волгоград, 2001.
34. Edmund Bark. Reflections on the Revolution in France. Moscow, 1957
35. Edmund Bark. Thoughts and Details on Scarcity. Toshkent. 2011
36. Esenboyev R. Tarjima san’ati. 1,2,3,4 kitoblar. Toshkent. 1986.
37. Edmund Spenser. The Faerie Queen. Moscow, 1979
38. Geoffrey Chaucer. The Canterbury Tales. Volgograd, 2004
39. Geoffrey Chaucer. Troilus and Criseyde. Longman Group UK limited 2013
40. George Gordon Byron. Childe Harold’s Pilgrimage. Moscow, 1971.
41. Ginsburg R.S. A Course in Modern English Lexicology. M., 1979

42. Ginsburg R.S.. A Verbal Collocations in Modern English. M., 1974.
43. Golitsinskiy Yu.B. Great Britain. KARO, St. Petersburg, 2003.
44. Hamdam U. "Muvozanat". Toshkent, SHARQ, 2003
45. Henry M. Stanly. Through the Dark Continent. St. Petersburg, 2008.
46. Hojiyev.A, Ahmedov.A. tahriri ostida. O`zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, "FAN", 1981.
47. Hume D. History of England. London, Cambridge, 1981.
48. John Banyan. The Pilgrim's Progress. M., 1995.
49. John Dryden. Hind and the Panther (poem). M., 1979
50. John Milton. L'Allegro. 2005.
51. John Milton. Paradise Lost. Moscow, 1989.
52. Johnathan Swift. Polite Conversation. M., 2005.
53. Khodjayev M.Kh. A Course of the History of Great Britain. Andizhan, 2002.
54. Kovshovya M.L. Национально-культурная специфика фразеологических единиц (когнитив аспекты): Автор. Дисс. Канд. Фил. Наук. – М., 1996.
55. Latinov L.Ch. Роль английских и русских фразеологических единиц в формировании модальности в тексте. Автор. Дисс. Канд. Фил. Наук. – Волгоград, 2002.
56. Little W. The Shorter Oxford Dictionary, Clementon. Press 1933.
57. Lord Chesterfield. Letters to his son. Clementon. Press 1949.
58. Macmillan English Dictionary. New-York, 2010.
59. Malik T. "Davron". Toshkent. 2010
60. Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari. // O`zbek tili va adabiyoti. O`zFAN., T., 1998, 6-son, 56-58-betlar.
61. Mednikova E.M.. Seminars in English Lexicology. M., 1978.
62. Mirzayev M., Usmonov S.. O`zbek tili. T., "O`qituvchi", 1978.
63. Oliver Goldsmith. She Stoops to Conquer. Toronto, 2003
64. Oliver Wendell Holms. Medical Essays. M., 2003.
65. Partridge E. Dictionary of Clichées. Ldn., 1960.
66. Qo`chqortoyev I., Qo`chqortoyeva R.. Tilshunoslikka kirish. I qism. T., 1976.
67. Rahmatullayev Sh. O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati. T., 1978.
68. Reimov B.X. Фразеологические единицы английского языка, характеризующие эмоциональное состояние человека. Автор. Дисс. Канд. Фил. Наук. – Ташкент, 2005.
69. Reshetov V.V. tahriri ostida. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 1966.

70. Robert Burns. On the late Captain Grose's Peregrinations thro' Scotland. Ldn. 1988
71. Robert Luis Stevenson. Memories and Portraits. Ldn. 1988
72. Ruscha-o'zbekcha lug'at. I-II tom. O'zbek Sovet Ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. Toshkent, 1983.
73. Salomov G'. Til va tarjima. Toshkent, 1966. 245-bet.
74. Samuel Johnson. The Vanity of Human Wishes. Toronto, 1999
75. Samuel Richardson. The History of Sir Charles Grandison. Toronto, 1999
76. Samuel Richardson. Pamela. Toronto, 1999
77. Sir Francis Bacon. Essays. Oxford, 1971
78. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M.. Tilshunoslikka kirish. T., "O'qituvchi", 1981.
79. Soliyev I.S., Shaxs makromaydoning lingvo-tipologik kategoriyalashtirishda funksional semantik va pragmatik vositalarning roli. T., 2003
80. Soliyev I.S., Abduvaliyev M.A. va boshqalar, Uch tilli inglizcha, o'zbekcha va ruscha izohli tarjima lug'ati. Andijon, 2006.
81. Thomas Campbell. The Pleasures of Hope. Thomas Gray. On a Distant Prospect of Eton College. New-York, 1998
82. Thomas Carrel. The French Revolution. Moscow, 1971
83. Thomas Gray. On a Distant Prospect of Eton College. The UK, 1989
84. Thomas Gray. Elegy written in a country church-yard. The UK, 1989
85. Tobias Mallet. The Expedition of Humphrey Clinker. Cambridge, 1962
86. Tobias Mallet. Adventures of Gil Blass of Scintillate. Lesaj kitoblarining tarjimasi. Cambridge, 1962
87. Tobias Mallet. Sermons. Cambridge, 1962
88. Tohir Malik. "Devona". Toshkent, Sharq, 1980
89. Tohir Malik. "Falak". Toshkent, Sharq, 1980
90. Tursunov U., Muhtorov J., Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., "O'qituvchi". 1979.
91. Umarho'jayev E.M., Umumiy tilshunoslik. Andijon, 2010.
92. Walter Scott. Rob Roy. Wales, 2013.
93. Walter Scott. Marmion. Wales, 2013.
94. William Cooper. The Task. Idaho, 2007.
95. William Davenport. The Cruel Brother. London, 1998.
96. William Shakespeare. A Midsummer – Night's Dream. Moscow, 1992
97. William Shakespeare. Anthony and Cleopatra. Moscow, 1992
98. William Shakespeare. As You Like It. Moscow, 1992
99. William Shakespeare. Coriolanus. Moscow, 1992

100. William Shakespeare. Hamlet. Moscow, 1992
101. William Shakespeare. Julius Caesar. Moscow, 1992
102. William Shakespeare. King Henry IV. Moscow, 1992
103. William Shakespeare. King Henry V. Moscow, 1992
104. William Shakespeare. King John. Moscow, 1992
105. William Shakespeare. King Lear. Moscow, 1992
106. William Shakespeare. King Richard III. Moscow, 1992
107. William Shakespeare. Love Labor Last. Moscow, 1992
108. William Shakespeare. Macbeth. Moscow, 1992
109. William Shakespeare. Merchant of Venice. Moscow, 1992
110. William Shakespeare. Much Ado About Nothing. Moscow, 1992
111. William Shakespeare. Othello. Moscow, 1992
112. William Shakespeare. Romeo and Juliet. Moscow, 1992
113. William Shakespeare. The Taming of the Shrew. Moscow, 1992
114. William Shakespeare. Titus Andronicus. Moscow, 1992
115. William Shakespeare. Twelfth Night. Moscow, 1992
116. Worrall A.J. English Idioms for Foreign Students. London – New-York – Toronto, 1946.
117. Zikova I.V. Гендерный компонент в структуре и семантике фразеологических единиц современного английского языка: Авторев. Дисс. Канд. Фил. Наук. – М., 2002.
118. “O`zbekiston ovozi” gazetasi, 1991-yil 27-sentabr
119. “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2012-yil, 1-son.
120. G`ofur G`ulom. “Yodgor”. Toshkent, G`ofur G`ulom. 2006
121. Амосова Н.Н. Фразеология современного английского языка. М., 1993.
122. Виноградов В.А. Методы типологии. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. М., 1973.
123. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. \\ А.А.Шахматов. Сборник статей и материалов. М., 1947.
124. Виноградов В.В.. Лексикология и лексикография. М., Наука. 1977.
125. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. Изд. «Международные отношения», Москва, 1972.
126. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. Гос. Изд-во иностранных и национальных словарей, Москва, 1984.

127. Ларин Б.А. Очерк по фразеологии. \ Учен.зап. ЛГУ, №198. Серия Филологические науки, вып. 24, 1956.
128. Рахимов С.Р. Речевая коммуникация и проблемы дейксиса в разносистемных языках. Т., Фан, 1989.
129. Рахимов С.Р. Проблема дейксиса как категория типологической лингвистики. Дисс.док.филол.наук., М., 1990.р
130. Селиванов Г.А. Фразеологическая контаминация как один из показателей структурного развития русского языка // Вопросы семантики фразеологических единиц. Часть 1. Новгород, 1971. С. 233-234.
131. Свиридова Л.Ф. Обогащение английской фразеологии шекспиризмами. Автореферат кандидатская диссертация. М. 1968. Стр.20.
132. Смирницкий И.А.. Лексикология английского языка. М., 1956., Глава III.
133. Умархуджаев Э.М. Очерков фразеологии. М., 1973.
134. Телия В.Н. Что такое фразеология. Изд. Наука. Москва, 1966.
- 135.
- 136.